

81.633.1

A 99

391

I. AZIMOV, M. SAPARNIYOZOVA

**ONA TILIDAN MA'RUZALAR  
VA TESTLAR MAJMUASI**



FF0000004708

81.653.1

H. U.

A 99

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI


*I.Azimov, M.Saparniyazova*

S/P

## ONA TILIDAN MA'Ruzalar VA TESTLAR MAJMUASI

(oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun)

8195



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT  
AXBOROT-NESQOVA MARKAZI

Toshkent — 2008

## A n n o t a t s i y a

Mazkur metodik qo'llanma oily o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim ona tili dasturlari va darsliklari asosida tayyorlangan. Qo'llanma "Ona tili" kursining fonetika, leksikologiya, frazeologiya, so'z tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, uslubiyat bo'limlari haqida normativ ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

"Ona tili" fanining har bir bo'limi bo'yicha keng hajmda testlar majmui ham berilgan.

M a s ' u l

m u h a r r i r : **N.M.Mahmudov**, f.f.d., professor.

T a q r i z c h i l a r : **H.A.Jamolxonov**, Nizomiy nomidagi

TDPU professori, filologiya fanlari nomzodi;

**N.Mahkamov** O'zFA Til va adabiyot instituti  
terminologiya bo'limi mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

T e x n i k

m u h a r r i r : **Y.Azimova**

*Mazkur metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashining 2008-yil 29-may 10/5.20. sonli qarori bilan nashrga taysiya etilgan.*

## MUNDARIJA

KIRISH.....	5
FONETIKA.....	7
BO'G'IN.....	8
URG'U.....	9
ORFOEPIYA.....	11
GRAFIKA.....	11
O'ZBEK YOZUVI TARIXI.....	12
ORFOGRAFIYA.....	12
LEKSIKOLOGIYA.....	18
FRAZEOLOGIYA.....	25
O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI.....	26
SO'Z TARKIBI (MORFEMIKA).....	28
SO'Z YASALISHI.....	31
MORFOLOGIYA.....	39
OT SO'Z TURKUMI.....	40
ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI.....	45
SIFAT SO'Z TURKUMI.....	50
SON.....	52
OLMOSH.....	55
FE'L.....	58
RAVISH.....	68
YORDAMCHI SO'ZLAR.....	69
ALOHIDA GURUH SO'ZLARI .....	73
SINTAKSIS.....	75
GAP.....	81
KESIM VA UNING IFODALANISHI .....	84
BOG'LAMA.....	86
EGA VA UNING IFODALANISHI.....	87
HOL.....	88
TO'LDIRUVCHI.....	90
ANIQLOVCHI.....	91
GAP BO'LAKLARINING TARTIBI.....	92
EGALI VA EGASIZ GAPLAR.....	93
TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR.....	94
GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI.....	95
AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR.....	97
GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO'LAKLAR.....	98
UNDALMA.....	98
KIRITMALAR.....	99
SODDA VA QO'SHMA GAPLAR.....	100
BOG'LANGAN QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT.....	101

ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR.....	103
BOSH VA ERGASH GAP.....	103
KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR.....	113
NUTQ USLUBLARI HAQIDA MA'LUMOT.....	114
INSHO NAZARIYASI HAQIDA MA'LUMOT.....	117
TINISH BELGILARINI QO'LЛАSH QOIDALARI.....	118
TESTLAR.....	131

## KIRISH

O'zbek tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiga mansub. Turkiy tillar guruhi: o'zbek, qozoq, qorachoy, yoqt, gagauz, turk, ozarbayjon, qirg'iz, turkman, uyg'ur, tatar kabi 24 ta tilni o'z ichiga oladi.

O'zbek adabiy tili milliy tilning bir qismi bo'lib **fonetik, leksik, grammatik** jihatdan sayqallashtirilgan, me'yorashtirilgan tildir.

Adabiy til ikkita: og'zaki va yozma shaklga ega.

- og'zaki shakl — *orfoeziyada*
- yozma shakl — *orfografiyada* o'rganiladi:

Adabiy til ikki manba asosida boyiydi:

- *ichki manba*
- *tashqi manba*.

*Ichki manba* asosida tilning boyishiga: a)shevalar; b)o'zbek tili so'z yasash imkoniyatlari asosida yangi so'zlarni yasash usullari kiradi. Masalan: *gulchi*, *kitobning*, *kelinchak*, *toychoq*, o'yingoh, o'txo'r.

*Tashqi manba* asosida tilning boyishi. Tashqi manba (imkoniyat) asosida tilning boyishiga qardosh bo'limgan tillardan so'zlarning o'zlashishi va iste'molda bo'lish hodisasi kiradi: *fakul'tet*, *kollej*, *stol*, *stul*, *menejer*, *broker* va x.k.

Til jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Tilda eng ko'p o'zgarish tilning **leksik** sathida, ya'ni leksikologiyada yuz beradi.

*Shevalar* adabiy tilning **ichki asosidir**. Yaqin shevalar birligi **lahja** deyiladi. O'zbek tilida 3ta lahja mavjud:

1. *Qarluq* lahjasi
2. *Qipchoq* lahjasi
3. *O'g'uz* lahjasi:

*Qarluq* lahjasi: adabiy tilning tayanch lahjasi bo'lib Toshkent va Farg'ona **shahar** Shevalarini o'z ichiga oladi.

Farg'ona shevasi - **morfologik** (grammatik) jihatdan;

Toshkent shevasi - **fonetik** jihatdan adabiy tilning tayanchi bo'lib hisoblanadi.

*Qipchoq* lahjasi - barcha-j-lovchi shevalarni o'z ichiga oladi.

*O'g'uz* lahjasi:- janubiy Xorazm shevalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari:

1. *Qadimgi turkiy til* (X-XIII ) asr; manbalari: "O'rxun Enasoy" yozma yodgorliklari. Bu yodgorliklar XVIII asrda topib o'rganilgan.

2. Turkiy til X-XII asrda ijod qilingan yozma manbalarni o‘z ichiga oladi. Manbalari: Yusuf Hos Xojibning – “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning – “Hibat-ul haqoyiq” asarlari.

3. Eski o'zbek adabiy tili XIV-XIX asrlardagi yozma manbalarini o'z ichiga oladi.

4. Yangi o'zbek adabiy tili XX asrning 20-yillardidan mustaqillik yillarigacha bo'lgan vozma manbalarni o'z ichiga oladi.

5. Mustaqillik davri o'zbek adabiy tili 1991 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr manbalari shular sirasidandir.

## FONETIKA

Tilshunoslikning fonetika bo'limi tilning tovush tomonini - nutq tovushlarini o'rganuvchi bo'limdir.

Nutq tovushlari—nutq a'zolari yordamida hosil bo'lувчи tovushlardir. Tarkibidagi *shovqin* va *ovoz miqdorigi* ko'ra nutq tovushlari **unli** va **undoshlarga** bo'linadi.

**Unli tovushlar** faqat ovozdan iborat bo'lib , talaffuzda to'siqqa uchramaydi.

**Ular:** A: O: I: E: U: O':

**Old qator unlilar - A: I: E:**

**Orqa qator unlilar - O: U: O':**

**Undosh tovushlarning tarkibi** ovoz va shovqindan iborat bo'lib, talaffuzda to'siqqa uchraydi.

O'zbek tilida 24 ta undosh tovush bor: B: V: G: D: J (portlovchi):J:(sirg'aluvchi): Z: Y: K: L: M: N: NG: P: R: S: T: F: X: Sh: Ch: Q: G': H:

### Undoshlar tasnifi.

Undosh tovushlar uch tomonlama tasnif qilinadi:

1. hosil bo'lish o'miga ko'ra;
2. hosil bo'lish usuliga ko'ra;
3. ovoz va shovqin (un paychalari) ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish o'miga ko'ra tasnidda undosh tovushning qaysi nutq a'zosida hosil bo'lishi nazarda tutiladi. Unga ko'ra lab undoshlari, til undoshlari va bo'g'iz undoshlari farqlanadi.

1. Lab undoshlari: **B, P, M, V, F tovushlari.** Shundan : **B, P, M** tovushlari lablarda hosil bo'lganligi uchun lab-lab; **V, F** tovushlari lab va tishda hosil bo'lganligi uchun lab-tish undoshlari deyiladi.

2. Til oldi undoshlari: **D, J (portlovchi), J (sirg'aluvchi), Z, L, N, R, S, T, Sh, Ch.**

3.Til o'rta undoshi: **Y**

4.Sayoz til orqa undoshlari: **K, Ng, G.**

5.Chuqur til orqa undoshlari: **Q, G', X.**

6.Bo'g'iz undoshi: **H:**

Hosil bo'lish usuliga ko'ra. Bunda o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqdan qay tarzda o'tishi nazarda tutiladi va quyidagi turkumlarga ajraladi:

1.Sof portlovchilar. Bunda og'iz bo'shlig'idagi nutq a'zolarining juftlashishi asosida to'siq hosil bo'ladi va to'siq zich yopiladi. Havo oqimi ushbu to'siqqa urilib, portlashi natijasida tovush hosil bo'ladi. Ularga **B**, **G**, **D**, **K**, **P**, **Q** tovushlari kiradi.

2. Qorishiq portlovchilar. Bunday tovushlarning tarkibi bitta portlovchi va bitta sirg'aluvchi tovush qorishishidan iborat bo'ladi. Unga **J**, **Ch** undoshlari kiradi. J qorishiq portlovchi undoshi tarkibida D (portlovchi) va J (sirg'aluvchi) tovushlari, Ch qorishiq portlovchi undoshi tarkibida T (portlovchi) va Sh (sirg'aluvchi) tovushlari qorishgan.

3.Sirg'aluvchi undoshlar. Bunda nutq a'zolari juftlashadi, lekin jipslashmaydi, to'siq zich yopilmaydi.Havo oqimi tor oraliqdan sirg'alib chiqadi. Ularga **J(sirg'aluvchi)**,**V**, **F**, **Z**, **S**, **L**, **R** tovushlari kiradi. Bulardan L - yon tovush, R - titroq tovush deb ham yuritiladi.

4.Portlovchi - sirg'aluvchilar (burun tovushlari). Bu tovushlar hosil bo'lishida og'iz bo'shlig'i a'zolarida to'siq zich yopiladi va undosh og'izdan portlab, burundan sirg'alib chiqadi. Bularga **M**, **N**, **NG** undoshlari kiradi.

Un paychalarining ishtirokiga ko'ra nutq tovushlarining jarangli va jarangsiz turlari farqlanadi.

Jarangli – **V**, **G**, **D**, **Z**, **G'**, **J**, **J**, **B**, **L**, **M**, **N**, **Ng**, **R**, **Y**.

Jarangsiz - **F**, **K**, **T**, **S**, **X**, **Ch**, **Sh**, **P**, **Q**, **H**.

**L**, **M**, **N**, **Ng**, **R**, **Y** tovushlari sonorlar deb ham yuritiladi. Sonor tovushlar tarkibidagi ovoz miqdori kuchli bo'ladi.

## BO'G'IN

Bo'g'in - bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar yig'indisidir. Bo'g'in ko'chirish va bo'g'inga ajratish hodisalarini farqlash lozim. Bo'g'inga ajratish fonetik hodisa bo'lib, unda so'z talaffuzidagi havo zarblari asosida ajratiladi. Bo'g'inning asosini unli tovush tashkil qiladi. O'zbek tilida bo'g'inning quyidagi shakllari mavjud:

- bir unlidan iborat bo'g'in: *o-ta*, *a-na*;
- bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'in: *bo-la*, *ti-la*;
- ikki undosh va bir unlidan iborat bo'g'in: *tas-diq*, *mak-tab*
- uch undosh va bir unlidan iborat bo'g'in: *port-lash*, *g'isht-ni*;
- to'rt undosh va bir unlidan iborat bo'g'in: *trans-port*, *sport-chi*.

**BO'G'IN TURLARI.** So'zning qanday tovush bilan tugashiga ko'ra bo'g'inlarning ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in turlari farqlanadi.

Ochiq bo‘g‘in- bir unlidan iborat yoki unli bilan tugagan bo‘g‘indir: *a-ra-va, mu-o-ma-la, ma-na, Bu-xo-ro.*

Yopiq bo‘g‘in- undosh bilan tugagan bo‘g‘indir: *ach-chiq, is-siq, mak-tab.*

So‘zlarning qanday tovush bilan boshlanishiga ko‘ra berkitilgan va berkitilmagan bo‘g‘in turlari farqlanadi.

Berkitilgan bo‘g‘in - undosh bilan boshlangan bo‘g‘indir: *pi-choq.*

Berkitilmagan bo‘g‘in- unli bilan boshlanuvchi bo‘g‘indir: *E‘-zoza, ma-o-rif.*

Bo‘g‘inga ajratish: *Zul-fi-ya*

Bo‘g‘in ko‘chirish: *Zul-fiya*

## BO‘G‘IN KO‘CHIRISH QOIDALARI

Imlo qoidasi bo‘lib, tilshunoslikning orfografiya bo‘limida o‘rganiladi. Test sinovlarida bo‘g‘in ko‘chirish va bo‘g‘inga ajratish hodisalarini farqlash lozimligini nazarda tutgan holda biz bu ikki hodisani qiyosan berishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Quyidagi holatlarda so‘z satrdan satrga ko‘chiriladi:

- so‘z bo‘g‘inlar asosida ko‘chiriladi: *tez-da, sah-ro;*
- yolg‘iz xarfdan iborat bo‘g‘in keyingi bo‘g‘in tarkibida ko‘chiriladi: *ota, mat-baa, ona, aka-uka*
- ng xarf birikmasi bir tovushni ifodalaganda bo‘lmasdan ko‘chiriladi: *ko‘-ngil, ing-ra, si-ngil.* Lekin -n va -g alohida tovushlarni ifodalaganda hamda ruscha baynalminal so‘zlarda bo‘lib ko‘chiriladi: *kon-gress, so‘n-gan, ton-gach, in-gliz, tan-gens.*
- Shch xarf birikmasi: *me-shchan, pome-shchik.*
- qisqartma so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirilmaydi: *O‘zMU, ToshMI, O‘zJTU.*

## URG‘U

So‘z tarkibidagi biror bo‘g‘inning yoki gapdagi so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq, cho‘ziqroq aytishiga urg‘u deyiladi: *Bola‘, bolala‘r.*

Urg‘u ikki xil bo‘ladi: gap urg‘usi va so‘z urg‘usi.

Gap urg‘usi- ma’no urg‘usi yoki mantiqiy urg‘u ham deyiladi. Gapda so‘zlovchining e’tibori qaratilgan bo‘lak kesim oldida joylashadi va mantiqiy urg‘u oladi:

*Kecha Samarqanddan Toshkentga samalyotda men keldim ega-mantiqiy urg‘u olgan.*

*Men Samarqanddan Maskvaga samalyotda kecha keldim – payt holi mantiqiy urg‘u olgan.*

*Men Samarqanddan samolyotda keldim – to‘ldiruvchi mantiqiy urg‘u olgan.*

***So‘z urg‘usi-*** so‘zdagi bo‘g‘inlardan biriga tushadi. O‘zbek tilida asosan so‘z urg‘usi oxirgi bo‘g‘inda bo‘ladi: *qala‘m – qalamdo‘n – qalamdonda‘*.

Quyidagi xollarda urg‘u so‘z oxiriga tushmaydi:

1. -ma - fe‘lning bo‘lishsiz shakli qo‘srimchasi: *bo‘rma, qara‘ma*. Lekin - ma so‘z yasovchi qo‘srimchasi urg‘u oladi: *o‘lma (fe‘l), olma‘* (ot): *yi‘g‘ma (fe‘l), yig‘ma‘*(sifat).

2. -man, -san, -miz, -siz - fe‘lning shaxs-son qo‘srimchalari urg‘u olmaydi: *bora‘man, bo‘rmayman*. Lekin -siz so‘z yasovchi qo‘srimchasi urg‘u oladi (asosdan anglashilgan narsaga ega bo‘limganlik ma’nosida): *mevasi‘z, odobsi‘z, gulsi‘z*.

3. -cha, -day, -dek - ravish yasovchi qo‘srimchalari urg‘u olmaydi: *ru‘scha, qishlo‘qcha, mu‘zday, bi‘rdek*. Lekin -cha - otlarda kichraytirish, erkalatish qo‘srimchasi urg‘u oladi: *qishloqcha‘* (ot), *qishlo‘qcha* (ravish).

4. Qo‘srimcha – yuklamalar urg‘u olmaydi: *bugu‘noq, se‘nmi, se‘nchi*. Jumladan, -ku, -da, -gina, -og, -yoq, -mi, -chi yuklamalari urg‘u olmaydi. Lekin -gina otlardagi erkalatish qo‘srimchasi urg‘u oladi: *qi‘zgina* (yuklama), *qizgina‘* (ot).

5. Sonlardagi ma’no turlarini yasovchi qo‘srimchalar urg‘u olmaydi: *be‘shta, i‘kkov, i‘kkovlon, o‘ninchi, be‘shtacha, to‘rttadan, olti‘ta*.

6. Ayrim olmoshlarda urg‘u oxiriga tushmaydi: *ha‘mma, ja‘mi, ya‘ipi, ba‘ri, allak‘im, ba‘zi*.

7. Ayrim ravishlarda urg‘u oxiriga tushmaydi: *hamisha, a‘slo, te‘zda, qahramonla‘rcha, aso‘san, taxmi‘nan, vijdo‘nan*.

8. Ayrim bog‘lovchilarda: *a‘mmo, chu‘nki, to‘ki, ze‘ro, le‘kin, ga‘rchi*.

9. II-III-shaxs buyruq - istak mayli fe’llarida ham urg‘u oxiriga tushmaydi: *o‘qi, qa‘ra, ke‘lsin, o‘qi‘sin*.

So‘z urg‘usining ikki xil vazifasi bor:

1. So‘zdagi bo‘g‘inlardan biriga tushadi, urg‘uli bo‘g‘in boshqalariga nisbatan kuchliroq, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi.

2. Shakldosh so‘zlarda ma’no farqlash vazifasini bajaradi bunda shakldosh (omonim) so‘zlarda urg‘u yordamida ma’no farqlanadi: *Ho‘zir*

*keldi* (payt ma'nosida qachon keldi?) *Hozi'r bo'ldi* (tayyor, shay ma'nosida), *bog'la r* (ot) *bo'g'lar* (fe'l), *ku'nda kelmoq* (ravish), *kunda' toblanmoq* (ot).

## ORFOEPIYA

Adabiy tilning og'zaki shaklini, adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi bo'limdir. Orfoepiyada so'zlar, ular tarkibidagi tovushlar, so'zning asos va qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qilish qoidalari o'rganiladi. Tilshunoslikning bu bo'limi ayrim unlilar orfoepiyasi, ayrim undoshlar orfoepiyasi, ayrim grammatisk formalar (qo'shimchalar) orfoepiyasi qismlariga bo'linadi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq yon tovushlar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Ayrim undoshlar talaffuzida adabiy til me'yorlariga mos ravishda **tovush moslashishi** kuzatiladi.

- keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi: *shanba = shamba, to'nka = to'ngka, yigitcha = yigichcha, ijtimoiy = ishtimoiy* kabi. Ushbu misollarning uchtasida hosil bo'lish o'rniga ko'ra moslashuv, bittasida esa ovoz va shovqin ishtirotkiga ko'ra moslashuv yuz bergen.

- oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga moslashtiradi: *ketdi = ketti, ishga = ishka*.

- ba'zan so'z oxirida jarangli tovushlar jarangsiz tovush tarzida talaffuz qilinadi (b, d, g, v kabi tovushlar): *barg = bark, girdob = girdop, obod = obot*.

- ba'zan bir tovush boshqa noo'xshash tovushga almashadi: *zarur = zaril, koridor = kalidor*.

- ba'zan talaffuzda tovushlar o'rni almashadi: *tuproq = turpoq, yomg'ir = yog'mir*.

## GRAFIKA

Yozuv va yozuv vositalarini, tovush va harf munosabatlarini o'rganuvchi bo'limdir. Tovush fonetikada, harf grafikada o'rganiladi. Tovushlar talaffuz qilinadi, harflar yozuv vositasi sanaladi. Harf tovushning yozuvdag'i ifodasidir. Lekin har doim ham tovush va harf bir-biriga muvofiq kelavermaydi. Masalan: *tingla, ong, singmoq, la'nat* kabi so'zlarda tovush va harflar soni bir xil emas. Yozuv vositalariga

harflar va tinish belgilari kiradi. Harflarning ma'lum tartibdagi tizimi alifbo (alfavit) deyiladi.

Yangi o'zbek yozuvi alifbosida 29ta harf bor:

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii Jj Kk Ll Mm Nn Oo Pp Qq Rr Ss Tt Uu  
Vv Xx Yy Zz O'o' G'g' Sh sh Ch ch Ng ng

## O'ZBEK YOZUVI TARIXI

Eng qadimgi yozuvlar sifatida so'g'd, oromiy, rumiy (runik) yozuvlari sanaladi. Eng ko'p iste'molda uzoq muddat bo'lgan yozuv arab yozuvidir. Arab yozuvi bilan birga eng ko'p davom etgan turkiy xalqlar yozuvi sifatida uyg'ur yozuvi ko'rsatiladi. 1929-yilgacha arab yozuvi iste'molda bo'lgan. 1929-1940 yillarda lotin yozuvi, 1940 yil 8-maydag'i qorori bilan rus alifbosi negizidagi o'zbek yozuviga (kirillitsa)ga o'tilgan. U o'z ichiga 33 ta harf va 2ta belgi (ayirish va yumshatish)ni olgan. O'zbek tilining xos tovushlarini ifodalovchi tovushlari sifatida O', Q, G', H harflari kiritilgan.

1993 yili 2-sentabr qarori bilan lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tildi. Yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari 1995 yil 24 avgustda tasdiqlangan.

## ORFOGRAFIYA

Adabiy tilning yozma shaklini, to'g'ri yozuv qoidalari (imlo qoidalari) o'rghanadi. Imlo qodalari quyidagi tamoyillarga— printsiplarga asoslanadi:

Fonetik yozuv- bu yozuv qoidasiga ko'ra so'z o'zak-negizida birorta fonetik hodisa kuzatiladi. Fonetik hodisalarga asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan yuz beradigan tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi hodisalari kiradi.

Tovush tushishi - bunga ko'ra asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida asosda unli yoki undosh tovush tushib qoladi. Masalan:

- *past, sust* so'zlariga —*ay fe'l* yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush tushadi: *pasay, susay*.

- *ikki, olti, yetti* kabi sonlarga jamlovchi son qo'shimchasi qo'shilsa (-ov, -ala, -ovlon) asosdag'i *i* unlisi tushib qoladi: *ikkov, yettalasi, oltov*.

- *men, sen* kabi olmoshlariga qaratqich va tushum kelishiklari qo'shimchasi (-ni, -ning) qo'shilsa: *meni, seni, mening, sening*.

- *bag'ir, ko'ngil, shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa ikkinchi bo'g'indagi a, i, u kabi unlilar tushib qoladi: *shahri, ko'ngli, bag'rim, burni* kabi.

**Tovush orttirilishi** - bunda asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan asos tarkibida undosh tovushlar orttiriladi:

- *achi, isi, sasi* so'zlariga —q so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush orttiriladi: *achchiq, issiq, sassiq*.
- *u, bu, shu* ko'rsatish olmoshlari ja'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari (-ga, -da, -dan) hamda —day, -cha qo'shimchalari qo'shilsa —n tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunga, unda, bundan, shundan, shuncha, bunday*.

**Tovush almashishi (o'zgarishi)** - bunda asosga qo'shimcha qo'shilganda bir tovush boshqa tovushga almashadi:

- *bo'ya, tara, sana, sayla, tanla* kabi so'zlariga —q yoki —v qo'shimchalari qo'shilsa, asosdag'i -a tovushi -o tovushiga almashadi: *bo'yoq, sanoq, taroq, saylov, tanlov*.
- *yosh, son, ot* kabi so'zlarga —a qo'shimchasi qo'shilsa: *son+a = sana, ot+a = ata*.
- *-ga, -gani, -guncha* kabi —g tovushi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar oxiri —k, q tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilsa, asos yoki qo'shimcha tarkibida tovush almashadi: *tekkuncha, terakka, chiqqani, buloqqa, oqquncha*.
- oxiri —k, —q tovushlari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda asos tarkibidagi jarangsiz tovush jarangli tovushga almashadi: *buloq+i-bulog'i, yurak+i-yuragi, tilak+i-tilagi, bilak+i-bilagi*. Lekin *idrok, huquq, mashq, park*, kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa. tovush almashishi yuz bermaydi: *idroki, mashqi, huquqi, parki* kabi.

**2. Morfologik yozuv** - so'z asosi va qo'shimchalarini aynan yozish demakdir. Bunga ko'ra so'z va uning qismlari talaffuzidan qat'i nazar asliga ko'ra yoziladi, ya'ni asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z tarkibida tovush o'zgarishi kuzatilmaydi. So'z va qo'shimcha aslan qanday bo'lsa, shunday yoziladi. Masalan:

- fe'lning zamon va shaxs qo'shimchasi qanday eshitilishi va talaffuz qilinishidan qat'i nazar, doim —di shaklida yoziladi: *ket+di = ketdi, borib+di = boribdi*.
- *-dan, -da* qo'shimchalari talaffuzidan qat'i nazar doim o'zgarishsiz yoziladi: *ish+da = ishda, baland+dan = balandda* kabi.

• *-iston (so'z yasovchi), -inchi(tartib son), —ib(ravishdosh), -in, -il (fe'l nisbatlari) qo'shimchalari asos qismida —u tovushi bo'lgan so'zlarga qo'shilganda u tovushiga moyil aytilsa ham asliga ko'ra yoziladi: kul+ib = kulib, tug'+il = tug'ildi, uch+inchi = uchinchi, ur+ish = urish, gul+iston = guliston*

• qo'shma va juft so'zlar ham morfologik yozuv qoidasi bo'yicha yoziladi: *qip-qizil, har vagt, baxt-saodat, atirgul* kabi.

3. **Shakliy yozuv** bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'sha tildagi shaklini saqlagan holda yoziladi: *tramvay, institut, teatr, drama, kongress*. O'zbekcha so'zlarning boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi, ular orasida qisqa *i* unlisi yoziladi: *qizil, bilan, sir, shimol*. Ammo o'zlashgan so'zlar tarkibida ikki undosh yonma-yon keladi va shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi: *stol, klub, prokuror, fikr, zikr*.

Yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Imlo qoidalari 7 bo'limdan iborat:

1. Harflar imlosi. U ikki qismdan iborat: unlilar imlosi va undoshlar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko'chirish qoidalari.

## QO'SHMA SO'ZLARNING IMLOSI

### I. Quyidagi tarkibdagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

1. Tarkibida *xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxt, kam, umum, aro, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlardan biri qatnashgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *ishxona, qabulxona, ma'lumotnoma, tabriknoma, sholipoya, g'o'zapoya, ommabop, xushxabar, hamdo'st, hamsuhbat, orombaxsh, kamgap, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, izzattalab* kabi.

2. Ikkinci qismi **-ar** (inkor shakli **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *otboqar, o'rribosar, molboqar, beshiktervar, tezoqar, ertapishar, tinchliksevar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

3. O'xshash, qiyoslash asosida yuzaga keluvchi qo'shma otlar va qo'shma sifatlar: *karnaygul, qo'zigorin, otqulog, oybolta, bodomqovoq, devchechak* kabi.

4. Narsani biror belgisi asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

5. Narsani joyga nisbatan bildiruvchi qo'shma otlar: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

6. Biror maqsad, ish uchun mo'ljallangan narsani bildiruvchi qo'shma otlar: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, ko'zoynak* kabi.

7. Qaratqich x qaralmish tipidagi birikmaning so'zga aylanishi bilan Yuzaga keluvchi qo'shma otlar: *mingboshi, shaftoliqoqi, olmaqoqi, qovunqoqi* kabi.

8. Ikkinchchi qismi turdosh otlardan yoki **obod** so'zi bo'lgan joy nomlari: *Sirdaryo, Kattaqurg'on, To'rtko'l, Yakkabog', Yangiobod, Xalqobod, Fayziobod* kabi.

Ammo ikkinchi qismi atoqli otlardan bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Yuqori Chirchiq, Qo'yli Chirchiq, Ko'hnna Urganch* kabi.

9. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kal'ka usulida hosil qilingan qo'shma so'zlar: *kinoteatr, fotoapparat, elektroapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, suvosti, bayramoldi* kabi.

10. Qisqartma otlar qo'shib yoziladi: O'zMU (O'zbekiston Milliy Universiteti), O'zXDP (O'zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi) kabi.

## *II. Chiziqcha bilan yozish.*

1. Juft va takror so'zlar chiziqcha bilan yoziladi: *mehr-oqibat, kattakichik, el-yurt, asta-sekin, bordi-keldi, don-dun, mayda-chuyda, taqtuq, qop-qop, baland-baland, chopa-chopa, yura-yura ayrim-ayrim, boribborib* kabi.

Juft so'z qismlari orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *katta-yu kichik, tun-u kun, el-u yurt* kabi.

2. Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan **kundan kunga, yildan yilga** kabilalar shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi **ko'pdan ko'p, ochdan och** kabi birikishlar chiziqchasiz yoziladi:

M: *yildan yilga, kundan kunga, naridan beri, ko'pdan ko'p, tekindan tekin.*

3. Yil va oylarni (chislolarni) ko'rsatuvchi arabcha raqamdan so'ng lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra chiziqcha qo'yiladi: 2003-yilning 9-sentabri kabi.

4. Kuchaytirilgan belgi shakllari chiziqcha bilan yoziladi: *qop-qora, yam-yashil, yap-yapaloq, ko'm-ko'k, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, yop-yorug'* kabi.

5. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kal'ka usulida o'zlashgan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *injener-konstruktur, gramm-molekula, kilovat-soat, changlagich-purkagich, vitse-prezident* kabi.

### *III. Ajratib yozish.*

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *imzo chekmoq, ta'sir etmoq, vafo qilmoq, sotib olmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq* kabi.

2. Belgining ortiq yoki kamligini bildiruvechi *och, to'q, tim, nim, liq, jiqa, lang* kabi so'zlar bilan kelgan sifat turkumiga oid so'zlar ajratib yoziladi: *och qizil, to'q qizil, tim qora, nim pushti, liq to'la, jiqa ho'l, lang ochiq* kabi.

3. *Har, hech, hamma, ba'zi, g'ayri, bir, qay, u, bu, shu, o'sha* so'zлari yonida kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har zamon, hech kim, hamma vaqt, ba'zi bir, g'ayri tabiiy, bir qancha, bir yo'la, bir oz, qay kuni, u erga, bu yodgan, shu erdan, o'sha yoqqa* kabi.

Lekin *birpas, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon (beri)* so'zлari qo'shib yoziladi.

Lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra *biroz* so'zining ham qo'shib yozilishi belgilab qo'yilgan.

**Qay so'zi yer, yoq, yon** so'zлari bilan kelganda bir y tuшиб qolishi natijasida bu so'zlar qo'shib yoziladi:

**Qiyoslang:** qay yerda – qayerda, qay yoqqa – qayoqqa, qay yondan – qayondan kabi.

**Qaybir, qayvaqt** so'zлari ham qo'shib yoziladi.

4. Murakkab sonlarning qismlari ajratib yoziladi: *yigirma besh, bir yuz ellik ikki* kabi.

5. Tojikcha izofali birikmalar ajratib yoziladi: *tarjimai hol, nuqtai nazar, oynai jahon, dardi bedavo* kabi. Shuningdek, yangi imlo qoidalarida izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga yi shaklida qo'shilishi belgilab qo'yildi.

**Qiyoslang:** dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol, oynayi jahon, piri badavlat kabi.

## BO‘G‘IN KO‘CHIRILISHI

Orfografiya qoidalariga ko‘ra bir qatorga sig‘may qolgan so‘zning qismi ikkinchini qatorga quyidagicha ko‘chiriladi:

1. So‘z qismlarga bo‘g‘inidan ajratib ko‘chiriladi: *tala-ba, ta-laba, mak-tab, ko‘ngil* kabi.

2. Bir unlidangina iborat bo‘lgan bo‘g‘in oldingi satrda qoldirilmaydi. Shuningdek, keyingi satrga ham bir unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in ko‘chirilmaydi: *o-naning emas, ona-ning, jamo-a emas, ja-moa, mudofa-a emas, mudo-faa* kabi.

3. Bir tovushni ifodalaydigan harfiy birikmalar ajratilmay ko‘chiriladi. Misollarni har ikki yozuv asosida **qiyoslang**: *Кў-нгил, тонг-ги, сунгил; поме-шчик, ме-шchan; ma-shaqqat, ke-chuv, kech-qurun, tong-gi, so‘ng-ra, pome-shik, me-shchan* kabi.

4. Bosh harflardan tuzilgan qisqartma otlar, ko‘p xonali raqamlar ikkinchini qatorga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *O‘zMU, BMT, AKT, 155, 2003, XXIX* kabi.

6. Ism va familiyalarning harfiy qisqartmalari ajratib ko‘chirilmaydi: *I.O.Sultonov, A.B.Ahmedov* kabi.

## BOSH HARFLAR IMLOSI

Orfografiya qoidalariga ko‘ra bosh harflar quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. Abzas, gap, she’rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi.

2. Atoqli otlar bosh harf bilan boshlanadi: *Alisher Navoiy, G’afur Gulom, Toshkent, O‘zbekiston* kabi.

3. Planeta va yulduzlarning nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Yer, Quyosh, Oy, Mars, Hulkar* kabi. Ammo *Yer, Quyosh, Oy* so‘zlarini planeta ma’nosidan boshqa ma’nolarda kelganda kichik harf bilan boshlanadi. **Qiyoslang**: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi; O‘amma bir yerga to‘planib, kelasi oyning rejasini tuzib oldik.*

4. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomlaridagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi. *O‘zbekiston Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi* kabi.

5. Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: *Madaniyat fazirligi, Fan va*

*texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti* kabi.

6. Madaniy- maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq- ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshoatlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan boshlanadi: «*Saodat*» drammasi, «*Navruz*» hayriya jamg'armasi, «*Toshkent*» mehmonxonsi, «*Qutlug' qon*» romani, «*Paxtakor*» stadioni, «*Dilorom*» operasi kabi.

7. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh har bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

8. Davlatning oliy darajali mukkofotlari nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: «*O'zbekiston Qahramoni*» (unvon), «*Oltin Yulduz*» (medal).

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: «*Sog'lom avlod uchun*» (orden), «*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi*» (faxriy unvon), «*Matbaa aloqachisi*» (nishon) kabi.

## LEKSIKOLOGIYA

So'z va uning lug'aviy ma'nosi, tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi bo'limdir. Tilning lug'at tarkibi deganda ma'lum tilga xos bo'lgan so'zlar, iboralar va atamalar tushuniladi. So'z borliqdagi narsa-buyumlarni, mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, belgi-xususiyatlarni nomlovchi til birligidir. Masalan: *kitob*(predmet nomi), *vijdon* (mavhum tushuncha nomi), *go'zal* (belgi nomi), *kelmoq* (harakat-holat nomi), *besh* (miqdor nomi) kabi. So'z tilshunoslikning leksikologiya va morfologiya bo'limlarida o'rganiladi. So'zlarda 2 xil ma'no bo'ladi: lug'aviy ma'no va grammatik ma'no. So'z lug'aviy ma'no anglatishiga ko'ra leksikologiyada, grammatik ma'nosi esa morfologiyyada o'rganiladi.

Lug'aviy ma'no- atash ma'nosi deb ham yuritiladi - faqat *mustaqil* so'zlarga xos bo'lib, o'sha so'z anglatgan tushuncha bilan bog'liq bo'ladi. So'zlarining borliqdagi ma'lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi ularning lug'aviy (atash) ma'nolari deyiladi: *ko'z - ko'rish a'zosi, uxlamoq - uyqu holati, shirin - yoqimli ta'm, mazali*. Mustaqil so'z turkumlaridan olmosh atash ma'nosiga ega emas. Olmoshlar fe'ldan

boshqa mustaqil so‘zlar o‘rnida almashib qo‘llanadi, ularga ishora qiladi.  
Masalan: *Karim keldi. U kechgacha biznikida bo‘ldi.*

So‘zlarning lug‘aviy ma’nolari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da beriladi.

**Grammatik ma’no** - bir turkumga mansub so‘zlar uchun umumiy ma’nodir: *kitob, gul, xona, kishi* -predmet, ot so‘z turkumiga xos, birlikda, bosh kelishikda; *ammo, lekin, biroq-bog‘lovchi*. Tildagi barcha so‘zlar grammatik ma’no anglatadi, lekin lug‘aviy ma’no anglatavermaydi. Bir xil grammatik ma’noli so‘zlar deganda bir turkumga kiruvchi so‘zlar tushuniladi: *men, sen, u* – olmosh; *stol, stul, oy* – ot; *o‘n, olti, besh* – son.

Mustaqil so‘zlar lug‘aviy ma’no anglatishiga ko‘ra bir ma’noli va ko‘p ma’noli bo‘ladi.

**Bir ma’noli so‘zlar** – monosemantizmlar faqat bitta lug‘aviy ma’no anglatadi: *bug‘doy, bodring, pamidor, tomchi, chumchuq, ravish, pushti, jigarrang, kelmoq*.

**Ko‘p ma’noli so‘zlar- polisemantizmlar** bosh ma’no va ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Bosh ma’no nutqdan tashqari, so‘zning yakka o‘zi anglatgan ma’nodir: *kulgi-kulmoq* xodisasi, *sovug* – havo darajasi, *ko‘z-ko‘rish* a‘zosi. Ko‘chma (yasama) ma’no esa so‘zning nutq tarkibida boshqa so‘zlar yordamida anglatadigan ma’nosidir: *uzukning ko‘zi,sovug xabar, shirin gap, baxti kului*.

Ko‘chma ma’no 4 xil usul bilan hosil bo‘ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

**1. Metafora** usulida predmet, belgi, harakatlar o‘rtasidagi shakliy yoki nisbiy o‘xshashlik asosida nom ko‘chishi yuz beradi, ya’ni biror jihatdan o‘xshash predmet, hodisalarning nomi boshqasiga ko‘chadi. Masalan: *cho‘qqi* – bosh ma’nosи: tik narsalarning yuqori nuqtasi – *tog‘ cho‘qqisi; cho‘qqi* – ko‘chma ma’nosи: yuqori pog‘ona, daraja – *ilm cho‘qqisi*.

*Og‘ir tosh – bosh ma’no; og‘ir gap – ko‘chma ma’no*

*Oltin uzuk- bosh ma’no; oltin kuz – ko‘chma ma’no*

*Gulday qiz – o‘xshatish (metafora emas); gul qiz – ko‘chma ma’no*

*O‘rik gulladi – bosh ma’no; Karim gulladi – ko‘chma ma’no*

**2. Metonimiya** usulida o‘zaro bog‘liqlik asosida ma’no ko‘chadi, bunday ko‘chirilish predmetlar yoki hodisalarning o‘zaro aloqadorligiga asoslanadi. O‘zaro bog‘liq bo‘lgan predmet-hodisalardan birini atash orqali ikkinchisi tushuniladi:

*Fuzuliyni oldim qo'limga — (asar nazarda tutilmoqda)*

*Dasturxonga qarang — (dasturxonadagi noz-ne'matlar nazarda tutilmoqda)*

*Samavarga chiqdik — (choyxonaga bordik ma'nosida)*

*Zal o'rnidan turdi — (zalda yig'ilgan odamlar ma'nosida)*

*Butun shahar yig'ladi — (shahar axolisi ma'nosida).* Metonimiya usulida ma'no ko'chishida ba'zan makon va zamonda bir-birining bo'lishini taqozo qiladigan va birga qo'llanadigan predmetlardan birining nomi boshqasiga ko'chishi mumkin. Masalan: *Bir kosa ichdi.* — Bir kosa sho'rva ichdi ma'nosida.

3. **Sinekdoxa** usulida butun va qism nisbatiga asoslanadi, ya'ni biror predmetning bir qismini atash orqali uni butunicha tushunish mumkin yoki aksincha:

- butunning nomi qismga ko'chiriladi: *Besh qo'l baravar emas.* (qo'l — butun, qo'l — qism)
- qismning nomi butunga ko'chadi: *Hovlimizda tuyog bor* — (tuyog — qism). *Tirnoqqa zor* (*tirnoq* — qism), farzandga muhtoj ma'nosida


4. **Vazifadoshlik** usulida predmetlarning bajaradigan vazifalari bir xilligiga asoslanadi: *Daraxt tomiri* (tomir suvni daraxtning poyasiga yetkazib beradi) - *qon tomiri* (tomir qonni insonning tanasiga yetkazib beradi).

Bundan tashqari kinoya usuli ham mavjud bo'lib, unda so'z zid (teskar) ma'noda qo'llaniladi va yozuvda qo'shtirnoqqa olib yoziladi: *Ug'azablanardi va uni bisotidagi "chiroyli" so'zlar bilan siylardi.*


### SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Ular 4 xil: omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paronimlar. Bu birliliklardan sinonimlar va antonimlar ma'no xususiyatiga ko'ra, omonimlar va paronimlar shakliy xususiyatlariga ko'ra birlashadi.

**Omonimlar (shakldosh so'zlar)** — bir xil shaklga ega bo'lgan, ammo har xil ma'nolarni anglatuvchi so'zlardir.



bir xil shakldagi ikkita so'z



bir xil shakldagi to'rtta so'z

Demak, omonimlar shaklan teng kelgan, **boshqa-boshqa** so‘zlardir. Ular anglatgan ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lmaydi. Omonimlar va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlash lozim. Omonimlar har xil ma’nolarni anglatuvchi so‘zlardir, ko‘p ma’noli so‘zlar esa bir so‘zning turli (bosh va ko‘chma) ma’nolaridir. Ular anglatgan ma’nolar o‘rtasida bog‘liqlik bo‘ladi: *sovug havo - sovug xabar, ko‘ylakning yoqasi – yo‘ning yoqasi*. Bu yerda *sovug*, yoqa so‘zlarini bitta so‘z bo‘lib, bosh va ko‘chma ma’nolarda qo‘llangan.

Bir so‘zning matnda har xil ma’nolarni anglatishi ko‘p ma’nolilik, bir xil shakldagi bir necha so‘zning har xil ma’nolarni anglatishi esa omonim (shakldoshlik)lidir.

Omonimlar qanday birliklar orasida bo‘lishiga ko‘ra 3 xil bo‘ladi: lug‘aviy omonimlar, grammatik omonimlar, frazeologik omonimlar.

1. Leksik (lug‘aviy) omonimlar – so‘zlar orasidagi omonimlik (shakldoshlik)dir. Shakli bir xil, ma’nolari har xil bo‘lgan so‘zlar lug‘aviy omonimlar deyiladi:

<i>soch</i>	odamning sochi ish-xarakat	<i>ko‘r</i>	ojiz odam ish-harakat
-------------	-------------------------------	-------------	--------------------------

Omonimlar bir xil so‘z turkumiga yoki xar xil so‘z turkumiga mansub bo‘ladi.

<i>chang</i>	asbob (ot) g‘ubor (ot)	<i>to‘p</i>	koptok (ot) uyum (ot)	<i>suz</i>	suvda (fe’l) ovqatni (fe’l)
--------------	---------------------------	-------------	--------------------------	------------	--------------------------------

Bir xil turkumga grammatik qo‘srimchalar qo’shganda ham omonimlik davom etaveradi.

<i>changni</i>	asbobni (ot) g‘uborni (ot)	<i>suzdi</i>	suvda (fe’l) ovqatni (fe’l)
----------------	-------------------------------	--------------	--------------------------------

Har xil turkumga mansub omonimlarga grammatik qo‘srimchalar qo’shilganda omonimlik bartaraf bo‘ladi.

<i>sochni</i> (ot)	<i>sochdi</i> (fe’l)	<i>ko‘r</i>	ko‘r odam (sifat) <i>ko‘rdi</i> (fe’l)
--------------------	----------------------	-------------	---

2. Grammatik omonimlar - qo‘srimchalar orasidagi omonimlik. Bir xil shaklga ega bo‘lgan qo‘srimchalar grammatik omonimlar deyiladi. Ularda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- so‘z yasovchi qo‘srimchalar shakldoshligi: *quvonch* (ot) – *tinch* (sifat), *zargar* (ot) – *jihvagar* (sifat), *kuzgi* (sifat) – *kulgi* (ot).

- so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘srimchalar shakldoshligi: *ruscha* (sifat yasovchi) – *qizcha* (kichraytirish qo‘srimchasi); *toychoq*

(kichraytirish qo'shimchasi) — o'yinchoq (ot yasovchi) - *tortinchoq* (sifat yasovchi); *borma*(fe'lning bo'lishsizlik shakli) — *suzma* (ot) - *yig'ma* (sifat).

- lug'aviy shakl yasovchilar o'rtasidagi shakldoshlik: *U tarandi* (o'zlik nisbat shakli) — *Nutq so'zlandi* (majhul nisbat shakli), *borishdi* (birgalik nisbat shakli) — *borishni* (harakat nomi shakli).
- so'z yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar shakldoshligi: *Siz kimsiz?* (sintaktik shakl yasovchi) — *Suvviz hayot yo'q.* (sifat yasovchi).

3.Frazeologik omonimlar — iboralar orasidagi omonimlidir. Shakli bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan iboralar omonim (shakldosh) iboralar deyiladi.

*Boshga ko'tarmoq*            hurmat qilish  
                                      janjal qilish

***Sinonimlar(ma'nodosh so'zlar)*** - shaklan har xil bo'lsa-da, bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardir. Bunda so'zlar bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanadi. Sinonimlar faqat bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi: *katta, ulug', ulkan, buyuk* (*kattaymoq* — fe'lga mansub bo'lganligi uchun sinonim emas). Sinonimlar — ma'nodosh so'zlar - bitta sinonimik qatorni tashkil etadi: *inson, kishi, odam, shaxs*.

Sinonimlar til boyligi bo'lib, shaxs va predmetlarning eng nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi va gapdag'i takrorga yo'l qo'ymaydi.

Sinonimlar adabiy tilni boyitish manbalaridan bo'lib, o'z imkoniyatlardan tashqari, boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirish orqali ham sinonimik qatorlar kengayib boradi: *shamol, yel, nasim; botir, mard, jasur* kabi.

Sinonimik qatorda bitta so'z dominanta bo'lib, barcha uslublarda (kitobiy, so'zlashuv uslublarida) qo'llana oladi: *odat, rasm, urf; kishi, odam, inson*.

Demak, dominanta yoki uslubiy betaraf so'z barcha uslublarda qo'llana oladigan so'zdir.

Bir so'z bir necha sinonimik qatorda bo'la oladimi? Agarda so'z ko'p ma'noli bo'lsa, har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonimik qatorlarda ishtirok etishi mumkin.

↙ yonma-yon ↗ jadal  
 yaqin ↙ tez (kunlarda) ↗ tez ↙ yaqin (kunlarda)  
 Sinonimlarning quyidagi turlari bor:

1. Leksik sinonimlar - so'zlar orasidagi sinonimlikdir. Shakli har xil, lekin bitta birlashtiruvchi ma'noga ega bo'lgan so'zlar lug'aviy sinonimlar deyiladi.: *yuz, aft, bashara, chehra, oraz*. Lug'aviy sinonimlar o'z navbatida to'liq va ma'noviy sinonimlarga bo'linadi.

To'liq sinonimlar birorta ma'no qirrasi bilan farq qilmaydi, ular leksik dubletlar deb ham ataladi. Ko'pincha turli tillardan o'zlashgan so'zlar to'liq sinonimlar bo'la oladi: *tema-mavzu, fazo-koinot, kosmos-fazo*.

Ma'noviy sinonimlar esa biror ma'no qirrasi bilan farq qiladi, lekin birlashtiruvchi ma'nosi bir xil bo'ladi:

- Sinonimlar turli uslublarda qo'llanishiga ko'ra farqlanadi: *kulmoq-jilmaymoq, ko'krak-siyna juftliklaridagi siyna, jilmaymoq* so'zları faqat kitobiy uslubga xos.

- Sinonimik qatordagi so'zlar ijobjiy yoki salbiy bo'yoqli bo'lishiga ko'ra farqlanadi: *ozg'in, nozik, qiltiriq; semiz, to'la, baqaloq* sinonimlaridan *nozik, to'la* - ijobjiy ma'noli so'zlar, *qiltiriq, baqaloq* - salbiy bo'yoqli so'zlardir.

- Uslubiy bo'yoqdor so'zlarni belgilashda uslubiy betaraf so'zlarni farqlash lozim: *xunuk, badbashara; bo'shang, landavur, lapashang* sinonimlari garchi salbiy xususiyatlarni ifodalayotgan bo'lsa ham, ulardan, *badbashara; landavur* - so'zlarigina salbiy bo'yoqli so'zlardir.

- sinonimlar belgi yoki harakatni kuchliroq ifodalanishiga ko'ra farqlanadi: *Yig'latdi dema, balki siqtatdi meni*.

2. Frazeologik sinonimlar - iboralar o'rtasidagi sinonimlikdir. Shakli har xil, ma'nolari bir xil bo'lgan iboralar sinonim(ma'nodosh) iboralar deyiladi: *tegirmonga tushsa butun chiqmoq, yulduzni benarvon urmoq* - uddaburon, epchil ma'nosida qo'llangan.

3. Grammatik sinonimlar-ayrim qo'shimchalar yoki ko'makchilar o'rtasidagi ma'nodoshlikdir.

- sifat yasovchi qo'shimchalar o'zaro ma'nodosh bo'ladi. -li, -ser, -dor, ba-; -siz, -no, be- qushimchalari sinonim qo'shimchalardir: *gulli - guldor noo'rin - o'rinsiz, serma'no - ma'noli*.

- jo'nalish, o'rinn-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchalar ko'makchilar bilan sinonim bo'ladi: *ukasiga olmoq - ukasi uchun olmoq, maktabga ketmoq - maktab tomon ketmoq, ko'chadan yurmoq - ko'cha bo'ylab yurmoq, telefon fonda gaplashmoq - telefon orqali gaplashmoq*.

4. Sintaktik sinonimlar - bir xil ma'noni turli gap bo'laklari anglatadi: *xatni yozdi* (*to'ldiruvchi+kesim*) - *xat yozildi* (*ega+kesim*); *bahorgi gullar* (*sifatlovchi+sifatlanmish*) - *bahor gullari* (*qaratqich+qaralmish*). Demak sintaktik sinonimlar sintaktik tuzilishi jihatdan farq qiladi.

Badiiy uslubda ma'lum bir fikrning, tushunchaning mazmunini kuchaytirish va ta'kidlash uchun sinonimlar qator keltiriladi: *Ajoyib husndor, go'zal fasl bu! Sadoqatli, qadrdon, oshnayu, do'stu yorim bor.*

**Antonimlar** – ma'nolari o'zaro zid qarama-qarshi bo'lgan so'zlardir. Antonim munosabatidagi so'zlar antonomik juftlik deyiladi. Antonimlar ham faqat bir so'z turkumida yuz beradi:

- sifatlarda: *katta-kichik, yaxshi-yomon, uzun-qisqa, baland-past, achchiq-chuchuk;*
- otlarda: *yoz – qish, sharq – g'arb, tong – shom, boylik – kambag 'allik;*
- fe'llarda: *bormoq – kelmoq, uxlamoq – uyg'onmoq, kengaymoq – toraymoq;*
- ravishlarda: *ko'p – oz, arang – bemalol, kecha – bugun, tez – sekin.*

Antonimlarning quyidagi turlari bor:

- leksik (lug'aviy) antonimlar – So'zlarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida birlashishidir, ya'ni zid ma'noli so'zlardir: *tun-kun, bormoq-kelmoq, oq-qora.*
- Frazeologik antonimlar – iboralar orasidagi antonimlikdir: *boshi ko'kka yetmoq - tarvizi qo'ltig'idan tushmoq, oq ko'ngil - ichi qora.*
- Grammatik antonimlar – qo'shimchalar orasidagi antonimlikdir: *odobli - odobsiz, bema'ni - bama'ni.*

Antonimlar she'riyatda tazod (qarshilantirish) usulini yaratishda qo'llaniladi.

**Paronimlar** – talaffuzi bir-biriga yaqin, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlik ko'pincha orfoepiya (*to'g'ri talaffuz*) meyorlariga rioya qilmaslik natijasida ham kelib chiqadi: *ganch* (naqsh) – *ganj* (boylik), *quyilmoq* – (*Sirdaryo Orol dengiziga quyiladi*) – *quyulmoq* (*Tuman tobora quyulardi*)

*Quyidagi paronimlarga e'tibor bering: Shox-shoh, afzal-abzal, bo'shliq-bo'shilik, ahl – axil, odil-adil, borlik-borliq, otalik-otaliq, dom-dam, tal'atalat, yondosh-yondash.*

Paronimlarni so'z variantlaridan farqlash lozim. Bir so'z ba'zan ikki xil variantda (shakl)da yoziladi va bu imloviy xato hisoblanmaydi. Ular o'zaro sinonim yoki paronim emas, bir so'zning variantlari sanaladi:

*kaptar-kabutar, nabira-nabara, shavada-shabboda, sevmoq-suymoq, obro' – obro'.*

Paronimlarni noto'g'ri qo'llash natijasida gapda uslubiy jihatdan g'alizliklar vujudga keladi. Masalan: *Quyosh hamal burchiga o'tdi. Yo'iga yondash anhor shovillab ogardii*.

## FRAZEOLOGIYA

Tilshunoslikning *iboralarni* o'rganuvchi bo'limidir. Iborada bir necha so'z birgalikda bitta turg'un birikmani hosil qiladi va bitta so'zga teng keladigan bitta ko'chma ma'noni anglatadi: *aravani quruq olib qochmoq* – «aldamoq», *qo'li ochiq* – «saxiy».

Iboralarni o'z o'rnida (ma'nosida) qo'llangan erkin so'z birikmalaridan farqlash lozim: *Kaltak zarbidan boshini shishirdi* – o'z ma'nosida qo'llangan.

*Nima qilishini bilmay boshi shishdi* – ko'chma manoda qo'llangan ibora.

Iboralarda so'zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo'ladi va bitta lug'aviy ma'no anglatadi. Iboralar bitta lug'aviy birlik sifatida qaraladi, lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi. Masalan, *ko'zini yog bosgan* iborasi – «mag'rurlangan», *yog tushsa yalaguday iborasi* – «toza», *to'nini teskari kiyib olmoq* iborasi – «qaysarlik qilmoq» ma'nosini beradi. Iboralar fikrni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Iboralar ham xuddi so'zlar kabi omonim, sinonim, antonim bo'la oladi. Omonim iboralar shaklan bir xil, ma'nolari esa turlicha bo'lgan iboralardir. Masalan:

o'lmoq  
ko'z yummoq → e'tibor bermaslik.

Quyidagi omonim iboralarning ma'nolarini qiyoslang: *boshiga ko'tarmoq, so'z bermoq, qo'l ko'tarmoq*.

Sinonim iboralar shaklan har xil bo'lsa ham bir-biriga yaqin ma'noli iboralardir: *hafsalasi pir bo'lmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq: og'zi qulog'ida, og'zinining tanobi qochgan, boshi ko'kka yetgan*.

Antonim iboralar xuddi so'zlar kabi zid ma'noli iboralardir: *boshi ko'kka yetmoq – tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, yulduzni benarvon uradigan – qo'y og'zidan cho'p olmagan*.

**6. Atamalar** – terminlar ma'lum sohaga oid bitta aniq tushunchani bildiruvchi so'zlar. Tilshunoslikka oid terminlar: *o'zak, sintaksis, morfologiya, hol, kelishik, morfema*.

7. Jargon va argolar – ma'lum dunyoqarashdagi guruhdagi kishilar nutqida qo'llanuvchi so'z va iboralar: *mullajiring* – pul, *ko'k* – dollar, *qaychi* – revizor.

Bular noadabiy qatlamga mansub so'zlardir.

## UYADOSH SO'ZLAR

Bir turdag'i narsa, belgi, hodisalarni atab keluvchi so'zlar uyadosh so'zlar deyiladi: *tol, terak, majnuntol, tut-daraxt*.

*Yoz, qish, kuz, bahor* – fasl

*Shirin, achchiq, nordon* – ta'm

Uyadosh so'zlar sinonim so'zlardan farq qiladi:

Sinonim so'z bitta birlashtiruvchi ma'noga ega bo'ladi. Uyadosh so'zlar esa bir turga mansub tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir.

## O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI

O'zbek tili lug'at tarkibiga kiruvchi so'zlar dastlab qaysi tilga mansubligiga qarab ikki turga bo'linadi: o'z qatlam va o'zlashgan qatlam:

O'z qatlam so'zlariga umumturkiy so'zlar, ya'ni turkiy tillarning barchasi uchun mansub so'zlar kiradi. Ular turkiy so'zlar uchun umumiyligini bo'lib, faqat fonetik jihatdan farqli talaffuz qilinishi mumkin: *ona, bola, yur, kir, ket*.

O'zbek tilining o'zlashgan qatlamiga arabcha so'zlar, fors- tojikcha so'zlar, ruscha-baynalminal so'zlar kiradi.

### Arabcha so'zlarga xos xususiyatlar:

- bir xil yoki har xil unlilarning qo'shaloq qo'llanilishi: *maorif, jamoa, matbaa, taajjub*.

- so'z boshi *m, h, v* tovushlari bilan boshlanuvchi so'zlar ko'p kuzatiladi: *muhabbat, vijdon, visol, muqaddas, Muxlisa, vazifa, hayajon, Malika, hush, handalak, hafsa*

- ayirish, belgisi (tutuq belgisi)ning unlini cho'zish va undoshdan keyin ajratish xususiyati ham asosan arabcha so'zlarga xos: *ma'no, sur'at, a'lo, ra'no, tal'at, san'at, jur'at, mas'ul, kitob*.

- *l,g',j* (sirg'aluvchi), *v, h, m* arabcha so'zlarning faol tovushlaridir: *lug'at, lobar, lahja, mashg'ul, lahja, g'ulom (qul), hikmat, ajdarho, gjida, maysara*.

### Fors – tojikcha so‘zlarga xos xususiyatlar:

- so‘z yoki bo‘g‘in oxirida undoshlarning ketma-ket qo‘llanilishi xos: *daraxt, go‘sht, sinf, dastyor, durust, karaxt, musht, qasd, dasht, dars, raim, mard, mast.*

- *f, j* (portlovchi), *x* faol tovushlardir: *fitna, jar, xursand, oftob, fazo, xulosa, faqat, fahm-farosat, daftar.*

**Ruscha baynalminal so‘zlar:** Rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘z va atamalardir: *tramvay, stol, stul, variant, tema, paragraf, vassal, sayd, fayl.*

Umumturkiy so‘zlar asosan otlar va fe’llarga mansub bo‘lgan. Bir ikki bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lgan. Bir bo‘g‘inli so‘zlar ko‘pincha yopiq bo‘g‘in bo‘lgan va asosan fe’llar kirgan. Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar 2 yoki 3 bo‘g‘inli bo‘lgan: *ota, ona, qara, sana, quvon, sevin.*

## LEKSIKOGRAFIYA

O‘zbek tilining lug‘atchilikka bag‘ishlangan bo‘limidir. Lug‘atlar alifbo tartibida tuziladi va quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar – bularda keltirilgan so‘zlarning ma’nosini emas balki shu so‘z bilan nomlangan voqelikka taalluqli ma’lumotlar beriladi: O‘zbek milliy entsiklopediyasi.

2. Tarjima lug‘atlari – ikki yoki undan ortiq tildagi so‘zlarning qiyosiga bag‘ishlangan lug‘atlar, ya’ni tarjima lug‘atlaridir: Ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-ruscha-o‘zbekcha.

3. Lingvistik (filologik) lug‘atlar – bular tilshunoslikning ma’lum bir bo‘limiga, muammosiga bag‘ishlangan bo‘ladi: “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”: “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati”: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Izohli lug‘atda hamma so‘zlarning ma’nolari qaysi tildan o‘zlashganligi, ma’nolari izohlanadi.

O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati – iboralarning ma’nolari sinonimlari, variantlari beriladi. “O‘zbek tilining chappa (ters) lug‘ati”- so‘zlar oxirgi harfi bo‘yicha joylashtiriladi, qofiyadosh, bir xil qo‘sishchali so‘zlar aniqlanadi.

“O‘zbek tili sinonimlari lug‘ati”, “O‘zbek tilining antonimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”- so‘zlarning kelib chiqishi izohlanadi. “O‘zbek tili omonimlari lug‘ati”, “O‘zbek ismlari lug‘ati”, “Navoiy asarlari lug‘ati”.


## SO‘Z TARKIBI (MORFEMIKA)

So‘z tarkibi - asos va qo‘srimchalardan iborat. So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi. Asos so‘zning tub, bo‘linmas lug‘aviy ma’noli qismi bo‘lib barcha so‘zlarda qatnashadi.

Mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘silib, unga yangi ma’no yoki qo‘srimcha ma’no yuklaydigan, shuningdek, so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismiga qo‘srimcha deyiladi. Qo‘srimcha – asosga qo‘silib, uning *lug‘aviy* yoki *grammatik* ma’nosini shakllantirishga xizmat qiladi: *kel + di* - keldi (grammatik ma’no); *past + ay* - pasay (*lug‘aviy* ma’no -sifatdan fe’l yasalgan).

So‘zni ma’noli qismlarga ajratishga e’tibor bering: *uyush/qoq/lik, ko‘ngil/chan, kel/tir/ish/ni, suvo/q/chi/lik, biz/niki/lar, yalt/ira/sh/dan, ish/lo/vchi/lar, un/um/dor/lik, inson/iy/at/ga, pish/iq/chilik*.

Qo‘srimchalar vazifasiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: so‘z yasovchi qo‘srimchalar va shakl yasovchi qo‘srimchalar. Masalan, *oq* asosiga –*la* qo‘srimchasing qo‘shilishidan «oq rangga kiritish» ma’noli yangi so‘z yasalgan; shakl yasovchi qo‘srimchalar yangi lug‘aviy ma’no hosil qilmaydi. Masalan: *qizlar* so‘zida qizlarning birdan ortiq ekanligi, *qizcha* so‘zida esa kichraytirish ma’nosii fodalangan. Demak, qo‘srimchalar quyidagi turlarga bo‘linadi:



So‘z yasovchi qo‘srimchalar – asosga qo‘silib , yangi ma’noli so‘z yasaydi, ular so‘zning lug‘aviy ma’nosini shakllantirishga xizmat qiladi. So‘z yasovchi qo‘srimchalar to‘rtta turkumga xos so‘zlarni yasaydi: **OT, SIFAT, FE’L, RAVISH**. Masalan: *kabob+paz, supur+gi, tepe+lik, orom+goh* (ot), *gul+siz, meva+li, ish+chan, og‘iz+aki* (sifat), *yashir+in*,

*mard+ona, butun+lay, no+iloj* (ravish), *qalt+ira, sekin+la, kech+ik, suv+sira* (fe'l).

**Shakl yasovchi qo'shimchalar** – asosga qo'shilib, uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklash yoki o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'zga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalardir. Demak, shakl yasovchi qo'shimchalar grammatik ma'noga xizmat qiladi, so'zning ma'lum turkumga xos ma'nosini shakllantiradi, lug'aviy ma'noni o'zgartirmaydi.

Shakl yasovchi qo'shimchalar o'z navvatida vazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi: lug'aviy shakl yasovchilar va sintaktik shakl yasovchilar (sintaktik munosabat shakllari).

**Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha** – asosga qo'shilib , uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklovchi qo'shimchalardir. Masalan: *gul+lar, kel+gan, yaxshi+roq, bor+ib*.

Quyida so'z turkumlariga mansub lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarga diqqat qiling:

#### Otlarda:

-lar (ko'plik) qo'shimchasi: *kitoblar, gullar, qizlar*.

-cha, -choq, -chak, -(a)loq (kichraytirish , erkalatish) qo'shimchasi: *kelinchak, bog'cha, toychoq...*

-niki (qarashlilik) qo'shimchasi: *meniki, seniki, maktabniki, oyimniki*.

-gacha (chegara) qo'shimchasi: *Toshkentgacha ikki soatlik yo'l bor. Uydan maktabgacha bo'lgan masofa uncha uzoq emas.*

-dagi (o'rinn-joy) qo'shimchasi: *Qishloqdag'i hovvimizda mevali daraxtlar ko'p.*

-xon, -jon, -boy, -vachcha, -bek, -voy (hurmat) qo'shimchasi: *Manzuraxon, O'tkirjon, Salimboy, mullavachcha.*

#### Sifatlarda:

-roq – qiyosiy daraja qo'shimchasi: *yog'liroq palov.*

-i(sh), -i(mtir) – ozaytirma daraja qo'shimchasi: *ko'kimtir, sarg'imtir,*

-gina - belgining kuchsizligini belgilovchi qo'shimcha: *kichkinagina, maydagina.*

#### Sonlarda:

-inchi, -ta, -tacha, -larcha, -lab, -ov, -ala, -ovlon.

*Birinchi, bitta, beshtacha, yuzlarcha, minglab, beshala, uchovlon.*

#### Fe'llarda:

-ma – harakatning bo'Imaganligini ifodalaydi: *qochma, yugurma, borma, yozma;*

**-(i)n, -(i)l, -(i)sh, -dir(-tir), -t, -sat, -gaz(-kaz, -qaz, -g'az)** *ko 'rsat, keril, keltir, o 'tqaz, oshir, tomiz, kiyin, egil;*

**-sa** - shart mayli qo'shimchasi: *borsa, kelsa, o 'qisa;*

**-moqchi** - maqsad mayli qo'shimchasi: *bormoqchi, kelmoqchi, o 'qimoqchi;*

**-gan, -ar, -mas** sifatdosh qo'shimchalari: *kelar – kelmas, bo 'lar – bo 'lmas;*

**-(i)sh, -moq, -(u)v** harakat nomi qo'shimchalari: *o 'qimoq, bormoq, kelmoq;*

**-(i)b, -gach, -guncha, -gani, -may** ravishdosh qo'shimchalari: *borib, borgach, borguncha;*

**-la, -gila(-kila, -qila)** *ishqala, savala, tortqila, surgila;*

**-inqira, -imsira** — harakatning takroriyligi yoki kuchsizligini bildiruvchi qo'shimcha: *bosingira, kulimsira.*

**Sintaktik munosabat shakllarini yasovchi qo'shimchalar** o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqasiga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalar mustaqil ma'no anglatmaydi, so'z ma'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shmaydi. So'zlarni bir-biriga bog'lash, so'z birikmasi va gap hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Ularga:

**-kelishik** qo'shimchalari

**-egalik** qo'shimchalari

**-shaxs-son** qo'shimchalari kiradi.

So'zning ma'noli qismlari ma'lum tartibga ega. Qo'shimchalar so'zlarga quyidagi tartibda qo'shiladi:

Asos	→	So'z yasovchi qo'shimchalar	→	Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar	→	Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar
------	---	--------------------------------	---	--	---	---

Quyidagi so'zlarning ma'noli qismlari tartibiga e'tibor bering: *ish+chi+lar+imiz, paxta+chilik+ni, ter+im+chi+lar+ga, bog'+bon+lar+da, ish+la+t+ish+ni.*

Ba'zan shakl yasovchi qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimchalardan oldin qo'shilish holati ham uchraydi. Masalan: *ko 'rsatma, o 'tkazgich, tortinchoq.*

Quyidagi holatlarda so'z tarkibi qismlarga ajralmaydi:

**-ko'makchilarda:** *ko 'ra, qaraganda, bo 'lab, boshlab, yarasha.*

**-ayrim ravishlarda:** *birdan, tezda, yolg'ondan, birdaniga, qo 'qqisdan, chindan.*

-modal so‘zlarda: *afidan, chamasi, so‘zsiz, shubhasiz, aytishlaricha.*

***Qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra*** sodda va murakkab bo‘ladi.

***Sodda qo‘shimchalar*** – bitta tarkibga egadir: *ish+chi, yash+a, suv+sira.*

***Murakkab qo‘shimchalar*** – bir necha qo‘shimchalarining birlashuvidan tashkil topadi: *ikki + lan, mo‘l + chilik, pishiq + chilik, insof + garchilik, kompyuter + lashtirish.*

## SO‘Z YASALISHI

So‘z yasalishi tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, bunda *yangi so‘zlarning yasalish usullari* o‘rganiladi.

O‘zbek tilida quyidagi so‘z yasalish usullari bor:

***Morfologik usul-*** (asos + so‘z yasovchi qo‘shimcha) – asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan yangi so‘z yasaladi: *yaxshi+lik, quvon+ch, ko‘r+ik, erin+choq, yo‘l+iq, gup+illa.* Bu usul bilan sodda yasama so‘zlar yasaladi.

***Sintaktik usul-*** (asos+asos) – bunda qo‘shma so‘zlar hosil bo‘ladi, ular bir necha mustaqil ma’noli morfemalarining qo‘shilishidan yasaladi: *bel+bog’, havo+rang, olib+sotar, atir+gul, olib+bormoq, taklif+qilmoq, har+doim.*

***Semantik (ma’noviy) usul-*** bunda bir turkumga xos so‘z boshqa so‘z turkumiga ko‘chib, yangi ma’no anglatadi: *yupqa* ( belgi - sifat), *yupqa* (taom nomi - ot)

***So‘zlarni qisqartirish usuli-*** so‘z yasalishining bu usuli faqat *ot* so‘z turkumiga xos bo‘lib, so‘zlarni qisqartirish usuli orqali yangi so‘z yasaladi. Qisqartma so‘zlar quyidagicha yasaladi:

- bosh harflarni qisqartirish bilan: *IIB, BMT, AQSh, TDPU;*
  - bo‘g‘in va bosh harflarni qisqartirish bilan: *ToshMA, O‘zAA, FarDU, O‘zMU;*
  - yopiq bo‘g‘inlarni qisqartirish orqali: *Toshviltrans, O‘zdavnashr.*
- Qisqartma otlarni shartli qisqartmalardan farqlash lozim: *S.Rahimov, A.Navoiy* kabi.

## SO‘Z YASALISHI TAHLILI

1. Matn tarkibidagi yasama so‘zlargina ajratiladi.

2. Matn tarkibidagi yasama so‘zlar ma’noli qismrlarga ajratiladi.

3. Tahlil jarayonida shakl yasovchi qo‘shimchalar inobatga olinmaydi.

4. Agarda so'z tarkibida bir necha so'z yasovchi qo'shimchalar qatnashgan bo'lsa oxirgisi so'z yasovchi qo'shimcha sifatida ajratiladi.

5. Qaysi turkumdan so'z yasalganligi aytildi.

Namuna: *Tepaliklarda qor ostidan zanglagan temir parchalari chiqib turar edi*. Ushbu gapda ikkita yasama so'z bor: *tepaliklarda* – so'zida asos - *tepa*, yasovchi qo'shimcha – *lik*, ravishdan ot yasalgan; *zanglagan* – so'zida asos – *zang*, *la* – so'z yasovchi qo'shimcha, otdan fe'l yasalgan.

## SO'ZLARNING TURLARI

So'zlar tuzilishiga ko'ra: 1/ sodda so'zlar; 2.qo'shma so'zlar; 3.juft so'zlar; 4.takroriy so'zlarga bo'linadi.

Sodda so'zlar – bir asosdan iborat bo'lgan so'zlardir: *kitobxon, baland, mevazor, qoramitir* kabi. Sodda so'zlar o'z navbatida ikkiga bo'linadi: sodda tub so'zlar va sodda yasama so'zlar.

Sodda tub so'zlar – Tarkibi asos va yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydigan so'zlardir. Boshqacha aytganda, tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lmagan so'zlar tub so'zlar deyiladi: *bola, uycha, yaxshiroq, borgan*. Bunday so'zlar tarkibida shakl yasovchi qo'shimcha qatnashishi yoki so'z faqat asosdan iborat bo'lishi mumkin.

Sodda yasama so'zlar. Asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi orqali hosil qilingan yangi asos sodda yasama so'zlar deyiladi. Masalan: *o'rikzor, sersavlat, zargarlik, qahramonona*. Demak, bunday so'zlar tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha ishtirot etgan so'zlardir.

So'zning shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qismi *asos* sanaladi: *baliqchilar, ishchanlik, to'plandi*.

Bir umumiy asosga ega bo'lgan so'zlar **asosdosh** so'zlar deyiladi: *tinch, tinim, betinim, tiniq*.

Qo'shma so'zlar - bir necha asoslarning birikuvidan hosil bolgan, ya'ni sintaktik usul bilan yasalgan so'zlardir: *tomorqa, bedapoya, Yangiyo'l, yolg'izyoq, sohibjamol, ozmuncha, devsifat*. Qo'shma so'zlarning tarkibi turli so'z turkumlaridan bo'lishi mumkin: *ko'ksulton*(sifat va ot), *qorbo'ron* (ot va ot), *shirinso'z* (sifat va ot) kabi. Fel turkumida qo'shma fe'lliar doim ajratib yoziladi: *sotib olmoq, ahd qilmoq, borib kelmoq, bayon etmoq*. Qo'shma so'zlar ham **yasama so'z**lardir.

Juft so'zlar- umumlashtirish, jamlash kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi, chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qozon-tovoq, yaxshi-yomon, ana-mana, eson-omon*

Juft so'z qismlari quyidagicha tuziladi:

- har ikki qismi mustaqil qo'llana oladi: *ko'rpa-to'shak, esli-hushli, siz-biz;*
  - faqat bir qismi mustaqil qo'llana oladi: *egri-bugri, temir-tersak;*
  - har ikkala qismi mustaqil qo'llana olmaydi: *aji-buji, apil-tapil.*
- Juft so'z qismlar quyidagi ma'no munosabatlarini hosil qiladi:
- o'zaro sinonim (ma'nodosh) so'zlardan tuziladi: *baxt-saodat, kuch-quvvat;*
  - o'zaro antonim so'zlardan tuziladi: *uzoq-yaqin, qishin-yozin, katta-kichik;*
  - sinonim bo'lмаган, uyadosh so'zlardan tuziladi: *ota-on, qovun-tarvuz.*

Ba'zan juft so'zlarda semantik usul bilan yasalish (boshqa so'z turkumiga ko'chish) holati kuzatiladi. Masalan: *bordi-keldi, qo'ydi-chiqdi, oldi-berdi fe'llari* ot so'z turkumiga ko'chadi: *Ularning ko'p yillardan beri bordi-keldisi bor.*

**Takroriy so'zlar.** Bu so'zlar ham juft so'zlar kabi chiziqcha bilan ajratib yoziladi, yasama so'z sanalmaydi. Takroriylik, ko'plik, jamlik kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi. *Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. O'z onamni elas-elas xotirlayman.* Takroriy so'zlar bиринчи undosh tovushni o'zgartirish bilan ham hosil qilinishi mumkin: *ish-pish, bug'doy-mug'loy, non-pon.* Takroriy so'zlarni gapda ketma-ket qo'llangan so'zlardan hamda nutqiy takrorlardan farqlash lozim: *Suv toshdan toshga urilib oqadi. O'zingni o'zingga maqtagandan qo'rq. Oyi, oyi, tezroq keling!*

## OT YASALISHI

Otlar turli so'z turkumlaridan morfologik, sintaktik va so'zlarni qisqartirish usullari bilan yasaladi. Quyida ot yasalish usullarini ko'rib chiqamiz.

**Morfologik usul** bilan sodda yasama otlar yasaladi: *paxta+kor, arava+soz,qir+g'ich, chop+iq, orom+goh.* Ot yasovchi qo'shimchalar beshta ma'noviy guruhga bo'linadi:

- shaxs oti yasovchi qo'shimchalar
- mavhum ot yasovchi qo'shimchalar
- faoliyat-jarayon oti yasovchi qo'shimchalar
- o'rinn-joy oti yasovchi qo'shimchalar
- narsa oti yasovchi qo'shimchalar

**Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar.** Bu qo'shimchalar asosan ot asosdan ot yasaydi.

- chi *gulchi, suvchi, ishchi, taqachi*
- dosh *sirdosh, sinfdosh, kursdosh*
- do'z *etikdo'z, zardo'z*
- shunos *tilshunos, adabiyotshunos, tabiatshunos*
- kor *paxtakor, g'allakor, sholikor*
- kash *aravakash, tuyakash*
- xon *kitobxon, gazetxon*
- gar *chilangar, misgar, zargar*
- soz *soatsoz, aravasoz*
- paz *oshpaz, somsapaz*
- boz *dorboz, masharaboz*
- xo'r *o'txo'r, go'shtxo'r*
- parast *butparast*
- dor *amaldor, mansabdar*
- bon *bog'bon, eshikbon.*
- furush *pistafurush, chitfurush*
- ham *hamqishloq, hamshahar.*

**Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar** ot va fe'l asosdan ot yasaydi.

- lik ko'p ma'noli qo'shimcha bo'lib quyidagi ma'noli mavhum otlarni yasaydi:

- xoslik, mo'ljallanganlik so'zlarini yashashda qo'llaniladi *darslik, urug'lik.*
- paytga vaqtga aloqadorlik *shanba-lik, asr-lik, payshanba-lik.*
- joy ma'nosiga nisbatan *muz-lik, qum-lik, suv-lik.*
- ch *quvon-ch, o'kin-ch*
- nch *taya-nch*
- inch *qo'rqi-inch*
- at *insoniyat, qadriyat, qobiliyat*

**Faoliyat-jarayon otlari** shaxs va narsalarning faoliyat jarayonini nomlaydi. Bu qo'shimchalar ot, sifat va fe'l asoslardan ot yasaydi.

- lik ko'p ma'noli qo'shimcha bo'lib, quyidagi ma'nolarini ifodalaydi:
- kasb faoliyat ma'nolarini: *sholikor-lik, gallakor-lik*
- umrning ma'lum davrini: *bola-lik, o'smir-lik, yosh-lik, qari-lik*
- xarakter-xususiyatni: *ezma-lik, yalqov-lik*
- chilik *mo'lichilik, uzum-chilik, g'alla-chilik, yigit-chilik*
- garchilik *serob-garchilik, loy-garchilik.*
- (u)v *chaquv, saylov, tanlov*

- (i)m *terim, unum, yig'im*
- (i)q *chopiq, buyruq*
- q (oq) *sanoq, taroq, qynoq*

*O'rin joy oti yasovchi qo'shimchalar* ot va fe'l asosdan ot yasaydi.

- loq *o'tloq, qumloq*
- iston *qabriston, guliston*
- zor *gulzor, daraxtzor, olmazor*
- goh *tomoshagoh, o'yingoh, saylgoh, oromgoh*
- don *guldon, suvdon*
- xona *sinfxona, oshxona, darshona*
- obod *Do'mbirobod, Yunusobod, Yangiobod*
- ma *bostirma, pistirma*

*Narsa oti yasovchi qo'shimchalar* asosan fe'l asosdan ot yasaydi.

- k *to'shak, kurak*
- ik *ko'rik, teshik*
- gi(-ki,-qi,-g'u) *kulgi, tuyg'u, chopqi, supurgi*
- m *chidam, to'plam, bog'lam, o'ram, chimdim*
- im (-um) *kechirim, bo'g'im, tuzum*
- ma *qo'llanma, uyushma, toshma*
- qin (-g'in) *qirg'in, yong'in, bosqin*
- in (-un) *tugun, yog'in*
- indi *yuvundi, cho'kindi, chirindi*
- machoq *topishmachoq, bekinmachoq*
- ak *qarsak, pirpirak*
- a *sharshara, g'arg'ara*
- os *gulduros, sharros*
- ildoq *chirildoq, xiqildoq*

Sintaktik usul bilan qo'shma otlar yasaladi. Sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma otlar tarkibi quyidagicha bo'ladi:

- ot + otdan: *asalari, gultojixo roz*
- sifat + otdan: *ko'ksulton, oqsoqol, olaqarg'a*
- son + otdan: *beshvarmoq, mingoyoq, to'riburchak, uchburchak*

## SIFAT YASALISHI

Sifatlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan sodda yasama sifatlar yasaladi: *mevali, sersavlat, dilkash, jozibali*. Sifat yasovchi qo'shimchalar ot, sifat, fe'l asoslardan sifat yasaydi:

- li qo'shimchasi ko'p ma'noli qo'shimcha bo'lib:
- asosdan anglashilgan narsa, predmetga egalikni: *rasmli*, *bolali*, *mazmunli*

- belgining kamligini: *yog 'li soch*, *suqli sochiq*  
 - belgining ko'pligini: *yog 'li palov*, *go'shtli taom*  
 -li qo'shimchasi asosan otdan sifat yasaydi. -*dor*, -*ser*, -*va*, -*bo* so'z yasovchi qo'shimchalari bilan sinonim bo'la oladi: *soqolli-soqoldor*, *suqli-sersuv*, *ma'nila-vama'ni*, *obro 'li-boobro'*.

- dor unumdar*, *vafodor*
- ser sersuv*, *serqirra*
- ba bama'ni*, *boodob*
- mand ishtiyqqmand*, *kasalmand*
- kor ehtiyotkor fusunkor*
- siz Suvsiz*, *asossiz*
- be(siz) beminnat*, *beg'araz*
- no(siz) nomard*, *nojo'ya*, *noo'rin*
- chan ishchan*, *o'ychan*
- choq tortinchoq*, *magtanchaq*
- chak kuyinchak*, *erinchak*
- chiq qizg'anchiq*, *sirpanchiq*
- qoq(-g'oq) yopishqoq*, *toyg'oq*
- gir(-kir,-qir) keskir, sezgir*, *topqir*
- ag'on chopag'on*, *qopag'on*
- mon toparmon*, *tutarmon*, *ishbilarmo*
- aki yuzaki*, *shartaki*
- qi yig'loqi*, *sayroqi*, *qayroqi*
- k chirik*, *kemtik*
- ik egik*, *bukik*, *o'lik*
- q iliq*, *issiq*, *oqsoq*, *yumshoq*
- iq bo'liq*, *o'siq*, *yirtiq*, *ochiq*
- kin (-qin, -g'in)* *so'lg'in*, *jo'shqin*, *horg'in*
- in to'kin*, *sochin*, *erkin*
- ma yig'ma*, *terma*, *tug'ma*, *burama*
- mas qo'rmas*, *yengilmas*, *yaramas*
- ildoq qarsaldoq*, *bijaldoq*
- ch tinch*, *jirkanch*
- iy(viy) ahloqiy*, *samoviy*, *jismoniy*
- gi(-ki,-qi) oldingi*, *tashqi*, *kechki*, *tonggi*

- i *qishloqi, iroqi, qozoqi*
- cha *ruscha, o'zbekcha, qozoqcha*
- namo *mullanamo, kamnamo, avliyonamo*
- simon *tuxumsimon, aylanasimon, doirasimon*
- parvar *insonparvar, vatanparvar*
- bad *badbo'y, badnafs*
- chil *epchil, kamchil, izchil*
- don *bilimdon, gapdon*
- kash *mehnatkash, dilkash*
- msiq *qarimsiq, achimsiq*
- bop *ommabop, palovbop*
- xush *xushmanzara, xushhavo*

Sintaktik usul bilan qo'shma sifatlar yasaladi. Qo'shma sifatlarning tarkibiy qismlari:

- ot + otdan: *devqomat, havorang, bodomqovoq, alpqomat*
- sifat + otdan: *sofdil, kaltafahm*
- ot+fe'lidan: *osmono'par, jonkuyar*

## FE'L YASALISHI

Fe'llar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Sodda yasama fe'llar morfologik usul bilan yasaladi.

-la fe'l yasovchi faol qo'shimcha bo'lib, quyidagi turkumlardan fe'l yasaydi:

- otdan *o'yla, so'zla*
- sifatdan *oqla, ko'kla*
- ravishdan *tezla, odimla*
- taqlid so'zdan *sharilla, pirilla*
- undov so'zdan *dodla, chuhla, voyvoyla*.
- lan *ikkilan, rohatlan, uylan*
- lash *gplash, salomlash, xayrlash*
- illa *chirilla, pirilla, mo'ltilla*
- ira *shargira, yarqira*
- a *o'yna, osha, yasha*
- ay *ko'pay, kuchay, ozay, puchay*
- (i)r *qisqar, eskir*
- ar *yoshar, bo'zar, oqar*
- k(ik) *kechik, birik*

-q(iq) yo‘liq

-i *changi, boyi, tinchi*

-t(it) *to‘lat, berkit*

Sintaktik usul bilan qo‘shma fe’llar yasaladi. Qo‘shma fe’llar doim ajratib yoziladi. Qo‘shma fe’llar tarkibi quyidagicha bo‘ladi:

- ot + fe’ldan *vafot etmoq, tashrif buyurmoq, qo‘l qo‘ymoq, imzo chekmoq*
- fe’l + fe’ldan *sotib olmoq, borib kelmoq, tortib olmoq.*

Qo‘shma fe’llarni ko‘makchi fe’lli shakllardan farqlash lozim. Bunday fe’llar yetakchi fe’l + ko‘makchi fe’l shaklida tuziladi. Yetakchi fe’l ravishdosh shakdida bo‘lib, harakat(holat) ma’nosini ifodalaydi. Ko‘makchi fe’l o‘z lug‘aviy ma’nosidan chekinadi va harakatning turli xarakteristikasini ko‘rsatuvchi qo‘srimcha ma’nolarni anglatadi. (Ko‘makchi fe’l tushirib qoldirilsa ham harakat ma’nosi yetakchi fe’ldan anglashiladi).

ko‘rib

- 
- chiqди
  - bo‘лди
  - berди
  - qoldи
  - turди

Quyida berilgan ko‘makchi felli so‘z shakllarining ma’nolariga diqqat qiling: *sezib qolmoq, o‘qib bermoq, ketib qolmoq, qarab qo‘ymoq, kelib turmoq, kutib qolmoq, yura boshlamoq.* (Ko‘makchi fe’llarning ma’nolari haqida) fe’l turkumida vahs yuritamiz).

## RAVISH YASALISHI

Ravishlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi.

Morfologik usul bilan ot va fe’l asoslardan sodda yasama ravishlar yasaladi.

-cha *yaxshilikcha, butunicha, yashirincha*

-larcha *mardlarcha, o‘g‘rilarcha, dushmanlarcha, onalarcha*

-chasiga *erkakchasisiga, yigitchasiga*

-siga *yoppasiga, qatorasiga, ertasiga*

-ona *do‘stona, shoirona,*

-lab *tonnalab, savatlab*

-an *majburan, asosan, tasodifan*

-in *yashirin*

-lay (*ligicha*) *butunlay, tirikligicha*

Sintaktik usul bilan qo'shma ravishlar yasaladi.

- **har, hech** so'zlarini o'ren, payt ma'noli so'zlarga qo'shish bilan qo'shma ravishlar yasaladi: *har zamon, har lahza, har on, har safar, hech vaqt, hech joy*

- **bir** so'zini o'ren, payt ma'noli so'zlarga qo'shish bilan: *bir oz, bir zumda, bирyo 'la, bir nafas, bir qancha, bir muncha.*

## MORFOLOGIYA

Tilshunoslikning bu bo'limida so'zning grammatik ma'nosi va ularni ifodalovchi grammatik shakllar o'rganiladi.

So'z tilshunoslikning ikkita bo'limida o'rganiladi: leksikologiyada va morfologiyada. So'zning borliqdagi ma'lum narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma'nosi yoki lug'aviy ma'nosi deyiladi. So'zning bunday ma'nosi leksikologiyada o'rganiladi.

So'zlar atash ma'nosi bilan birgalikda ma'lum grammatik ma'no va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarga ham ega bo'ladi. So'zning grammatik ma'nosi so'zning atash ma'nosiga qo'shimcha ma'no bo'lib, bir turkum so'zlar uchun umumiyligi ma'nodir.

Kitob → **atash ma'nosi** — o'quv quroli

**grammatik ma'nosi** — predmet, ot so'z turkumi, birlikda, bosh kelishikda...

Har qanday grammatik ma'no ma'lum grammatik shakl orqali ifodalanadi. Grammatik ma'nolarni ifodalovchi shakllar grammatik shakllar deyiladi. Masalan, *uzumlarni* so'zi «uzum daraxti mevasi», «daraxt» ma'nolari bilan birga «ko'plik», «kelishik» ma'nolariga va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarga (lar, ni) ega. «Uzum daraxti mevasi», «daraxt» ma'nolari bu so'zning atash ma'nosi, qolgan ma'nolar esa grammatik ma'nolaridir. Grammatik ma'no bir turkumga xos so'zlar uchun umumiydir.

So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'noga ifodalashiga ko'ra guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari sanaladi. So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagiguruhlarga bo'linadi:

1. Mustaqil so'zlar
2. Yordamchi so'zlar
3. Undov so'zlar
4. Taqlid so'zlar

## 5. Modal so‘zlar

Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, biror gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar *mustaqil so‘zlar* deyiladi: fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravishlar mustaqil so‘zlardir.

Mustaqil so‘zlardan *kelishik* va *egalik qo‘srimchalari* bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar *ismlar* deyiladi. Ismlar to‘rtta bo‘ladi: ot – narsaning nomi, sifat – belgining nomi, son – miqdor nomi, olmosh – ismlar o‘rnida almashib keluvchi, ularga ishora qiluvchi so‘zlar.

## OT SO‘Z TURKUMI

Shaxs, narsa ma’nolarini shuningdek joy nomlarini bildirib, *kim? nima? qayer?* so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlar ot deyiladi. Kim? so‘rog‘i shaxsni bildiruvchi so‘zlarga, nima? so‘rog‘i narsa-buyumni bildiruvchi so‘zlarga, qayer? so‘rog‘i joy nominini bildiruvchi so‘zlarga beriladi. Shunga ko‘ra otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o‘rin-joy otlariga bo‘linadi. Masalan: *olma, bulut, do‘ppi; qiz, chol, Qo‘zivoy; qishloq, guzar, Toshkent*.

**Otlar tuzilishiga ko‘ra** sodda, qo‘shma, jut va takroriy otlarga bo‘linadi.

**Sodda otlar** faqat bir asosdan tarkib topgan otlardir: *ishlarimiz, ko‘chadagi, o‘roq*. Sodda otlar tub va yasama bo‘ladi. Tarkibida so‘z yasovchi qo‘srimchasi bo‘limgan otlar sodda tub otlardir: *tilimiz, bolalar, kitob*. Morfologik usul bilan (so‘z yasovchi qo‘srimchalar yordamida) yasalgan otlar sodda yasama otlardir: *ekin, supurgi, aravakash*

**Qo‘shma otlar** ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan otlardir: *kungaboqar, beshvarmoq, qulqop, boychechak*. Qo‘shma otlar qo‘shib yoki ajratib yoziladi:

- ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar doim ajratib yoziladi: *laylakqor, olibsotar, tillaqosh, atirgul*;

- ikkinchi qismi turdosh otdan bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi: *Oltiariq, Yangibozor, Surxondaryo*;

- ikkinchi qismi atoqli otdan bo‘lgan qo‘shma otlar ajratib yoziladi: *O‘rta Osiyo, G‘arbiy Yevropa, O‘rta Chirchiq*.

**Juft otlar** ikkita otning juftlashuvidan hosil bo‘ladi va chiziqcha bilan yoziladi: *kitob-daftar, ota-on, temir-tersak, ot-ulov, orzu-armon, gap-so‘z*.

**Takroriy otlar** otni aynan yoki tovush o‘zgarishi bilann takrorlash orqali hosil qilinadi. Takroriy so‘zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *savat-savat, dasta-dasta, qovun-povun, uy-puy...*

## OTLARNING MA'NOLARIKA KO'RA TURLARI

Bir turdag'i predmetlardan birining nomini yoki umumiy nomini bildirishiga ko'ra otlar atoqli otlar va turdosh otlarga bo'linadi. bir turdag'i predmetlardan bittasini ajratib ko'rsatuvchi shaxs, narsa yoki joyga atab qo'yilgan otlar atoqli otlar deyiladi: *Amudaryo, Zarafshon, Sirdaryo, Nigora*.

Atoqli otlarnimani atab kelishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: shaxs nomlari va joy nomlari. Kishilarga atab qo'yilgan nomlar, ularning ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi atoqli otlar *shaxs nomlari* deyiladi: *Mir Alisher Navoiy, Yusuf xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Hasanali, Erkin Bohidov*.


Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar joy nomlari deyiladi: *Farg'ona, Xatirchi, Chorsu, Italiya, Markaziy Osiyo, O'zbekiston Respublikasi*. Mamlakat va o'inka nomlari qo'shma so'z shaklida bo'lganda har bir qism bosh harf bilan yoziladi: *Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Saudiya Arabistoni, O'rta Osiyo*. Tarkibi turdosh otlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Oltiariq, Yetisuv, Oqtosh, Bildirsoy, Qizilqum, Yangiobod, Qumgo'rg'on*. Tarkibida bo'yi, orti, oldi so'zлari ishtirot etgan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Orolbo'yi, Kavkazorti*.

Atoqli otlar tashkilot, korxona, muassasa nomlarini ham bildiradi: *Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, «vahor» kontsert zali, «O'zbekiston» mehmonxonasi, «Sharq gullari» firmasi*.

- xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, vazirlar Mahkamasi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi*;
- vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: *Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Quvasoy tsement zavodi*;
- turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlarga berilgan shartli nomlar qo'shtirnoq ichida bish harf bilan yoki birinchi qismi bosh harf bilan beriladi: *«Istiqlol» saroyi, «Umid gulshani» oromgohi*.

Atoqli otlar tarixiy sana va vayram nomlarini ham bildiradi. Tarixiy sana va vayramiarning birinchi nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi: *8 mart – Xalqaro xotin qizlar kuni, 9 may – Xotira va qadrlash kuni*.

**Turdosh otlar** bir turdag'i shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlardir. Turdosh otlar quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:



**Shaxs otlari** – kim? so'rog'iga javob bo'lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansabiga, ijtimoiy holatiga, nasl-nasabiga qarindoshlik darajasiga ko'ra nomlab keladi. Masalan: *yigit, qiz, ayol, erkak* – jins jihatdan; *amma, xola, tog'a, amaki* – qarindoshlik darajasiga ko'ra; *leytenant, dotsent, polkovnik* – unvoni jihatdan; *tikuvchi, oshpaz, sartarosh* – kasb-koriga ko'ra; *chol, kampir, bola* – yoshiga ko'ra; *mahalladosh, qishloqdosh* – yashash joyiga nisbatan nomlangan.

Shaxs otlari yasama otlar ham bo'lishi mumkin. Ular shaxs oti yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi: *sinfidosh, suvchi, dorboz, soatsoz, kitobxon* kabi.

-lik qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shilib, shaxsnинг shu hududga mansubligini bildiradi, Atoqli otlarga qo'shilgan –lik qo'shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: *andijonlik, qishloqlik, amerikalik*.

**Narsa otlari** – nima? so'rog'iga javob bo'lib, jonli va jonsiz narsalarning nomlarini bildiradigan otlardir. Narsa otlari quyidagi ma'noviy guruhlarga ajraladi:

Hayvon nomlari – *kuchuk, mushuk, sichqon, chumoli, chigirtka*

O'simlik nomlari – *gul, rayxon, yalpiz, gultojixo roz*

Oziq-ovqat nomlari – *piyoz, kartoshka, qovun, non*

Kiyim-kechak – *shim, yubka, pal'io, to'n*

Idish-tovoq nomlari – *qoshiq, kosa, qozon, cho'mich*

Ish qurollari nomlari – *ketmon, bolta, arra, tesha*

Osmon jismlari nomi – *yulduz, oy, bulut, quyosh*

Narsa otlarning tub va yasama shakli mavjud: **-gich, -qich, -gi, -qi, -k, -oq, -indi, -ma, -don, -moq, m** qo'shimchalari asosga qo'shilib yasama narsa otlari yasaydi: *o'roq, taroq, tugma, qirg'ich, guldon, achitqi, tishkovlagich, elak, supurgi*.

**Aniq va mavhum otlar.** Sezgi a'zolarimiz yordamida (*ushlab, ko'rib*) bilishimiz mumkin bo'lgan narsalarni bildirgan otlar aniq otlar deyiladi: *kitob, daftar, stol, stul, parta*. Aniq otlar birlik va ko'plik shaklda qo'llaniladi. Birlik va ko'plik ma'nolarini anglata oladi: *kitoblar* -birdan ortqlik ma'nosini anglatadi.

Sezgi a'zolarimiz yordamida (*ushlab, ko'rib*) bilishimiz mumkin bo'limgan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlar mavhum otlar deyiladi: *g'am, qayg'u, vaxt, quvonch, aql, uyqu, farishta, hayo, nomus*. Mavhum otlar faqat birlikda qo'llaniladi va ko'plik (-lar) qo'shimchasini olganda grammatik ma'no ifodalanmaydi, ma'no kuchaytiriladi uslubiy ma'no anglashiladi: *Tuyg'ularim jo'shib ketdi*.

Mavhum otlar yasama bo'lishi ham mumkin:

- ... *lik shodlik, yomonlik, ahmoqlik*
- ... *ch quvonch, o'kinch, yupanch, sog'inch*
- ... *inch qo'rqinch*
- ... *gi sevgi, kulgi*
- ... *at, -ot samimiyat, hissiyat*

**Yakka va to'da otlar.** Donalab sanaladigan predmetlar yakka otlardir: *daftar, ruchka, qalam, stul, stol*. Bir turdag'i predmetlarning jamini bildiruvchi, o'zi alohida predmetga xos atash ma'nosini anglatmaydigan otlar to'da otlardir: *xalq, el, yurt, poda, sabzavot, meva*.

**Faoliyat jarayon otlari** shaxs, narsalarning faoliyat jarayonini ifodalovchi otlardir: *chorvachilik, tanlov, chopiq, loygarchilik, terim, ro'shnolik*. Faoliyat – jarayon otlari quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:


- ... *lik sartaroshlik, mehribonlik, to'quvchilik*
- ... *chilik g'allachilik, paxtachilik, ipakchilik, pillachilik*
- ... *garchilik loygarchilik, mo'lchilik*
- ... *uv o'quv, yozuv, chizuv*
- ... *im terim, kirim-chiqim*
- ... *iq chopiq, qaytariq*

**O'rin-joy otlari:** qayer? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlardir: *shahar, tuman, guzar, mahalla, ko'cha, maydon, gulzor, oromgoh, g'arb, shimol*. O'rin joy otlari o'rin joy oti yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladi:

- ... *zor gulzor, mevazor, tokzor*
- ... *loq qumloq, toshloq*

- ... *iston qabriston, guliston*
- ... *goh sayrgoh, tomoshagoh*
- ... *xona qo'riqxona, yotoqxona, oshxona*
- ... *ma bostirma, tortma*

## OTLARNING LUG'AVIY SHAKLLARI



Otlarning son shakli uning lug'aviy shakli sanaladi. Son shakli birlik va ko'plik shaklga ega. Otlarning *-lar* qo'shimchasini olgan shakli *ko'plik shakli*, *-lar* qo'shimchasini olmagan shakli esa *birlik shakli* bo'lib hisoblanadi. Masalan: *Kitob<sub>(birlik)</sub>* – *kitoblar<sub>(ko'plik)</sub>*, *qalam<sub>(birlik)</sub>* – *qalamlar<sub>(ko'plik)</sub>*.

Otlarning birlik shakli predmetning yakkaligagini ifodalaydi, u maxsus ko'rsatkichga ega emas.

Otlarning ko'plik shakli predmetning birdan ortiqligini ifodalab keladi va qo'yidagi usullar bilan yasaladi:

- *morfologik usul* – asosga *-lar* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan shakl: *farzandlar, gullar, qushlar, yulduzlar*.
- *sintaktik usul* – otdan oldin miqdor bildiruvchi ayrim so'zlar yoki sonlarni keltirish orqali yasadadigan shakl: *o'nta kitob, ancha odam, ko'p odam*.
- *semantik usul* – ma'noviy ko'plikni anglatuvchi otlarda ifodalanadi: *poda, omma, jamiyat, to'da, to'plam*.

*-lar* qo'shimchasi grammatik va uslubiy ma'nolarni ifodalash xususiyatiga ega:

*-lar* qo'shimchasi ot yoki otlashgan so'zlarga qo'shilib, ko'plik ma'nosini ifodalashi uning *grammatik ma'nosidir*: *uylar, bolalar, yaxshilar, kelganlar*.

-lar qo'shimchasining faqat birlikda qo'llanuvchi otlarga qo'shib, ko'plikdan tashqari anglatgan ma'nolari uning *uslubiy ma'nosi* bo'lib hisoblanadi.

#### **-lar qo'shimchasining uslubiy ma'nolari:**

- *mayhum otlarga* —lar qo'shimchasi qo'shilsa ma'no kuchaytiriladi: sevinchlarim, qayg'ularim, armonlarim, quvonchlarim.

- *donalab sanalmaydigan otlarga* — qo'shilganda xil, nav, tur ma'nolarini anglatadi: unlar, suvlar, yog'lar.

- *atoqli otlarga* — qo'shilganda umumlashtirish, jamlash ma'nolarini ifodalaydi: Akmallarnikiga bordik. Samarqandlarni aylandik.


- *tabiatdag'i yakka jismlarga* — qo'shilganda ma'no kuchaytiriladi: Oylar yuziga parda tortadi. Ushbu sanalgan otlar lar qo'shimchasini olsada, ulardan anglashilgan ma'no uslubiy ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun ham quyida sanab o'tgan otlarimiz birlikda qo'llaniluvchi otlar bo'lib ular grammatic ko'plikda qo'llanila olmaydi.

- *hurmat ma'nolarini anglatadi* — bunda lar qo'shimchasi egalik qo'shimchasidan keyin joylashadi: oyimlar keldilar, akamlar vrachlar.

- *chama, taxmin ma'nolarini anglatadi*: Ikki soatlar kutdik.

Kichraytirish va erkalash shakllari otlarning lug'aviy shakli sanaladi. Otlarning --cha, -choq, -chak, -(a)log qo'shimchalarini olgan shakli kichraytirish shakli, -gina, (-kina, -qina), -jon, -xon, -oy qo'shimchalarini olgan shakli esa erkalash shakli hisoblanadi: *valiqcha, kelinchak, qo'zichoq, qizaloq, oyijon, bolaginam, Salimaxon, Rahimaoy, Salimjon*.

## **ISMLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI**



Ism asoslarga qo'shib, ularni boshqa so'zlarga bog'lab keladi va gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ismlarning munosabat shakllariga egalik, kelishik va -man, -san, -dir qo'shimchalari, bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq kesimlik bog'lamlari kiradi.

**Egalik qo'shimchalari** – ismlarga qo'shilib asos qismida ifodalangan narsaning belgisini, xusiyatini, harakat-holatini uch shaxsdan biriga qarashliliginib bildirgan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi.

<i>birlit</i>	<i>ko'plik</i>
I onam borishim	onamiz borishimiz
II onang borishing	onangiz borishingiz
III onasi borishi	ona(lar)i borish(lar)i

Undosh bilan tugagan ismlarga *-im*, *-imiz*, *-ing*, *-ingiz*, *-i*, *-lari*; unli bilan tugagan ismlarga *-m*, *-miz*, *-ng*, *-ngiz*, *-si*, *-(lar)i* qo'shimchalari qo'shiladi.

Viloyat, shahar, tuman, korxona nomlarida qo'llangan egalik qo'shimchalari xoslik, tegishlilik, umumdan ajralganlik ma'nolarini ifodalaydi: *Orol dengizi*, *Bobur bog'i*, *Amir Temur xiyoboni*. Bu gaplarda egalik ma'nolari anglashilmaydi.

Ravishlarida egalik qo'shimchalari ajratilmaydi, ular yaxlitlanib qolgan bo'ladi: *kechasi*, *kunduzi*, *ertasiga*, *uzunasiga*, *kechalari*.

Egalik qo'shimchasini olgan so'zdan oldin qaratqich kelishigi shaklidagi so'z belgili va belgisiz qo'llaniladi: *kitobning varag'i*, *cho'havosi*, *mening ustozim*.

Sifatdosh va xarakat nomi tarkibidagi egalik qo'shimchalari harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini bildiradi. Shuning uchun ulardan oldin qaratqich kelishigini olgan so'zning ko'pincha qo'llanilishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Masalan: *Bilganiningni ayt. Kachon kelishini bilmaymiz*.

Ba'zan egalik qo'shimchasi belgisiz shaklda qo'llaniladi: *bizning uy, sizning ko'cha*. Egalik qo'shimchasini olgan so'z bosh kelishikdagisi so'zga birikishi ham mumkin, bunda xoslik, umumiyligini ma'nosi ifodalaniadi: *Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi*, «*Qutlug' qon» romani*.

Qarashlilik ma'nosi ismlarga *-niki* lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali ham ifodalilanadi. Bu shaklni olgan so'z gapda faqat kesim vazifasida keladi, shaxs-sonda o'zgarmaydi: *kitob meniki, kitob Karimniki*.

**Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi.**

- *terak, qishlog, bolalik* singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarda egalik qo'shimchasi qo'shilganda, asos qismining oxirgi *k*, *q* tovushlari *g* va *g'* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: teragi, qishlog'i, bolaligi;
- *o'rin, shahar, burun* kabi ikkinchi bo'g'inida *i*, *a*, *u* qisqa unlilari ishtirok etgan so'zlarda egalik qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi *i*, *a*, *u* unlilari tushib qoladi: *o'rni, shahri, burni*;

- *nok, chok, mashq* kabi bir bo‘g‘inli, *idrok, ishtirok, huquq* kabi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda egalik qo‘srimchalari qo‘silganda asos qismida hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi: *noki, ishtiroki, huquqi*. Demak, egalik qo‘srimchalari qo‘silganda ba‘zi so‘zlarda tovush almashishi va tovush tushishi hodisalari yuz beradi.

**Kelishik shakllari.** Ismlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiluvchi qo‘srimchalar kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doim tobe so‘zga qo‘shiladi. O‘zbek tilida oltita kelishik mavjud:

<i>Kelishik nomlari</i>	<i>Qo‘srimchalari</i>	<i>Misollar</i>
Bosh kelishik	---	Bola gapirdi
Qaratqich kelishigi	-ning	Karimning ukasi
Tushum kelishigi	-ni	Do‘smini uchratmoq
Jo‘nalish kelishigi	-ga (-ka, -qa)	Onaga, tog‘ga, buloqqa, bilakka
O‘rin-payt kelishigi	-da	Maktabda o‘qimoq
Chiqish kelishigi	-dan	Uydan chiqmoq

Ismlarning egalik qo‘srimchalari bilan shaxs-sonda hamda kelishik qo‘srimchalari bilan o‘zgarishi turlanish deyiladi. Turlovchi qo‘srimchalar egalik va kelishik qo‘srimchalaridir.

*Bosh kelishik* - kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Bosh kelishik shakli maxsus ko‘rsatkichga ega emas. Bu shakldagi so‘z gapda ega, ot kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan: Mening onam — vrach. *Bahor*, buncha-go‘zalsan . Qizcha maktabda o‘qidi.

*Qaratqich kelishigi* —kimning? nimaning? qayerning? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Qaratqich kelishigini olgan so‘z gapda qaratqich aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan: *Karimming*<sub>belgili</sub> ukasi bor. *Olma*<sub>belgisiz</sub> vargi to‘kildi.

Qaratqich kelishigidagi so‘z qaratqich, u bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deyiladi. Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelantirib bog‘laydi va qaralmishdagi narsa-hodisa belgi- xususiyat, harakat-holatning qarashlilagini bildiradi. Masalan:

*Maktabimiz*<sub>qaratqich bog‘ qaralmish</sub>

Qaratqich kelishigi o‘zidan keyin ot va otlashgan so‘zlarni bog‘laydi. U belgili va belgisiz shaklga ega. Belgisiz shakli turdosh otlarda uchraydi: *maktab bog‘i*, bahor yomg‘iri. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida

so‘z ishtirok etganida u belgili shaklda qo‘llaniladi: *maktabimizning katta bog‘i, vahorning yoqimli yomg‘iri*.

Atoqli otlar, olmoshlar, sifatdoshlarda qaratqich kelishigi doim belgili qo‘llaniladi. Masalan: *Karimning ukasi, uning fikri, hammaning joyi*.

Qaratqich kelishigining belgili shakli *ning* va *n* (poetik) shakllarga ega: *Erkalanib yotadi onasin quchog‘ida. Saidanining hujrasida yig‘ilishdi*.

Qaratqich kelishigi egalik qo‘shimchasini olgan so‘z bilan qo‘llansa qarashlilik ma’nosini ifodalaydi.

**Tushum kelishigi** kimni? nimani? qayerni? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Tushum kelishigidagi so‘z doim o‘timli fe‘llarga bog‘lanadi. Bu so‘z gapda doim *vositasiz to ‘ldiruvchi* bo‘lib keladi: *Bu she‘rlarni hayajon bilan o‘qiyimiz*.

Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l yonma-yon kelganda tushum kelishigi belgisiz qo‘llaniladi. Masalan: *Kitob o‘qidi, suv ichdi*. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe‘l orasida biror so‘z qo‘llanilsa, tushum kelishigi faqat belgili shaklda qo‘llaniladi: *Kitobni miriqib o‘qidi, suvni qonib ichdi*. Tushum kelishigining belgisiz shakli ko‘pincha turdosh otlarga narsa otlariga xosdir: *gul terdi, xat yozdi, rasm chizdi*.

Atoqli otlarga, shaxs otlari, olmoshlar, otlashgan so‘zlar faqat belgili shaklda qo‘llaniladi: *Karimni ko‘rdi, xammani chaqirdi, qo‘rganini aytdi, yaxshini maqtang*.

**Jo‘nalish kelishigi** kimga? nimaga? qayerga? so‘roqlariga javob bo‘lib, gapda quyidagi vazifalarda qo‘llaniladi:

- shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, kimga? nimaga? qayerga? so‘roqlariga javob bo‘ladi, gapda *vositali to ‘ldiruvchi* bo‘lib keladi: *Yurakka buyūrib bo‘lmaydi. Do ‘stimga xat yozdim*.

- o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘lib keladi, gapda o‘rin holi vazifasida keladi: *Qishloqqa qaytdi*.

- payt otlariga qo‘shilib. qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasida keladi. *Ertaga qayting. Tongga yaqin boramiz*.

**Jo‘nalish kelishigidaga** so‘zdan keyin *sifat* va *fe‘llar* qo‘llaniladi: *yurishga qulay, doskaga yozmoq, ovqatga pazanda*.

**O‘rin-payt kelishigi** kimda? nimada? qayerda? qachon? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

- shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, kimda? nimada? so‘roqlariga javob bo‘ladi, gapda *to ‘ldiruvchi* vazifasida keladi: *telefonda gaplashmoq, do ‘stida ko‘rmoq*.

- o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘lib keladi, gapda o‘rin holi vazifasida keladi: *Qishloqda yashaydi*.

- payt otlariga qo‘shilib, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, gapda payt holi vazifasida keladi. *Tongda aytdi hayot otini*.

**Chiqish kelishigi** kimdan? nimadan? qayerdan? qachon? nima uchun? nima sababdan? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

*Nondan olmoq*<sub>nimadan?</sub>

*Qo‘rghanidan yig‘lamoq*<sub>nima uchun?</sub>

*Ertalabdan chaqirmoq*<sub>qachon?</sub>

*Do‘sitan olmoq*<sub>kimdan?</sub>

- shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, kimdan? nimadan? so‘roqlariga javob bo‘ladi, gapda *to‘ldiruvchi* vazifasida keladi: *do‘sitan so‘ramoq, uzumdan olmoq*.

- o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerdan? so‘rog‘iga javob bo‘lib keladi, gapda o‘rin holi vazifasida keladi: *shahardan qaytmoq*.

- payt otlariga qo‘shilib, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, gapda payt holi vazifasida keladi. *Mashg‘ulotlar tushdan boshlanadi*.

- otlashgan sifatdoshlarga qo‘shilib, *nima uchun* so‘rog‘iga javob bo‘ladi, gapda sabab holi vazifasida keladi: *Hammagini unutganidan rostini aytib qo‘ya qoldi*.

Ba’zan tushum kelishigi o‘rnida chiqish kelishigidagi so‘z ishlatalishi mumkin. Bunda tushum kelishigidagi so‘z butunni, chiqish kelishigidagi so‘z qismni anglatadi: *uvnidan iching, uzumnidan yeng*.

Jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari ko‘makchilar bilan grammatick ma‘nodoshlik xosil qiladi: *O‘qish sizga(uchun) kerak, maktabga(tomon) bormoq*.

**Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar.** Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ism orqali ifodalangan kesimlar shaxs sonni bildiruvchi - *man, - san, - dir* qo‘shimchalari, *emas, ekan, emish, bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblamoq* bog‘lamalari vositasida ega bilan moslashadi. Demak, -*man, -san, -dir* qo‘shimchalari, *emas, ekan, emish, bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq* bog‘lamalari ismlarni kesimga xoslovchi shakkardir. Masalan: *Men o‘qituvchiman. Siz ulug‘ odam bo‘lasiz. Men Brach bo‘laman. Siz dushmansiz. U boy edi*.

Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida *darkor, kerak, lozim, shart*. so‘zlari bo‘lganda kesimni ega bilan moslashtiruvchi qo‘shimchalar harakat nomiga qo‘shiladi: *Men borishim kerak. Bolalar tez qaytishi shart*.

## SIFAT SO'Z TURKUMI

Otga bog'lanib uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi. Masalan: *go'zal, baland, xushbo'y, kemtik*. Sifat gapda asosan sifatlovchi-aniqlovchi, kesim vazifasida keladi: *Yonbag'irlar ko'm-ko'k. baqqol amaki pakana, yuzi katta iyagi kalta odam. U juda sergap.*

Sifatlar tuzilishiga ko'ra: *sodda sifatlar, qo'shma sifatlar, juft sifatlar, takroriy sifatlarga* bo'linadi.

**Sodda sifatlar** tarkibiga ko'ra tub va yasama bo'ladi. Tarkibiy qismlarga bo'linmaydigan sifatlar tub sifatlar sanaladi. (Shakl yasalish qismi bundan mustasno). Masalan: *qari, goramtir, eskiroq, sariq*.

Asos va yasovchi qismga bo'linadigan sifatlar esa yasama sifatlar deyiladi. Yasama sifatlar asosga qo'shimcha qo'shish yoki so'z qo'shish orqali hosil bo'ladi: *guldor, sezgir, turkiy, xushsurat, kechki, sofdil, toshbag'ir*.

**Qo'shma sifatlar** ikki va undan ortiq asoslardan tarkib topgan sifatlardir. Qo'shma sifatlar, asosan, qo'shib yoziladi. Qo'shma sifatlar tarkibi quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi: *jigarrang, bodomqovoq, toshyurak ot + otdan; sofdil, shirinso'z - sifat + otdan; osmono'par, mehnatsevar - ot + fe'ldan*.

**Juft sifatlar** o'zaro yaqin ma'noli yoki zid ma'noli ikki asosning juftlashishidan xosil bo'ladi. Masalan: *katta-kichik, oq-qora, yaxshi-yomon - zid ma'noli qismlardan, uzuq-yuluq, esli-xushli* yaqin ma'noli qismlardan tarkib topgan. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Qismlar orasida -u, -yu yuklama-bog'lovchilari bo'lsa, ular o'rtasida chiziqcha qo'yiladi va ajratib yoziladi: *yakka-yu yagona*.

**Takroriy sifatlar** bir asosning takrorlanishidan hosil bo'ladi va ular belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi: *yangi-yangi, elas-elas, mayda-mayda, barra-barra*.

## ASLIY VA NISBIY SIFATLAR

Belgini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi: *go'zal, suvli, achchiq, aqlli, yuzaki*.

Asliy sifatlar tuzilishiga ko'ra:

- sodda tub sifatlar: *yaxshi, qiziq, egri, novcha, ozoda*;
- sodda yasama sifatlar: *tiniq, chiroyli, yulg'ich, bama'ni, yasama*.

• qo'shma sifatlar bo'la oladi: shirinso'z, xushbo'y, kaltafahm, ochko'z.

Nisbiy sifatlar belgini to'g'ridan-to'g'ri emas, valki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lman sifatlardir: *yozgi, yig'ma, derazali, devoriy, g'ishtin*.

Nisbiy sifatlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

- sodda yasama: do'ppili, serg'alva, tonggi, chillaki, ro'molli;
- just sifat: egri bugri, sarg'ish-qo'ng'ir, mayda-chuyda, valand-past, qora-qura.

## SIFAT DARAJALARI

Belgining ortiq yoki kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajalari, shu ma'noni ifodalovchi shakllar esa daoaja shakllari deyiladi. Sifat darajalari to'rt xil:

1. Oddiy daraja. 2. Qiyosiy daraja. 3. Orttirma daraja. 4. Ozaytirma daraja.

**Oddiy daraja** — belgining odatdagи me'yorini bildirib, boshqa sifat darajalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Oddiy daraja maxsus ko'rsatkichga ega emas: yaxshi, qiziq, ulkan, chirolyi, yomon, oq, qora, zerikarli.

**Orttirma daraja** — belgining me'yordan ortiq ekanligini bildirgan sifat shakli bo'lib, quyidagi usullar bilan yasaladi.

- sintaktik usul: oddiy darajadagi sifat oldidan *juda, g'oyatda, nihoyatda, eng, jiqa, xo'l, g'irt, o'lguday, tim* kabi so'zlarni keltirish orqali yasaladi: *juda ayyor, jiqa ho'l, o'lguday zigna, eng katta, g'oyatda chirolyi, g'irt yolg'on*;

- fonetik usul: sifatning birinchi bo'g'inini tovush o'zgarishi orqali takrorlab qo'llash orqali yasaladi: *kap-katta, qip-qizil, sap-sariq, ko'mko'k, bab-baravar*.

**Qiyosiy daraja** — belgining me'yordan biroz kamligini qiyoslab ko'rsatuvchi daraja bo'lib, sifat asosiga *-roq* qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi: *Dunyoda joxillikdan dahshatliroq narsa yo'q. Oqshommi go'zalroq, tongmi?! Insonning aqli mushtidan ko'ra kuchliroqdir.*

**Ozaytirma daraja** — belgining me'yordan kam ekanligini bildiruvchi sifat shaklidir. U quyidagi usullar bilan yasaladi:

- sintaktik usul: oddiy darajadagi sifat oldidan *sal, picha, biroz, xiyol, hiyla, nim, biroz* so'zlarini keltirish orqali: *sal shirin, biroz yaxshi, xiyol durust*.

- morfologik usul: rang, tus bildiruvchi ayrim sifatlarga -(i)sh, -(i)mtir qo'shimchalarini qo'shish orqali: ko'kimtir, sarg'imtir, qizg'ish, ko'kish...

## SIFATLARNING MA'NO TURLARI

Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra ma'no turlariga bo'linadi.

1. Xususiyat sifatlari. Narsalarning turli xususiyat, holatlarini, kishilarning xarakter xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar *xususiyat sifatlari* deyiladi: *suyuq, quyuq, toza, xafa, ochiq, yopiq, xursand, qattiqqo'l, shirinso'z, xushmuomala, qattiq, yumshoq, g'amxo'r*.

2. Rang tus sifatlari. Predmetlarning rangi, tusini bildiruvchi sifatlardir: ola-bula, jigarrang, oq, qizil, ko'k, sariq, havorang.

3. Maza ta'm sifatlari. Narsalarning maza-ta'mini bildirgan sifatlardir: *shirin, achchiq, nordon, sho'r, mazali, bemaza*.

4. Hajm o'lchov sifatlari. Narsalarning vazni, o'lchovi, hajmi va shaklini bildiradigan sifatlardir: *katta, kichik, dumaloq, og'ir, yengil, yassi, keng, tor, uzun*.

5. Hid sifatlari: *xushbo'y, qo'lansa, badbo'y*.

6. Makon-zamon sifatlari. Narsalarning o'rin va vaqtga nisbatan belgilarni bildiruvchi sifatlardir. Ular -gi, -ki, -qi qo'shimchalari orqali yasaladi: *bulturgi, yozgi, kuzgi, qishki, qadimgi*.

## SIFATLARNING OTLASHUVI

Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi va otning so'rog'i, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalari, gapdag'i vazifasi sifatga yuklanadi va sifat otlashadi: *Yaxshiga yondash yomondan qoch*. Baxilning qo'lida oy bo'lsa, osmon yorishmas. Achchiqni achchiq kesadi.

Ba'zi sifatlar shaxs otlari sifatida ot turkumiga ko'chishi mumkin: *erkak, ayol, go'dak, yosh, chol, kampir, kasal, bemor*.

## SON

Predmetning son-san'og'ini, miqdorini bildirib, qancha? nechta? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar son deyiladi: *uchta bola, yigirma besh nafar talaba*.

Son gapda asosan otga bog'lanadi. Son o'zidan oldin belgi bildiruvchi so'z (aniqlovchi) bilan qo'llana olmaydi. Sonning gapdag'i asosiy vazifasi

aniqlovchi va kesimdir: *Men beshinchi uyda yashayman. O'nta kitob keltirdik* – aniqlovchi; *Kelgan odamlar ikkita. Guruhimizda talabalär o'ttizta* – kesim.

Sonlar otlashish xususiyatiga ega: *Birni kessang, o'nni ek.* Sonlar otlashganda yoki mavhum miqdorni anglatganda turlovchi qo'shimchalar bilan qo'llanadi: *Ikkini ikkiga qo'shsa to'rt bo'ladi.* *Birni birov beradi, ko'pni mehnat.*

**Sonlarning ma'no turlari.** Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning miqdori yoki tartibini bildiradi. Shunga ko'ra sonlar ikki guruhga: miqdor sonlar va tartib sonlarga bo'linadi.

**Tartib** sonlar narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlardir, ular - (*inchi*) qo'shimchasi bilan yasaladi: *yigirmanchi yanvar, o'ninchuy, beshinchi eshik.* Tartib sonlar miqdor ifodalamaydi, narsalarning joylashish tartibini bildiradi. O'lchov ma'noli –*inchi* qo'shimchasi yordamida yasalgan sonlar tartib son sanalmaydi: *Xonada yuzinchi chiroq yonib turibdi.* *Oyog'imga o'ttiz sakkizinchi, enimga qirq sakkizinchi kyamana.*

**Miqdor** sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra **sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr** sonlarga bo'linadi.

1. **Sanoq son** son-sanoqni bildiruvchi sonlardir. Sanoq sonlar yozuvda ko'pincha arab raqami bilan yoziladi. Masalan: *Bolalar davrani ikki aylandi. Yetti o'lchab bir kes.*

2. **Dona son** – miqdorni donalab ifodalaydigan sonlardir. Ular –ta qo'shimchasi bilan yasaladi: *10 nafar o'qituvchi, 20 bosh qoramol, 100 tup ko'chat, 10 ta bola.*

Donalab sanalayotgan narsalarning turini ta'kidlash uchun –ta qo'shimchasi o'rnila bosh (hayBonlar), nafar (shaxslar), tup (o'simlik), litr(suyuqliklar), gramm (og'irlik) kabi so'zlar ham ishlataladi. Masalan: *ikki tup tok, besh nafar o'quvchi, uch litr sut, uch tonna bug'doy.*

3. **Chama son** – narsalarning miqdorini taxminlab, chamarlab ko'rsatadigan sonlardir. Ular taxminiy miqdorni bildiradi va sonlarga –*tacha, larcha, lab* qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: o'nlab, yuzlab, minglab; o'nlaracha, yuzlarcha, minglarcha. –*larcha, -lab* qo'shimchalari yordamida ba'zi sonlardan - o'nlik, yuzlik, minglik kabi sonlardan chama sonlar hosil qilinadi.

Bundan tashqari juft sonlar orqali ham chama son yasaladi: *ikki-uch kun, besh-oltita bola, o'n besh-yigirma bog' beda.*

**4. Jamlovchi son** — narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlardir. Ular ikkidan o'ngacha bo'lgan sonlarga *—ov, ala, ovlon* qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: *uchov, to'rtov, beshov, oltov, beshala, uchala, ikkalasi, ikkovlon, oltovlon*.

Jamlovchi sonlar ot xarakteridagi son xisoblanadi Ular gapda otlar kabi qo'llanadi, otga xos egalik, kelishik qo'shimchalarini oladi: *Beshovi keldi. To'rtalasiga berildi.*

**5. Taqsim son** - narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlardir. Ular *—tadan* qo'shimchasi yordamida yasaladi: *ikkitadan, beshtadan, o'ntadan*. Bundan tashqari dona sonlarni takrorlash orqali ham taqsim son hosil bo'ladi: *ikkita-ikkita o'tirishibdi; o'nta-o'ntadan kitob berildi.*

Nutqda taqsim sonlarni dona sonlardan farqlash lozim: *O'quvchilarning har uchtadan bittasi o'quv yilini a'loga yakunladi.* Bu gapla taqsimlash ma'nosi ifodalanmagan.

**6. Butun son** — butun miqdorni ifodalovchi sonlardir: *bir, yuz, o'n besh, yigirma olti.*

**7. Kasr son** — butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlardir: *ikkidan bir, o'ndan sakkiz, to'qqizdan bir, shuningdek, yarim, chorak, nimchorak.*

## BIR SO'ZI HAQIDA

Bir so'zi sondan tashqari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- noaniqlik ma'nosini: *Bir kishi keldi.*
- takror holda qo'llanilib, ayiruv bog'lovchisi bo'lib keladi: *Bir unga bir menga qaraydi.*
- ayiruv, chegarolov yuklamasi vazifasida keladi: *Majlisga bir Karim kelmadi.*
- fe'llar oldida kelib, ma'noni kuchaytiradi: *Bir urgan edi, yiqilib tushdim. Bir vaqirib berdi.*
- takroriy shaklda qo'llanib, ravishga ko'chadi: *Yig'ilganlarga bir-bir qaradi.*
- *birga, birdan, birdaniga* — so'zlari ravish sanaladi.
- *birov* — so'zi gumon olmoshi sanaladi: *Dada, sizni birov kutyapti.*
- o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi: *Ikkalasinining fikri bir.*

## HISOB SO‘ZLARI

Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so‘z o‘rtasida qo‘llanib, bu narsaning o‘lchovini bildiradigan so‘zlar hisob so‘zlarini sanaladi. Ular son va ot orasida qo‘llanilib, turli o‘lchov ma’nolarini ifodalaydigan so‘zlardir: *bir hovuch suv, ikki qop un, yuz gramm shakar, o‘n chelak suv, besh metr atlas, uch yashik olma, bir savat non.* Hisob so‘zlarini quyidagi ma’nolarni bildiradi:

- uzunlikni bildiruvchi hisob so‘zları: *ikki qarich mato, to‘rt odim yo‘l, o‘n chaqirim joy, ikki quloch devor, bir metr chit.*
- og‘irlilikni bildiruvchi hisob so‘zları: *ikki gramm suv, uch tonna bug‘doy.*
- hajmni bildiruvchi hisob so‘zları: *metr, hektar, tonna, tsentner*
- donalab sanalmaydigan o‘lchovni bildiruvchi hisob so‘zları: *ikki chelak suv, bir etak paxta*
- butunning qismini bildiruvchi hisob so‘zları: *bir shingil uzum, ikki tishlam non, bir tilim qovun, ikki ho‘plam suv.*
- donalikni bildiruvchi hisob so‘zları: *ikki bosh qoramol, o‘n tup archa, besh nafar o‘qituvchi.*
- vaqtini bildiruvchi hisob so‘zları: *daqiqa, yil, oy, kun, soniya, soat*  
Hisob so‘zları asosan ot so‘z turkumiga tegishli bo‘лади.

## OLMOSH

So‘z , so‘z birikmasi va gap o‘rnida almashib qo‘llanuvchi va ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmoshlar deyiladi. *Kitobni seBing u sizni to‘g‘ri yo‘lga boshlayli;* bu gapda ko‘rsatish olmoshi so‘z o‘rnida almashib qo‘llangan. *O‘gan yili ikki marta sovrin oldim bu yil ham shuncha olmoqchiman;* bu gap tarkibida belgilash olmoshi *shuncha,* so‘z birikmasi o‘rnida almashib qo‘llangan. *Mening istagim shuki, hamma orzusiga erishsin;* bu gapda *shuki* – ko‘rsatish olmoshi gap o‘rnida qo‘llanib kelgan. Olmoshlar aniq atash ma’nosini bildirmaydi, ularga ishora qiladi va o‘ziga xos shakl yasalish xususiyatga ega emas. Olmoshlar fe’ldan boshqa so‘zlar o‘rnida almashib qo‘llanadi.

- ot o‘rnida – kishilik olmoshlari

Birlik	Ko‘plik
Men	Biz
Sen	Siz
U	Ular

- sifat o‘rnida — *bu, shu, u, o’sha, mana, mana shu, mana bu, qanday, qaysi, hech qanday hech qaysi*
- son o‘rnida - *necha, nechanchi, har qancha, xech qancha, allaqancha*
- ravish o‘rnida: *qalay, nega, qayer, qani, hech qayer, hech qachon*

## OLMOSHLARNING MA’NO TURLARI

**Ko‘rsatish olmoshlari-** *bu, shu, o’sha, mana, ana, mana bu, mana shu, manavi, anavi.* So‘z, so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llanilib, unga ishora qiluvchi yoki biror so‘zni aniqlab keluvchi olmoshlari ko‘rsatish olmoshlari deyiladi. Gapda ko‘rsatish olmoshlari sifat kabi qo‘llanadi: *Bu bolashi taniyman. O’sha voqeani hanuz eslaydi.*

Ko‘rsatish olmoshlari otlashish xususiyatiga ega: *Anavini olib keting. Shuni bering.*

**Egalik, kelishik, -day, -dek, -aqa, -cha** qo‘srimchalari qo‘shilganda qo‘rsatish olmoshlarida tovush ortishi yuz beradi: *shunaqa, unday, shuncha, buncha, unisi, buningiz, shunga, undan, bunda.*

**Kishilik olmoshlari-** *men, biz, sen, siz, u, ular* uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlardir. Gapda ular otlarni almashtirib keladi lekin egalik qo‘srimchalarini olmaydi chunki ularning o‘zi gapda uch shaxsdan birini bildirib keladi. Otlar kabi birlik va ko‘plikda qo‘llaniladi, kelishik qo‘srimchalarini oladi. Ba’zan biz, siz, ular ko‘plik olmoshlari birlikni bildiradi bunda hurmat, o‘zini ta’kidlamaslik ma’nolari anglashiladi. Aksincha ikkinchi shaxs birlikdagi olmoshga ko‘plik qo‘srimchasi —lar qo‘shilganda, kamsitish hurnatsizlik ma’nolari anglashiladi. *U, ular* olmoshlari ham kishilik, ham ko‘rsatish olmoshi vazifasida qo‘llaniladi.

*Karim* keldi u kechgacha o‘tirdi — kishilik olmoshi shaxsga ishora qilib kelmoqda.

*U* kishi menga notanish — ko‘rsatish olmoshi aniqlab kelmoqda.

**O‘zlik olmoshlari-** o‘zim, o‘zing, o‘zi, o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlarini kishilik olmoshlari o‘rnida almashib qo‘llanuvchi shaxsni yoki predmetni ko‘rsatuvchi o‘z so‘zidir. O‘zlik olmoshlari nimani almashtirib kelishiga ko‘ra predmet o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar va shaxslar o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar farqlanadi:

O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil — shaxs o‘rnida qo‘llangan

O‘zi bukir, tishi o‘tkir — predmet o‘rnida qo‘llangan.

Birlik	Ko'plik
O'zim - Men	O'zimiz - Biz
O'zing - Sen	O'zingiz - Siz
O'zi - U	O'zlari - Ular

O'zlik olmoshi doim egalik olmoshi bilan birga qo'llanadi. Predmet yoki shaxslarni yakkalab ko'rsatadi. Gapda qaratqichli birikma hosil qiladi. O'zlik olmoshi ko'pincha sifat va ravishga ko'chadi: o'zicha, o'zga, o'z-o'zidan, o'zidan-o'zi, o'zi.

**Belgilash olmoshlari-** hamma, barcha, vari, yalpi, jami, butun – shaxs, narsa, belgi, harakat-holatlarni jamlab ifodalaydi har bir, har nima, har narsa, har qanday, har qaysi to'pdan ajratilgan shaxs, narsa belgilarini bildiradi. To'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatuvchi shaxs, narsa, xarakat holatlarni, *har so'zi so'roq olmoshlariga bir so'ziga* qo'shilib to'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarini bildirgan so'zlar belgilash olmoshlaridir.

**Gumon olmoshlari-** so'roq olmoshlariga va narsa so'ziga *-alla, -dir* qo'shimchalarini qo'shish bilan gumon olmoshlar hoslil qilinadi.

Kimdir, nimadir, allakim, allaqaysi, allaqancha, allanima. Qachon, qayer so'ziga bu qo'shimchalar qo'shilsa ravish so'zi yasaladi: allaqayerda yuribdi, allaqachon keldi.

-alla qo'shimchasi o'rinn-payt ma'noli so'zlarga qo'shilsa ravish yasaladi: allamahal, allajoy, allavaqt.

Gumon olmoshlar mavjud lekin so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan predmetlarga ishora qiladi. Bir so'zi kishi, narsa, nima so'zlariga qo'shilib gumon ma'nosini yuklaydi. Unda bir so'zi gumon olmoshi sanaladi.

Bir kishi (kimdir), bir nima (allanima), birov (kimdir).

**So'roq olmoshlari-** shaxs, narsa, hodisa, belgi - xususiyat, miqdor, sabab-maqsad, o'rinn-payt xaqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar so'roq olmoshlar deyiladi. Ba'zan so'roqlar almashib qo'llanilishi mumkin.

Shaxs so'rog'i – kim?

Narsa so'rog'i – nima ?

Belgi-xususiyat so'rog'i—qanday?, qanaqa?, qaysi?

Miqdor so'rog'i – qancha?, necha?, nechanchi?, nechta?

Sabab-maqsad so'rog'i – nega?, nima uchun?, nimaga?, nima sababdan?, qalay? Nimaga?

O'rinn-joy so'rog'i—qayer?,

Payt so'rog'i—qachon?

Bo'lishsizlik olmoshlari- hech kim, hech nima, hech narsa, hech bir, hech qachon, hech qaysi, hech qancha. Bo'lishsizlik olmoshlari mavjud bo'limgan predmetlarni ifodalaydi. Hech so'zi fe'l yoki otlar oldida qo'llanilib inkor ma'nosini ifodalaydi. Hech so'zi olmosh sanalmaydi.

Hech inson bunday o'ylamaydi.

Hech so'zi o'rinn-payt ma'noli so'zlar bilan qo'llanilib qo'shma ravishlarni hosil qiladi. Hech vaqt, hech zamon, hech qayer, hech joy. Bo'lishsizlik olmoshlari har doim qo'shma olmoshlar sanaladi. Ajratib yoziladi. Gaplarning kesimi inkor shaklida bo'ladi. Olmosh o'mida qo'llanuvchi so'zlar men-kamina, vanda, faqir, qulingiz so'zları qo'llaniladi va ular ham shu o'rinda olmosh sanaladi. bunda ular birinchi shaxs o'mida qo'llansa ham gapda, uchinchi shaxs shaklida qo'llaniladi.

Olmoshlar tuzilishiga qo'ra:

-sodda olmoshlar : kishilik olmoshlari va allakim...

-qo'shma olmoshlar: har kim, har bir, hech kim (ko'rsatish, belgilash bo'lishsizlik va gumon olmoshlari)

-juft olmoshlar: u-bu, ana-mana, sen-men...

-takroriy olmoshlar: necha-necha, o'sha-o'sha, nima-nima, qaysi-qaysi, uncha-muncha.

## FE'L

Ish-harakat va holatni atab kelgan so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'llar nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'ladi: *o'qimoq, ishlarimoq, qasal bo'lmoq, xafa bo'lmoq, yugurmoq, sakramoq, qochmoq, bekinmoq*.

Fe'llardan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Shu shuxs yoki narsa ish harakatning bajaruvchisi sanaladi. Masalan: *barglar to'kildi. Bola yugurdi. Qo'zichoq ma'radi*.

Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. Harakat fe'llari; 2. Holat fe'llari.

Harakat fe'llari predmet - shaxslarning jismoniy faoliyati natijasida ro'y bergan harakatni bildiruvchi fe'llardir: *yugurmoq, tarqalmoq, egilmoq, supurmoq, almashmoq*.

Shaxslarning ichki kechimnalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar holat fe'llari sanaladi: *jimirlamoq, unmoq, fikrlamoq, qotmoq, sarg'aymoq, ikkilamoq, xursand bo'lmoq, eskirmoq*.

## O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLAR

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarni o'ziga biriktira oladigan fe'llardir: *mashqni ishlamoq, kitobni olmoq; his qilmoq, tozalamoq, kiymoq, so'ramoq.*

O'timsiz fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarni biriktira olmaydigan fe'llardir:

*qaramoq, chiqmoq, turmoq, joylashmoq, quvonmoq, tegmoq.*

Fe'llar quyidagi lug'aviy shakllarga ega:

1. Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli;

2. Nisbat shakli;

3. Vazifa shakli.

Fe'llarning sintaktik munosabat shakllari:

- zamon shakli;

- mayl shakli;

- shaxs-son shakli.

## BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR

Bo'lishli fe'llar ish-harakatning 3 zamondan birida bajarilganligini bildiradi:

*berdi, boradi, kelayotir, o'qiydi.* Bo'lishli shakl maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas.

Bo'lishsiz fe'llar ish-harakatning yuzaga kelmasligini ifodalaydi. Ular quyidagicha hosil bo'ladi.

- *ma* qo'shimchasi yordamida: *o'qimadi, yozmadi, chizmayapti, bormaydi, kelmagan, ko'rinnmayotir.*

- *ko'makchi* fe'lli so'z qo'shilmalarida esa o'mni bilan yetakchi fe'lga yoki *ko'makchi* fe'lga qo'shiladi: *sezmay qoldi, ko'rmay qoldi, bilmay qoldi bora olmadi, ko'ra bilmadi, bila olmadi, o'qib ko'rmadi.* Agarda har ikkala fe'lga —*ma* qo'shimchasi varavar qo'shilsa bo'lishlilik ifodalanadi: *ko'rmay ketmaydi* (albatta *ko'radi*), *bilmay qo'ymaydi* (*bilib* oladi), *o'qimay qo'ymaydi* (*albatta o'qiydi*).

- *uyushiq holdagi* fe'llarda ular oldidan —*na* inkor yuklamasini takror qo'llash orqali: *Na o'qidi, na yozdi. Na beradi, na ko'rsatadi.*

- *yo'q* so'zi yordamida: *borgani yo'q, ko'rgani yo'q, eshitgani yo'q, kelgani yo'q, oglani yo'q.*

- *emas to'liqsiz* fe'li yordamida: *borgan emas, ko'rgan emas, eshitgan emas, kelgan emas.*

- ba'zan grammatic ko'rsatkichsiz, nutqiy qo'llash orqali ham bo'lishsizlik ma'nosi ifodalanadi: *Ketib bo'psan. Gapirodi-ya, gapirodi.*

## FE'L NISBATLARI

Bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Masalan: *kiydi fe'lida* harakatni bajaruvchi shaxs aniq, *kiyildi fe'lida esa noaniq*, *kiyishdi fe'lida* birdan ortiq, *kiydirdi fe'lida* bajaruvchi boshqa shaxs vositasida ish-harakatni bajarishi ifodalangan. Fe'l nisbatlari ish-harakat, uning bajaruvchisi va unga vosita bo'lgan predmet o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Nisbat shakllari fe'lning asos qismidan keyin qo'shiladi. Fe'l Sta nisbat shakliga ega: aniq nisbat, o'zlik nisbati, orttirma nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbati.

**Aniq nisbat** - (nol shakl) ish-harakat **bajaruvchisi** aniq bo'ladi: *Karim baliq tutdi. Sohiba kitob o'qidi. Dehqon yerni haydadi. Navbatchi gulga suv quydi.*

**O'zlik nisbati** - bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatini ifodalaydigan fe'l shaklidir. Bu shakl fe'l asosga (i)n, (i)l qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bunda ish-harakat va uni bijaruvchi o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. *Ra'no tarandi. Qiz egildi. Gul ochildi. Oy ko'rindi, U kerishdi.*

Ba'zi fe'llardan o'zlik nisbati shaklini hosil qilib bo'lmaydi: *chopdi, yayradi, chiqdi, keldi.*

**Majhul nisbat** – fe'l asosga (i)n, (i)l qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Bunda ish-harakat kim tomonidan bajarilaganligi noma'lum bo'ladi. vosita bo'luvhi predmet ega vazifasida keladi: *Qiz sochini taradi. - Soch taraldi. Yer haydaldi. suv sepildi. Nutq so'zlandi. Sovrin berildi.*

O'zlik va majhullik nisbatlari o'timli fe'llarni o'timsiz fe'llarga o'giradi: *ko'rdi-ko'rindi, haydadi-haydaldi.*

**Orttirma nisbat** - dir (tir), -t, -sat, -gaz (-kaz, -qaz), -ir, -ar, -iz qo'shimchalari bilan yasaladi. Ish-harakat bajaruvchisi boshqa bir sub'ekt ta'sirida ish-harakatni bajaradi: *Topshiriqni bajartirdi. O'qituvchi o'quvchilarga mashqni ishlatdi. Ko'rsat, oldir, o'tkaz, oqiz, tomiz, oshir, chiqar.*

Orttirma nisbatning -t qo'shimchasi unli tovush bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: to'qit, qarat, o'qit, bo'shat.

-ir, -ar, -iz qo'shimchalari undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: shoshir, chiqar, toshir, oqiz, tomiz.

-giz, g'iz qo'shimchalari jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslarga, -kiz, -qiz qo'shimchalari esa jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslarga qo'shiladi: *yutqiz*, *ketkiz*, *yurgiz*, *turg'iz*.

Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi bordan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin: *o'qittirmoq*, *oqizadirmoq*, *tushirtirmoq*.

**Birgalik nisbat** — ish-harakatning bir necha bajaruvchi tomonidan bajarilganligini bildiradi: *borishdi*, *o'qishdi*. Birgalik nisbat shakli unli bilan fe'l asosga —sh, undosh bilan tugagan fe'l asosga —ish qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *borishdi*, *ishlashdi*. *Bordilar*, *keldilar* shakli ko'plik shaklidagi aniq nisbatdagi fe'l sanaladi.

Ba'zan bir necha nisbat qo'shimchalari fe'l asosiga bordaniga qo'shiladi: *yuvintirishdi*. Bunday holda fe'l nisbati oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi.

## FE'LLARNING VAZIFA SHAKLLARI

Fe'lllar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, turli gap bo'laklari vazifasida keladi. Buning uchun fe'l turli shakllarga ega bo'ladi. Turli gap bo'laklari vazifasida kelish uchun xoslangan fe'l shakllari fe'lning vazifa shakllari sanaladi.

Fe'llarning to'rtta vazifa shakli mavjud: 1) sof fe'l shakli; 2) harakat nomi shakli; 3) sifatdosh shakli; 4) ravishdosh shakli.

**Sof fe'l shakli** fe'lning kesim vazifasida kelishiga xoslovchi shaklidir: o'qidi, bordi. Tuslanuvchi fe'l shakllari sof fe'l shakli deyiladi.

**Harakat nomi** fe'lning otga xoslangan shaklidir. Bu shakl fe'l asoslariga -i(sh), -u(B), -moq, -mak qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi: *yozmoq*, *ko'rish*, *biluv*, *kelmak*.

Harakat nomi unli bilan tugagan fe'llarga —sh, -v qo'shimchalarini, undosh bilan tugagan fe'llarga —ish, -uv, -moq, -mak qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi: *yashash*, *bilmoq*, *kelish*, *aytuv*.

*a* yoki *i* unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga —v qo'shimchasi qo'shilganda *a* unlisi *o* ga, *i* unlisi *u* ga aylanadi va shunday yoziladi: *ishlov*, *tanuv*, *tanlov*. Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi.

**Sifatdosh** — fe'lning sifatga xoslangan xoslangan shakli bo'lib, predmetning belgisini bildiruvchi ish-harakatni ifodalaydi: *o'qigan bola*, *aytilgan gap*.

Sifatdosh shaxs va narsalarning belgisini bildirishi bilan sifatga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, varqaror belgisini ifodalasa,

sifatdoshlar o'zgaruvchan, harakat belgisini ifodalaydi. Qiyoq qiling: *shirin so'z, aytilgan so'z; yoqimli ovoz, eshitilayotgan ovoz*.

Sifatdosh quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi.

-*gan* - qo'shimchali shakl o'tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *kelgan odam*

-*(a)yetgan* - hozirgi zamon sifatdoshini hosil qiladi: *gapiroayotgan odam*

-*(a)digan* - kelasi zamon sifatdoshini hosil qiladi: *o'qiydigan bola, keladigan odam*.

Bundan tashqari -*ar*, -*mas*, -*uvchi*, -*ajak* qo'shimchalari bilan ham sifatdosh yasaladi: *aytar so'z, qaytmas so'z, qilinajak ishlar, keluvchi bola*.

O'quvchi, yozuvchi, tinglovchi, o'qituvchi kabi so'zlar otga ko'chib bo'lib, u shaxsning doimiy kasb faoliyatini ifodalaydi.

Sifatdrsh fe'l xos bo'lishli va bo'lishsizlilik, nisbat, zamon, o'timli va o'timsizlik shakllariga ega bo'la oladi: *keltirilgan sovg'a, chirsillayotgan olov, bajarilmagan topshiriq*.

**Ravishdosh** – fe'lning ravishga xoslangan shakli bo'lib, ish-harakatning belgisi bo'lgan xolatni ifodalaydi: *shoshib yurmoq, zavqlanib kulmoq, yura-yura charchamoq*. Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi. Qiyoq qiling: *yig'lab gapirmoq – sekin gapirmoq; shoshmasdan bajarmoq – tez bajarmoq*.

Quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi.

-*(i)b, -a, -y, -may, -masdan (-mayin)* qo'shimchalari holat ravishdoshlari sanaladi: *qo'rqib gapirmoq, toma-toma to'lmòq, o'qiy-o'qiy charchamoq, shoshmasdan gapirmoq, ko'rmay ketmoq, ko'rmayin izlamoq, to'yib-to'yib yig'lamoq*.

-*(i)b, -a, (-y)* shakli ba'zan payt (*U gulni hidlab, chakkasiga qistirib qo'ydi*); sabab (*yig'lay-yig'lay charchamoq*) kabi ma'nolarni ham ifodalaydi.

-*gach (kach, qach), -guncha(kuncha, quncha)* payt ravishdoshlari sanaladi: *musiqa tingach, qorong'i tushguncha, uydan chiqqach*.

-*gani* shakli maqsad ravishdoshidir: *ko'rgani bormoq, bilgani so'ramoq, aytgani kelmoq*. Ravishdoshning bu shakli bo'lishsizlik ifodalamaydi.

Ravishdoshning -*gani* shaklini sifatdoshning *gan+i* shaklidan farqlash lozim. Qiyoq qiling: *U mehmonlarni kuzatgani chiqdi. – Ko'p o'qigani o'ziga foyda*.

## KO'MAKCHI FE'LLAR

Ravishdoshning -a, -y, -(i)b shakllariga qo'shilib, o'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichlari (boshlanish, davom etish, tugallanishi) va tarzi (tezligi, imkoniyati)ni bildiruvchi fe'llar ko'makchi fe'llar sanaladi. Masalan: *qo'yib yubormoq, sezib qolmoq, tekshirib ko'rmoq, bura boshlamoq*. Bu shakl yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l shaklida bo'ladi. Yetakchi fe'l oldin keladi. Mustaqil ma'no ifodalaydi. Ko'makchi fe'l esa yetakchi fe'lga qo'shiladi. O'z lug'aviy ma'nosidan chekinadi. Ish-harakatning turli qo'shimcha ma'nolarini (davomiylilik, tezlik, tugaganlik, imkoniyat kabi) ma'nolarini ifodalaydi.

- bo'lmoq

Aytib

- bermoq =aytmoq

- yurmoq

- chiqmoq

Ko'makchi fe'l tushib qolsa ham, yetakchi fe'l orqali harakat ma'nosididan: *ko'rib qoldi = ko'rbi, tushuntirib berdi = tushuntirdi*.

Yetakchi fe'l ravishdosh shaklida bo'ladi. Tuslovchi qo'shimchalar esa ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *o'qib chiqdim, o'qib chiqding, o'qib chiqdik...*

Bo'lissizlik va nisbat shakllari o'rni bilan yetakchi yoki ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *cho'zilib ketmadi, sezmay qoldi; boshlanib ketdi, ko'riniq qoldi, ko'rib chiqildi, kirib ketishdi*. (O'zlik va orttirma nisbat qo'shimchalari faqat yetakchi fe'lga qo'shiladi: *tushuntirib berdi, kiyinib bo'ldi, o'tqizib qo'ydi, ichirib bo'ldi, egilib qo'ydi*).

Vazifa shakllari faqat ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *qarab qo'ygan, bilib olish, to'kib yuborguncha, kelib qolgach*.

Ba'zan ko'makchi fe'llar bir necha bo'lishi mumkin: *aytib<sup>etakchi fe'l</sup>berib qo'ya qolinq<sup>ko'makchi fe'l</sup>*.

Ko'makchi fe'llar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- *yubormoq, tashlamoq, qo'ymoq* ko'makchi fe'llari xarakatning tez va oson bajarilishini bildiradi: *tashlab yubormoq, aytib qo'ymoq*.

- *yotmoq, yurmoq, turmoq* ko'makchi fe'llari harakatning davomiyligini bildiradi: *o'qib yurmoq, aytib turmoq, gapirib yotmoq*.

- *boshlamoq* ko'makchi fe'l harakatning boshlanishini bildiradi: *ko'ra boshlamoq, o'qiy boshlamoq*.

- *olmoq* fe'l harakatning bajarilish imkoniyatini bildiradi: *gapira olmoq, ko'ra olmoq*.

- *chiqmoq, bo'lmoq* ko'makchi fe'llari harakatning to'la yakunlanganini bildiradi: *ko'rishib chiqmoq, yozib chiqmoq, bajarib bo'lmoq*.

To‘liqsiz fe’llar – fe’l va fe’l bo‘lmagan so‘zlarga qo‘silib, shaxson, zamon ma’nolarini ifodalaydi: *yuzta edi, uchta ekan, yaxshi edi, borar edi (borardi), kelar ekan (kelarkan), ko‘rar emish (ko‘rarmish)*. To‘liqsiz fe’llar lug‘aviy ma’no ifodalamaydi.

To‘liqsiz fe’llar ismlarga qo‘shilganda ularni kesimlik vazifasiga xoslovchi sintaktik munosabat shakli (bog‘lama) sanaladi: *Ustozimiz bizning faxrimiz edi. Ko‘chalar juda keng ekan. Hammamizning fikrimiz shu edi.*

To‘liqsiz fe’llar fe’l shakllariga qo‘shilganda zamon va shaxs-son ma’nolarini ifodalaydi: *U shu muktabda o‘qigan edi. — U shu muktabda o‘qir edi. — U shu muktabda o‘qiyotgan edi.*

## FE’LNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

Fe’l tuzilishiga ko‘ra sodda fe’llar, qo‘shma fe’llar, juft fe’llar, takroriy fe’llarga bo‘linadi.

Sodda fe’llar – bir asosdan tuziladi, tub va yasama bo‘ladi.

Sodda tub fe’llar: *bormoq, chiqmoq, qaramoq.*

Sodda yasama fe’llar: *yashamoq, o‘ynamoq, pasaymoq, oqarmoq.* (Fe’l yasalishi bahsiga qarang)

Qo‘shma fe’llar: sintaktik usul bilan yasalgan fe’llardir. Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasida boshqa qo‘sishimchalarni qo‘shib bo‘lmaydigan, bitta so‘roqqa javob bo‘luvhi fe’llar qo‘shma fe’l sanaladi. Ular ikki xil bo‘ladi: OT + FE’L shaklida: *savol bermoq, javob olmoq, ta‘zim qilmoq, kasal bo‘lmoq, ahd qilmoq;* FE’L + FE’L shaklida: *borib kelmoq, sotib olmoq, kirib chiqmoq, tortib olmoq.*

Qo‘shma fe’llarda har ikkala qismning qo‘shilishidan yangi so‘z yasaladi. Ular tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari sezilib turadi: *borib kelmoq* (borish va kelish harakatidan hosil bo‘lgan harakat). Qo‘shma fe’llar doim ajratib yoziladi.

Juft fe’llar – ikki fe’lning juftlashuvidan tarkib topgan, bitta so‘roqqa javob bo‘luvhi va gapda bitta gap bo‘lagi vazifasida keluvchi fe’llar juft fe’llar deyiladi. Ular chiziqcha bilan yoziladi, ish-harakatning tezlik bilan bajarliganligi, kutilmaganda ro‘y berishini bildiradi: *Bir so‘z demay ketdi-qoldi. Bu gapni aytdi-qo‘ydi.*

Ko‘pincha juft fe’llar otga ko‘chadi. Bunda ular otlar kabi turlovchi qo‘sishimchalarni oladi, gapda ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi: *Qo‘ydi-chiqdini yoqtirmayman. Ularning oldi-berdisi bor.*

Takroriy fe'llar- chiziqcha bilan yoziladi, harakatning davomiyligi, takroriyligi ma'nolarini bildiradi: *Doimo qaragani-qaragan. Yurib-yurib bir joyga borishibdi.*

## FE'LNING MA'NOVIY GURUHLARI

Fe'llar qanday harakat holatni ifodalashiga ko'ra quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:

- nutqiy faoliyat fe'llari: *gapirmoq, pichirlamoq, o'qimoq, to'ng'illamoq, tushuntirmoq, duduqlamoq;*
- aqliy faoliyat fe'llari: *fikrlamoq, ijod qilmoq, fahmlamoq, tushunmoq, sezmoq, bilmox, anglamoq, o'yamoq;*
- jismoniy faoliyat fe'llari: *yugurmoq, tepmoq, tekislamoq, kesmoq, termoq, egilmoq, burilmoq, chiqmoq;*
- holat fe'llari: *jilmaymoq, qizarmoq, o'smoq, titramoq, isitmalamoq, pishmoq, sovimoq, xursand bo'lmoq.*

## FE'LLARNING MUNOSABAT SHAKLLARI

Fe'l asoslariga qo'shilib, gapda kesim vazifasida qo'llanilishiga xoslovchi shakllar fe'lning munosabat shakllari hisoblanadi.

Fe'llarning zamon, mayl, shaxs-son qo'shimchalari munosabat shakllari sanaladi. Bu shakllarga ega bo'lgan fe'l gapda faqat kesim vazifasida keladi. Bu shakllar bilan qo'llanmagan fe'l asosi fe'lning noaniq shakli hisoblanadi va bu shakl -moq qo'shimchasi bilan ifodalanadi: bormoq, chiqmoq, termoq.

## FE'L ZAMONLARI

Ish-harakatning nutq so'zlanayotgan paytga munosabati fe'l zamonlari deyiladi. Ular 3ta: o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelas zamon.

O'tgan zamon ish-harakatning nutq so'zlanayotgan paytdan oldin bo'lganligini bildiradi. Bu zamon shakllari fe'l asoslariga -di, -b, -ib, -gan (-kan, -qan) qo'shimchalarini qo'shish va bu shakllarni shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslashdan hosil bo'ladi. O'tgan zamon shakllari:

-di qo'shimchasi bilan yasaluvchi shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rghan harakat va holatni bildiradi: *bordi, o'qidi.* U ish-harakatning yaqin-o'tgan zamonda bo'lganligini bildiradi.

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs:	<i>bordim</i>	<i>bordik</i>
II shaxs:	<i>bording</i>	<i>bordingiz</i>
III shaxs:	<i>bordi</i>	<i>bordilar</i>

-ib shakli ilgari ro‘y bergen, so‘zlovchining bevosita o‘zi guvoh bo‘limgan, eshitib bilgan harakatni ifodalaydi.

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs:	<i>boribman</i>	<i>boribmiz</i>
II shaxs:	<i>boribsan</i>	<i>boribsiz</i>
III shaxs:	<i>boribdi</i>	<i>bordilar</i>

-gan shakli ish-harakatning ancha ilgari, uzoq o‘tgan zamonda bo‘lganligini bildiradi.

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs:	<i>borganman</i>	<i>borganmiz</i>
II shaxs:	<i>borgansan</i>	<i>borgansiz</i>
III shaxs:	<i>borgan</i>	<i>borganlar</i>

Bu shakl ba‘zan *borgan edim*, *borgan eding*... to‘liqsiz fe’li bilan ham shakllanadi.

-ar edi (-mas edi) shakli ish-harakatning o‘tgan zamonda davom etganligini ifodalaydi: *borar edi*, *bormas edi*.

	Birlik	Ko‘plik
I shaxs:	<i>borar edim</i>	<i>borar edik</i>
II shaxs:	<i>borar eding</i>	<i>borar edingiz</i>
III shaxs:	<i>borar edi</i>	<i>borar edilar</i>

**Hozirgi zamon** – fe’l asoslariga –yap: -moqda: - (a)yotir: -(a)tib qo‘srimchalarini qo‘sish bilan hosil bo‘ladi. Ish-harakatning nutq so‘zlanayotgan paytda bo‘lishini bildiradi: *kelyapman*, *kelayotibman*, *kelayotirman*, *kelmoqdaman*. Shaxs-son qo‘srimchalarini zamon qo‘srimchalaridan so‘ng qo‘siladi.

**Kelasi zamon** – fe’l asosga -a, -y, -ar qo‘srimchalarini qo‘sish bilan hosil bo‘ladi. Ish-harakatning nutq so‘zlanayotgan paytdan keyin bajarilganligini bildiradi: *kelaman*, *o‘qiyman*, *boraman*, *qarayman*, *borarman*.

-a, -y shakli ba‘zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini bildiradi: *U maktabda o‘qiydi*.

-ar qo‘srimchali shakl kelasi zamon gumon ma’nosini hosil qiladi: *borarman*, *kelarsan*.

Ba'zan nutqda zamon shakllari boshqa zamon ma'nosida qo'llanishi ham mumkin. Bunda fe'lning qaysi zamonda ekanligi shaklga qarab emas, nutq so'zlanayotgan paytga nisbatan belgilanadi: *Ertaga Samarcandga ketayapman.*( kelasi zamon). Qarasam ko'chada kelayotibdi. (o'tgan zamon). Navoiy Xirotda tug'iladi, bolaligidan she'rlar yoza boshlaydi... kabi tadrijiy hikoya qilishda ham o'tgan zamon ma'nosini ifodalanganadi.

## FE'L MAYLLARI

Ish-harakatning vogelikka munosabati fe'l mayllari deyiladi: bordi, borsa, bormoqchi, boray. Fe'l mayllari 4 ta:

**Xabar (ijro) mayli** – ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabarni bildiradi. Bu mayl maxsus ko'rsatkichlarga ega emas : *bordi, bormadi.*

**Shart mayli** – sa qo'shimchasi bilan yasaladi: *borsa, kelsa, o'qisa.* Ish-harakatning yuzaga kelish shartini bildiradi.

**Maqsad mayli** – moqchi qo'shimchasi bilan yasaladi. Maqsad qilingan ish-harakatni bildiradi: *bormoqchi, o'qimoqchi, kelmoqchi.*

**Buyruq (istak) mayli** quyidagicha yasaladi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs:	<i>boray</i>	<i>boraylik</i>
II shaxs:	<i>bor(gin)</i>	<i>boring(iz)</i>
III shaxs:	<i>borsin</i>	<i>borsin(lar)</i>

## SHAXS - SON SHAKLLARI

Fe'lidan ifodalangan harakat va holatning bajaruvchi shaxsini bildirib, fe'lni kesim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakllar shaxs-son shakllari deyiladi. Bu qo'shimchalar tuslovchilar ham deyiladi.

Tuslovchi qo'shimchalar 2 xil shaklda bo'ladi: *-m, -ng, -k, -ingiz* shakli va *-man, san, -miz, -siz* shakli.

*-sa* va *-di* shakllari *-m, -ng, -k, -ingiz* qo'shimchalari bilan tuslanadi.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs:	<i>bordim, borsam</i>	<i>bordik, borsk</i>
II shaxs:	<i>bording, borsang</i>	<i>bordingiz, borsangiz</i>
III shaxs:	<i>bordi, borsa</i>	<i>bordilar, borsalar</i>

*-ib, -gan, -ar, -yap, -moqchi, -yotib, -yotir* kabi shakllar *-man, san, -miz, -siz* shakli bilan tuslanadi.

I shaxs:	Birlik <i>boribman</i>	Ko'plik <i>boribmiz</i>
II shaxs:	<i>boribsan</i>	<i>boribsiz</i>
III shaxs:	<i>boribdi</i>	<i>boribdilar</i>

## RAVISH

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday?, qancha?, qachon?, qayer? singari so'roqlarga javob bo'lувчи so'zлар ravish deyiladi. Ravishlar o'zgarmas so'z turkumi bo'lib, ular so'zlarga qo'shimcha olib, o'zgarmasdan bog'lanadi. Ravishlarning tarkibidaga egalik va kelishik qo'shimchalari morfemalarga ajratilmaydi.

Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi. Yasama ravishlar morfologik usul (qo'shimchalar qo'shish), asos qismmini just va takror qo'llash yo'li bilan hosil bo'ladi. Tuzilishiga ko'ra ravishlarning sodda, just va takroriy turlari farqlanadi.

**Tub ravishlar:** *sekin, asta, yalpi, ko'p, oz, tez, jim, darrov, piyoda.*

**Yasama ravishlar:** *yaxshilikcha, butunicha, yashirincha.*

**-larcha** *mardlarcha, o'g'rilaracha, dushmanlarcha, onalarcha*

**-chasiga** *erkakchasiga, yigitchasiga*

**-siga** *yoppasiga, qatorasiga, ertasiga*

**-ona** *do'stona, shoirona,*

**-lab** *tonnalab, savatlab*

**-an** *majburan, asosan, tasodifan*

**-in** *yashirin*

**-lay (ligicha)** *butunlay, tirikligicha*

**Qo'shma ravishlar:** payt ravishlari oldidan har, hech, bir so'zlarini qo'llash orqali yasaladi: *har zamon, har vaqt, har kun, har soat, hech vaqt, hech zamon, bir zum.*

**Just ravishlar:** *naridan-beri, ustma-ust, o'zidan-o'zi, qishin-yozin*

**Takroriy ravishlar:** *darrov-darrov, asta-asta, ko'p-ko'p, oz-moz.*

## RAVISHLARNING MA'NO TURLARI

Ravishlar ma'nosiga ko'ra holat, payt, o'rinni, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo'linadi.

**Holat ravishlari** - harakat-holatning qanday holda bajarilganligini bildirgan va qanday?, qay holda?, qay tarzda? so'roqlariga javob bo'lувхи

ravishlar holat ravishlari sanaladi: *jim, yayov, chindan, birdan, zimdan, yo'qqisdan, tasodifan, astoydil, arang, zo'rg'a, ketma-ket, majburan, yoppasiga, chindan, birdan*.

**Payt ravishlari** - harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmashlik paytini bildirgan va qachon? so'rog'iga javob bo'luvhi ravishlar payt ravishlari sanaladi: *endi, hozircha, so'ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon, dastlab, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz*.

**O'rin ravishlari:** harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmashlik o'rnini bildirgan va qayer? so'rog'iga javob bo'luvhi ravishlar o'rin ravishlari sanaladi: *ichkari, tashqari, olg'a, u yerda, bu yerda, uzoqdan, naridan, beridan, yaqindan, pastdan, yuqoridan*.

**Miqdor daraja ravishi:** harakat-holatning bajarilishidagi miqdor-darajani bildiradigan bildirgan va qancha? so'rog'iga javob bo'luvhi ravishlar holat ravishlari sanaladi: *ko'p, kam, oz, oz-moz, sal, picha, hiyol, hiyla, anchaqittay, uzog, sira*.

**Maqsad-sabab ravishi:** harakat-holatning yuzaga kelish sabab va maqsadini bildirgan ravishlar maqsad-sabab ravishlari sanaladi va ularga: atayin, jo'rttagi, qastdan, noilojlikdan kabi ravishlari kiradi.

## YORDAMCHI SO'ZLAR

Atash ma'nosiga ega bo'limgan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zlardir. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradi. Ularga ko'makchi, bog'lovchi va yuklama kiradi.

## KO'MAKCHI

Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun hizmat qiluvchi so'zlar ko'makchi sanaladi. Ko'makchilar xuddi kelishiklar kabi tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi, o'zidan oldingi so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'ladi: *siz bilan xamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim*.

Ko'makchilar o'zgarmaydi, turlanmaydi yoki yasalmaydi, ma'noli qismilarga ajralmaydi, vosita sabab, maqsad, yo'nalish, qiyos kabi ma'nolarni hosil qiladi.

Ko'makchilar qaysi turkumdan o'sib chiqishiga ko'ra sof ko'makchi va vazifadosh ko'makchilarga ajraladi. Sof ko'makchilarga uchun, kabi,

sarin, sayin, qadar, uzra, singari, tufayli, haqida kabi ko'makchilar kiradi. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun hizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar deyiladi: *Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher. Qishloq uzra qorong'ilik cho'kkani.*

Sof ko'makchilar urg'u olmaydi, urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doimo ajratib yoziladi: Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi. Bu hol kun sayin takrorlanib turardi.

Ba'zan *bilan*, *uchun*, ko'makchilari badiiy uslubda -la, -chun shaklida qo'llaniladi, chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Qalam-la men to'qiyan qo'shiq. Tinchgina yashash-chun tug'ilmaganman.

Vazifadosh ko'makchilar ot, ravish yoki fe'lidan o'sib chiqqan so'zlardir. Ularga *ost*, *yon*, *ust*, *old*, *orqa*, *ro'para*, *oldin*, *avval*, *keyin*, *so'zng tomosh*, *qosh*, *bo'ylab*, *qaraganda*, *yarasha*, *ko'ra*, *deya*, *deb*, *atab*, *tortib kabi* so'zlar kiradi. Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganda atash ma'nosini yo'qotadi ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi. O'zi qo'shilgan so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasida keladi: *Go'ro'g'lining G'irko'k degan oti bor*. Bir haftadan keyin ishga tushib ketdi. Dehqonlar to'dasi qishloqqa qarab yugurdi. Anvarotin yostiq ostiga qo'l yogurtirdi.

Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi:

- sababli, tufayli, uchun ko'makchilari maqsad ma'nosini: *Qalamni Salima uchun oldim.*
- tomon, qarab, sari, bo'ylab ko'makchilari yo'nalish ma'nosini;
- haqida, to'g'risida fikr mavzusi ma'nosini;
- kabi, singari ko'makchilari o'xshatish ma'nosini qadar ko'makchisi o'xshatish ma'nosini bildiradi.

Ko'makchilar uch xil kelishik shaklidagi so'zlarni boshqarib keladi: 1) bosh va qaratqich kelishigidan keyin qo'llaniladigan ko'makchilar; 2) jo'nalish kelishigidan keyin qo'llaniladigan ko'makchilar; 3) chiqish kelishigidan keyin qo'llaniladigan ko'makchilar.

Bosh va qaratqich kelishigidan keyin qo'llaniladigan ko'makchilar: *bilan*, *uchun*, *kabi*, *singari*, *yanglig'*, *sayin*, *sari*, *sababli*, *orgali*, *tufayli*, *chog'li*, *osha*, *bo'ylab*, *bo'yicha*, *uzra*, *ichra*, *degan*, *bo'yi*, *chamasi*, *haqida*, *to'g'risida*, *holda* ko'makchilari kiradi: *Uyi doim do'stlar bilan gavjum.*

*gavjum. Buvasi eshitsin uchun qattiq yig'ladi. Bu hol kun sayin takrorlanadi. Ko'l osha uzoglarga tikildi. Qish bo'yи qiynalishdi.*

*Jo'nalish kelishigidagi so'zlardan keyin qo'llaniladigan ko'makchilar: tomon, qadar, ko'ra, qarab, qaraganda, qaramay, qaramasdan, yarasha, doir, binoan, muvosiq, qarata: kechga tomon mirzolar tarqalishdi. Ittimosiga ko'ra bo'shatishdi. Odatiga qarshi kech qaytdi. Ishlaganiga qarab haq oladi. Eski bo'lishiga qaramay yaxshi ishlaydi. Tarbiyaga doir gaplarni yozib qo'ydi. Ko'pchilikka qarata gapirdi.*

*Chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llagiladigan ko'makchilar: so'ng, keyin, boshqa, tashqari, bo'lak, o'zga, beri, buyon, burun, ilgari, boshlab, tortib: Bir oylab kechiqqandan so'ng Otabek qaytib keldi. Diniy ilmlardan tashqari dunyoviy ilmlarni ham biladi. Ko'p yillardan beri shu yerda ishlaydi. To'ydan ilgari Marg'ilonga borishdi. Eng katta shaharlardan tortib kichik qishloqlargacha aylanib chiqdi.*

Vazifadosh ko'makchilar bir o'rinda mustaqil so'z, bir o'rinda ko'makchi bo'lib kelishi mumkin shunga ko'ra ular quyidagicha ifodalanadi:

*Kitobga qarab o'qidi (qay holda?)ravish. Ishiga qarab haq oladi (qanday?) ko'makchi.*

*Eski bo'lishiga qaramay yaxshi ishlaydi. Menga qaramay o'tib ketdi.*

*Do'konda qalamdan tortib hamma narsa bor. Karim Rustamni qo'sidan tortib turg'azdi.*

## BOG'LOVCHI

Gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar deyiladi: *Olma, o'rik ya gilos gulladi. U keldi lekin indamadi. Havo bulut, lekin yomg'ir yog'madi.*

Ma'no va vazifalariga ko'ra bog'lovchilar 2 xil bo'ladi:

- 1.Teng bog'lovchilar
- 2.Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Teng bog'lovchilar – uyushiq bo'laklarni hamda, bog'langan qo'shma gap qismlarini ya'ni teng huquqli qismlarni bog'laydi. Yuqoridagi bog'lovchilar teng bog'lovchilardir. Ular 4 xil:

- 1.Biriktiruv bog'lovchilar
- 2.Zidlov bog'lovchilar
- 3.Ayiruv bog'lovchilar
- 4.Inkor bog'lovchilar

**Biriktiruv bog‘lovchilari-** va, hamda, ham - sof bog‘lovchilardir; -da, -u, -yu, bilan vazifadosh bog‘lovchilardir. -da, -u, -yu - yuklama – bog‘lovchilar; bilan – ko‘makchi - bog‘lovchilardir: *Opam bilan singlim keldi* – bog‘lovchi; *Opam singlim bilan keldi* – bog‘lovchi emas, ko‘makchi.

**Zidlov bog‘lovchilari-** ammo, lekin, biroq, balki: havo bulut, lekin yomg‘ir yog‘madi. U o‘qidi, lekin tushunmadi.


-u, -yu vazifadosh zidlov bog‘lovchisidir: *Qo‘ng‘iroq chalindi-yu*, dars boshlanmadi .Balki – vazivadosh bog‘lovchi bo‘lib, gapda ba‘zan modal so‘z? ba‘zan zidlov bog‘lovchisi sifatida qo‘llanadi. Qiyoq qiling: *Bu xabar uni hayron goldirmadi, balki shodlantirdi. Balki, bugun yomg‘ir yog‘ar.*

**Ayiruv bog‘lovchilari-** goh, dam, ba‘zan, bir – doim takrorlanib qo‘llanuvchi bog‘lovchilardir. Yo, yoki – sodda va takror holda qo‘llanuvchi bog‘lovchidir: *Dam musiqa yangraydi, dam kulgi eshitiladi. Bir menga, bir do ‘stiga qaraydi.* Ayiruv bog‘lovchilari galma-galdan yuzaga keladigan voqeal-hodisalarini ko‘rsatadi.

**Inkor bog‘lovchilari-** na ...na. Uyushiq bo‘lak va gaplarni inkor ma’nosini yuklagan holda bog‘laydi: *na o‘qidi, na yozdi.* Bunda gapning kesimi tasdiq, shaklida bo‘ladi. *Na bog‘lovchisi inkor ma’nosini ifodalaydi: Na eshikni, na derazalarni ochdi.*

**Ergashtiruvchi bog‘lovchilar-** tobe, hokim qismlarni, o‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘laklari va gaplarni bog‘laydi: Hunar o‘rgan, chunki hunarda sir ko‘p. Ular 3 xil.

1. Aniqlovchi bog‘lovchilar – *ki, ya ‘ni*
2. Sabab bog‘lovchilari – *chunki, toki*
3. Shart bog‘lovchilari – *basharti, agar, garchi.*



## YUKLAMALAR

Ayrim so'zga yoki gapga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llanadi:  
*Bugun darsga kelding-mi? Topshiriqni bugunoq bajaring!*

Yuklamalarning quyidagi turlari mavjud:

1. *So'roq va taajjub yuklamalari* – mi, -chi, -a(ya), nahotki: sen-chi, bordingmi?, shunga-ya.

2. *Kuchaytiruv, ta'kid yuklamalari* – hatto, -ku, ham, -u(yu), -da, -oq, -yoq: *Sen ham bor, kitob ham oldim, bordi-yu ko'rди, kelibsan-u, ko'ribsan-da, bugunoq, ertagayoq.*

3. *Ayiruv, chegaralov yuklamalari* – gina (kina, qina), faqat, faqatgina, xolos. *Bolalardan bittasigina keldi, faqat o'qishdi, shu xolos.*

Ba'zan *yolg'iz* so'zni ham ayiruv-chegaralov yuklamasi vazefaseda keladi (faqatga sinonim): *Qizlardan yolg'iz(faqat) Ra'no keldi.*

4. *O'xshatish, qiyoslash yuklamalari* – go 'yo, go 'yoki, xuddi, naq: *Naq bo'riday, xuddi o'ziday.*

5. *Gumon yuklamasi* – dir: *Borgandir, bugun dars bo'lgandir.* Bu yuklama – dir kesimlik qo'shimchasi bilan shakldosh (omonim) sanaladi: *Suv hayot – manbayidir* 6. *Inkor yuklamalari* – hech, sira. *Hech o'qimaydi, sira aytmaydi, hech ko'rmayman.*

## ALOHIDA GURUH SO'ZLARI

Bularga undov, taqlid, modal so'zlari kiradi.

**Undov so'zları** – his –hayajon, buyruq – xitobni ifodalovchi so'zlardir. Yozuvda undov so'z vergul bilan ajratiladi: *Oh-oh qanday shirin. Boy, go 'rqib ketayapman.* Undovlar 2 xil bo'ladi:

1. **His-hayajon undovlari**

2. **Buyruq-xitob undovlari**

His-hayajon undovlari-kishining turli emotsional holatlarini, his-hayajonni (rohatlanish, hayratlanish, g'azab, nafrat, og'riq, erkalash) ifodalaydi: *Oh, voy e, eh, uf, dod, obbo, o'-o', ie, o'h-ho', voy-voy.*

Buyruq-xitob undovlari – hayvon, jonivorlarni haydash, chaqirish, to'xtatish uchun qo'llanadigan yoki kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan so'zlardir: *hoy, ey, allo, chuh, beh, qurey-qurey, tu-tu.* Bulardan tashqari, *rahmat, qulluq, varakalla, hormang, yashang* his-hayajon undovlari hisoblanadi.

**Taglid so'zlar** - narsalarning tovushi yoki ko'rinish holatiga, taqlidni ifodalovchi so'zlardir: *taq-taq, gurs-gurs, qars-qurs, dik-dik, duk-duk.*

Taqlid so‘zlari 2 xil:

- Tovushga taqlid so‘zlar;
- Holatga taqlid so‘zlar.

Tovushga taqlid so‘zlar – eshitish orqali taqlidni bildiruvchi so‘zlardir: *taq, gurs, duk, dik, pish-pish, chap-chup, gars-gurs, shivir-shivir, pichir, hur-hur*.

Shu bilan birgalikda hayvonlarning ovoziga taqlid so‘zlar ham uchraydi: *mo’, be, va, vov-vov, chug’ur-chug’ur, g‘aq-g‘aq*.

Holatga taqlid so‘zlar – narsalarning harakatiga ko‘rib taqlid qilish orqali hosil bo‘ladi. *Lip, milt-milt, yarq, jimir-jimir, g‘ij-g‘ij, yal-yal*.

**Modal so‘zlar** – ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining turli munosabatlarini (ishonch, gumon, achinish)ni bildiruvchi so‘zlardir. Modal so‘zlar gapda vergul bilan ajratiladi. Gapda asosan kirish so‘z vazifasida keladi. Quyidagi ma’nolarni ifodalaydi.

1. Ishonch - *albatta, shaksiz, shubhasiz, tabiiy*. *Albatta* biz maqsadimizga erishamiz

2. **Gumon ma’nosı** – *etimol, chamasi, aftidan, balki, shekilli*.

3. **Tasdiq ma’nosı** – *darhaqiqat, haqiqatan*.

4. **Fikr** xulosalash (fikrning oldingi fikr bilan bog‘liqligi) *xullas, demak, umuman*.

5. Fikrning tartibi – *avvalo, avvalambor*.

6. Fikrning dalillanishi – *masalan, jumladan*.

7. Achinish- *attang, afsus*.

8. Quvonch ma’nosini – *xayriyat, baxtinga*.

Xullas, mustaqil so‘zlar lug‘aviy ma’no anglatadi. Xayriyat sizni ko‘rdim. *Ehtimol, uchrasharmiz. Bugun yomg‘ir yog‘ar. Aftidan u yolg‘on gapirdi*.

Modal so‘zlarni sof va vazifadosh turlari farqlanadi. *Shekilli, masalan, attang, xayriyat, ehtimol* – sof modal so‘zlardir. Vazifadosh modal so‘zlar mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqgan bo‘lib, ularni o‘z ma’nosida qo‘llangan mustaqil so‘zlardan farqlash lozim: *Tabiiy mahsulotlardan foydalanamiz. Qarilagini aftidan bilish qiyin. - Aftidan, bugun yomg‘ir yog‘adi. Tabiiy, bu voqeadan shubhalandim*. Yuqoridaq ikkita misolda *tabiiy, aftidan* so‘zları mustaqil so‘z sanalsa, qolgan ikkita misolda ular vazifaðosh modal so‘zlardir. Mavjudlikni bildiruvchi modal so‘zlar gapda vergul bilan ajratilmaydi, kirish so‘z vazifasida ham keladi. Ular ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kela oladi yoki kesim tarkibida qo‘llanadi: *bor, yo‘q, kerak, lozim, shart. Menda qalam bor. Karim o‘qishi kerak. Oramizda qoloqlar yo‘q*.

## SINTAKSIS

Sintaksis so‘zlarning o‘zaro birikish usullarini, so‘z birikmasi va gaplarning qurilishi va ifoda xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limdir. So‘zlarning tildagi muayyaa qonun-qoidalar asosida o‘zaro birikuvidan so‘z birikmalari va gaplar hosil bo‘ladi. Sintaksis ikki bo‘limdan iborat: so‘z birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi.

Har qanday til o‘zining nutq tovushlari, so‘zlari va qo‘shimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda ya’ni gap qurilishida to‘liq namoyon qiladi.

### SO‘Z BIRIKMASI

Mustaqil so‘zlar ma’no va grammatik jihatdan bir-biri bilan bog‘lanib, so‘z qo‘shilmasini hosil qiladi: *Keng dalada dehqonlar va hasharchilarining sho‘x-shodon ovozlari yangraydi* gapida ta so‘z qo‘shilmasi bor:

1. ovozlari yangraydi;
2. sho‘x-shodon ovozlari;
3. hasharchilarining ovozlari;
4. dehqonlarning ovozlari;
5. dehqonlar va hasharchilar;
6. dalada ishlaydi;
7. keng dala.

So‘z qo‘shilmasidagi so‘zlar bir-biri bilan ikki xil bog‘lanadi: teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish.

Teng bog‘lanishda so‘z qo‘shilmasidagi bir so‘z boshqasiga tobe bo‘lmaydi, bir-biri bilan sanash ohangi yoki teng bog‘lovchilar vositasida birikadi.

Tobe bog‘lanishda bir so‘z boshqasiga tobe bo‘ladi. Yuqorida misolda *dehqonlar va hasharchilar* birligi tenglanish, qolgan birliklar esa tobelanish asosida hosil bo‘lgan. So‘z birikmasi va gapning asosini tobe aloqa hosil qiladi.

So‘z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan birikuvidan hosil bo‘ladi. So‘z birikmasi **tobe** va **hokim** qismlardan tuziladi.

— Tobe qism (ergash so‘z) bosh so‘zdan oldin kelib, hokim so‘zning ma’nosini izohlaydi, tobe so‘zni bosh so‘zga bog‘lovchi vositalar tobe(ergash) so‘zning tarkibida bo‘ladi.

- Hokim qism (bosh so‘z) tobe so‘zdan keyin keladi va uning ma’nosini tobe so‘z tomonidan izohlanadi, turli turkumdagisi so‘zlar bosh (hokim) so‘z bo‘lib kelishi mumkin.

## TOBE SO‘ZNI HOKIM SO‘ZGA BIRIKTIRUVCHI VOSITALAR

Ergash so‘zni bosh so‘zga biriktiruvchi vositalar yuqorida aytib o‘tganimizdek, ergash so‘zning tarkibida bo‘ladi va ular quyidagi vositalar yordamida tobelanib bog‘lanadi.

**1. *Kelishik qo‘sishimchaları*** – yordamida ot va otlashgan so‘zlar turli mustaqil so‘zlar bilan birikadi:

— OT + FE’L = uyga bormoq, yigitning guli, ko‘chaning yuzi, uydan chiqmoq, ko‘chani ko‘rmoq...

— OT + OT = kitobning varagi, olmaning vargi, onamning ko‘ylagi

— OT + SIFAT = qizlarning yaxshisi, asalning shirini, talabalarning a’lochisi

— OT + SON = oyning beshinchisi, nonning yarmi, olmaning ikkalasi.

— OT + TAQLID SO‘Z = qushlarning chug‘ur-chug‘uri, traktorning pat-pati

**2. *Yordamchi so‘zlar (ko‘makchilar)*** – tobe so‘z tarkibida qo‘llanib, u bilan bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘laydi. Ko‘makchilar asosan quyidagi turkumlarni bog‘laydi:

— OT + FE’L = qilmishiga yarasha jazolanmoq, aybi tufayli uyalmoq

— OT + OT = ishiga yarasha mukofotlanmoq, telefon orqali suhbatlashmoq

**3. *So‘z tartibi va ohang*** — bunda so‘zlar hech qanday vositalarsiz so‘zlarning joylashish tartibi va ohangiga ko‘ra birikadi, tobe so‘z oldin hokim so‘z keyin joylashadi. *Oq kabutar, ishonchli so‘z*. Bunday birikmalarning tartibi o‘zgarsa, gap hosil bo‘ladi. tartib va ohang yordamida quyidagi turkumlar birikadi:

— Sifat + ot = *rangli qalam, mazali taom, qizil olma, shirin choy, qora choy...*

— Ot + ot = *temir eshik, zumrad vahor, tilla sandiq...*

— Ravish + fe’l = *ko‘p o‘qimoq, tez yurmoq, sekin gapirmoq, asta siljimoq...*

— Sifatdosh + ot = *o‘qigan bola, artilgan stol, aytilgan so‘z, otilgan o‘q...*

- Ravishdosh + fe'l = *shoshib gapirmoq, yugurib kelmoq ...*
- Taqlid so'z + fe'l = *chug'ur-chug'ur sayramoq, gurs-gurs urmoq, ship-ship yurmoq*
- Ravish + ot = *ko'p odam ...*

## SO‘Z BIRIKMALARI TASNIFI

So‘z birikmalari hokim so‘zning ifodalanishiga ko‘ra otli so‘z birikmalari va fe’lli so‘z birikmalariga bo‘linadi.

Otli birikmalarda – hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar, harakat nomi bilan ifodalanadi. Otli birikmalarda hokim so‘zning ifodalanishi:

ot bilan – *go‘zal o‘lka, shahar ko‘chalari, maktab bolalari, fakul’tet o‘qtuvchilari.*

sifat bilan – *asalning shirini, talabalarning a‘lochisi, hammadan katta olmosh bilan – qizlarning har biri, o‘tirganlarning hammasi, shularning barchasi.*

son bilan – olmaning yarmi, topshiriqning uchdan biri, talabalarning uchtasi...

taqlid so‘z bilan – *shamolning g‘uv-g‘ovi, mashinaning pat-pati, yulduzning yalt-yulti*

harakat nomi bilan: *maktabda o‘qish, piyoda yurish, ko‘chada sayr qilish*

Fe’lli birikmada – hokim so‘z fe’lning vazifadosh shakllari (sof fe’l, sifatdosh, ravishdosh) shakllari bilan ifodalanadi:

Sof fe’l bilan – *daftarga yozmoq, stulda o‘tirmoq, o‘rnidan turmoq*

Ravishdosh shakli bilan – *tez-tez yurib, darsdan qaytguncha, ko‘chada yura-yura*

Sifatdosh shakli bilan – *mehnatda sinalgan, oftobda toblangan, umid bilan yashayotgan*

## SO‘Z BIRIKMASI VA UNGA YONDOSH HOLATLAR

Quyida berilgan birliklarni so‘z birikmalaridan farqlash lozim.

- Qo‘shma so‘zlardan: *Yangiyo‘l, Navro‘z bayrami, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, O‘zbekiston Respublikasi, G‘arbiy Yevropa, Birlashgan Arab Amirligi, havorang.* So‘z birikmasi va qo‘shma so‘zda qismlar birikuvi shakliy jihatdan o‘xhash bo‘ladi. Lekin so‘z birikmasidagi qismlar ma’no mustaqilligini saqlagan bo‘ladi. Qo‘shma

so'z qismlari esa ma'no mustaqilligini saqlamaydi, bitta umumiy lug'aviy ma'no anglatadi. So'z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari orasida esa grammatik aloqa bo'lmaydi, bita urg'u bilan aytildi. Qiyos qiling: Yangiyo'l (qayer?) — yangi (qanday?) yo'l; bilakuzuk (nima) — xatni (nimani) oldim.

• Iboralardan: *kapalagini uchirmoq, tarvizi qo'lting idan tushmoq, qulog'iga quymoq, boshiga yetmoq*. So'z birikmasi qismlari o'zaro erkin bog'langan bo'ladi — tushuncha anglatadi; iboralar esa turg'un bog'lanmalar bo'lib, ular yaxlit bitta lug'aviy ma'no anglatadi. Masalan: *Bola qushlarga qarata tosh otdi. — Yutuqlarini ko'rolmasdan do'stiga ham tosh otdi.*

So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda ayni shaklda qo'llanishi mumkin: *boshiga yetmoq, yaxshi ko'rmoq, qulog'iga quymoq, o'z yog ida qovurmoq, po'stagini qoqmoq, to'nini teskari kiymoq, bo'yniga qo'ymoq, tarvizi qo'lting idan tushmoq, kapalagi uchib ketmoq* kabi birliklar erkin birikma bo'lganda tushuncha, turg'un bog'lanma bo'lganda bitta lug'aviy ma'no anglatadi.

• Ko'makchili qurilmalardan: *mehnatiga yarasha, hunari tufayli, ko'cha bo'ylab, yorug'lik tomon, uyg'a qarab, qilmishiga yarasha*. Bu birliklarning ikkinchi qismi vazifadosh ko'makchilardan tashkil topgan bo'lib, so'z birikmasi ikkita mustaqil so'zning birikuvidan tuzilishi lozim.

• Gaplardan: *Atrof go'zal. Kitob qiziqarli. Bolalar uchta*. So'z birikmasi ham, gap ham so'zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So'z birikmasi narsa-buyum, belgi, ish-harakatni aniqlashtirgan holda ifodalab, so'z kabi gap tuzish, uni kengaytirish uchun xizmat qiladi: *baland bino, tez yurmoq*. Gap esa ma'lum fikr ifodalab, tugallangan ohang bilan aytildi: *Bino baland. Mashina tez yuradi*.

## SO'Z BIRIKMASIDA SO'ZLARNING O'ZARO BIRIKISH USULLARI

So'z birikmasida so'zlarning o'zaro 3 xil birikuv usullari bor: **moslashuv; boshqaruv; bitishuv**.

Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchasi orqali birikuvi **moslashuv** deyiladi: *sizning ukangiz, xonaning yorug'i*. Ba'zan egalik yoki qaratqich kelishigi shakli belgisiz qo'llanilishi mumkin: *yoz yomg'iri* (*yozning yomg'iri*), *cho'l havosi, qor jilvasi; bizning uy, sizning o'gil*. Moslashuvda asosan otli birikmalar hosil bo'ladi.

Tobe so‘z hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari yoki ko‘makchilar bilan birikuvi **boshqaruv** deyiladi. Boshqaruvda otli va fe’lli birikmalar hosil bo‘ladi: *olma temoq, gul uzmoq, yoshlarga g‘amxo rlik, uydan chigmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, maktab tomon ketmoq.*

Kelishikli va ko‘makchili boshqaruv farqlanadi. Kelishikli boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zga tushum va o‘rin kelishiklari vositasida birikadi: *do’stini uchratmoq, bog’dan chiqmoq, chelakka solmoq, qarmoqda tutish.* Ko‘makchili boshqaruvda tobe so‘z hokim so‘zga ko‘makchilar vositasida birikadi: *tinchlik uchun kurash, qarmoq bilan tutish, aybiga yarasha jazolanmoq, uy sari yurmoq.*

Tobe so‘z va hokim so‘z xech qanday vositalarsiz faqat tartib va ohang yordamida birikuv usuli **bitishuv** deyiladi: *tez yurmoq, keng ko‘cha, kelgan odam, chiroyli gapirmoq, mehribon enaga.* Tezda qaytmoq, qo‘qqisdan burilmoq, chindan (yolg‘ondan) gapirmoq, uzunasiga kesmoq, zimdan kuzatmoq kabi birikmalar ham bitishuv usuli bilan hosil bo‘lgan. Ravishlar tobe so‘z vazifasida kelganda bitishuv usli bilan hokim so‘zga birikadi, ularning tarkibidagi egalik va kelishik qo‘srimchalari yaxlitlanib qolgan.

## SO‘Z BIRIKMALARI ZANJIRI

So‘z birikmalarining tuzilishiga ko‘ra sc̄dda va murakkab turlari mavjud.

**Sodda so‘z birikmaları** - ikkita mustaqil so‘zdan iborat so‘zlarning birikuvidir.

Quyida berilgan holatlar sodda so‘z birikmalari hisoblanadi.

— Mehnatiga<sup>1</sup> *yarasha<sup>0</sup>* olmoq<sup>1</sup>, hammaga<sup>1</sup> *qaraganda<sup>0</sup>* chiroyli<sup>1</sup> (bu yerda so‘zlar soni uchta bo‘lsa ham mustaqil ma’no anglatuvchi so‘zlarning soni ikkita).

— *Qo‘li ochiq<sup>1</sup>* yigit<sup>1</sup>, *tarvuzi* qo‘ltig‘idan tushgan<sup>1</sup> odam<sup>1</sup>, *qulog‘iga quyib<sup>1</sup>* uqtirmoq<sup>1</sup>. Bu birikmalar ham sodda so‘z birikmalari bo‘lib hisoblanadi, chunki bu yerda turg‘un birikma qatnashgan. Turg‘un birikma xuddi so‘zlar kabi bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta lug‘aviy birlik hisoblanadi.

— *G‘arbiy Yevropada<sup>1</sup>* yashamoq<sup>1</sup>, *Vazirlar Mahkamasida<sup>1</sup>* ko‘rilmuoq<sup>1</sup>, *kichik korxonada<sup>1</sup>* ishlamoq<sup>1</sup>, *O‘rtta Chirchiqda<sup>1</sup>* yashamoq<sup>1</sup>, *besh qavatli<sup>1</sup>* bino<sup>1</sup> — bir qismi qo‘shma so‘z shaklida kelganligi sababli bular ham sodda so‘z birikmalaridir.

— Kitobni o‘qib<sup>1</sup> *chiqmoq*<sup>1</sup>, mehmonlarni<sup>1</sup> *taklif qilmoq*<sup>1</sup> — birikmaning bir qismi qo‘shma yoki ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi bo‘lganligi sababli bular ham sodda so‘z birmasidir.

— Shoda-shoda<sup>1</sup> duru gavharlar<sup>1</sup>, uyum-uyum<sup>1</sup> arpa-bug<sup>‘doylar</sup><sup>1</sup> — bir qismi juft so‘zli birikmalar ham sodda so‘z birikmalar bo‘lib hisoblanadi.

Murakkab so‘z birikmalarida — tobe so‘z o‘ziga qarashli bo‘laklar bilan kengayib keladi va gapda so‘z birikmalarini zanjirini hosil qiladi. So‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelaqan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘zlarga aloqador bo‘lganda yoki bitta tobe so‘z bir necha hokim so‘zlarga aloqador bo‘lganda so‘z birikmalarini zanjiri hosil qilinadi. Ular bitta so‘roqqa javob bo‘ladi. Bunday birikmalar tarkibida mustaqil so‘zlar soni uch yoki undan ortiq bo‘ladi va ular o‘zaro tobelanadi.

Zumrad ko‘zli uzuk<sup>hokim so‘z</sup>  
Cho‘ldan esgan mayin shamol<sup>hokim so‘z</sup>

So‘z birikmalarini zanjiri turli gap bo‘laklari bo‘lib kelishi mumkin. Masalan: *DarBeshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to ‘Idirdi* gapida so‘z birikmalarini zanjiri ega vazifasida kelgan.

## TENGLANISH VA TOBELANISH

So‘z qo‘silmasida so‘zlar teng va tobe bog‘lanadi. *Bog‘imizda olma va o‘rik pishdi*.-gapida *bog‘imizda pishdi, olma pishdi, o‘rik pishdi* — tobelanish; *olma va o‘rik* — tenglanishusuli bilan bog‘langan.

Tenglanishda — ikkita teng huquqli so‘z biri ikkinchisiga bo‘ysunmay bog‘lanadi. Ular quyidagicha hosil bo‘ladi:

- Ohang yordamida: *Olma, o‘rik, shaftoli, gilos pishdi*.
- Teng bog‘lovchilar yordamida:
- Biriktiruv bog‘lovchilari yordamida — *o‘qituvchi hamda o‘quvchilar kelishdi*.
- Zidlov bog‘lovchilari yordamida — *o‘qidi, biroq yozmadidi*;
- Ayiruv bog‘lovchilari yordamida — kitob yoki daftar, ba’zan qor, **ba’zan** yomg‘ir;

- Inkor bog'lovchisi yrdamida – *na sen, na men*;
- Ko'makchi-bog'lovchilar bilan – *Karim bilan Salim, olma bilan nok*;

➤ Yuklama-bog'lovchilar bilan – *yer-u osmon, keldi-yu, indamadi*. So'zlarning teng bog'lanishi so'z qo'shilmalarini hosil qiladi. So'z qo'shimalarida har bir so'z alohida narsalarni nomlab keladi va ma'no mustaqilligini saqlab qoladi: *Opam va men, o'qidi lekin yozmadi*.

***So'zlarning tobe bog'lanishida*** bir so'z boshqa so'zga tobe va hokim munosabatida bog'lanadi. Tobe bog'lanishdan so'z birikmasi va gap hosil qilinadi.

Tobelanishdagi birliklardan so'z birikmasi ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay bitta tushunchani ifodalaydi: *mening do'stim, uyga kirmoq*. Gap esa fikr ifodalaydi: *Mening do'stim – Karim. Bola uyga kirdi*.

So'z birikmalarida tobe so'z vazifasiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Aniqlovchili birikma
2. To'ldiruvchili birikma
3. Holli birikma

**Aniqlovchili birikma** – tobe so'z sifatlovchi yoki qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: *yatan beshiging<sup>1</sup> izlari chizilgan<sup>2</sup> zamindir*.

**To'ldiruvchili birikma** – tobe so'z vositali yoki vositasiz to'ldiruvchi shaklda keladi.

Birinchi bor bahorni tanigan, birinchi varrakni uchirgan, birinchi marta xayitlik olgan,

birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanigan zamin - vatandir.

**Holli birikma** – tobe so'z hol vazifasida keladi:

Uyga shoshib kirdi (ikkita holli birikma) *uyga kirdi, shoshib kirdi*.

Maktabga piyoda jo'nadik (ikkita holli birikma) *maktabga jo'nadik, piyoda jo'nadik*.

## GAP

Fikr ifodalashning, nutqning eng kichik birligi gapdir. Gap biror voqe-a-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gapning asosini kesim va ega yoki faqat kesim

bo'laklariga aloqador **grammatik asos** tashkil etadi. Gap orqali nisbiy tugallangan fikr, tuyg'u ifodalanadi. Tugal fikr matnda to'liq namoyon bo'ladi. So'z birikmalari va so'zlar o'zaro sintaktik jihatdan birikib gapni, gaplar esa o'zaro mantiqiy jihatdan bog'lanib matnni hosil qiladi.

Gaplar quydagicha tasnif qilinadi:

1.Ifoda maqsadiga ko'ra: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

2.His-hayajon ifodalashiga ko'ra (emotsionallikka ko'ra): his-hayajon (undov)gaplar, his-hayajonsiz gaplar.

3.Modallikka ko'ra: tasdiq gaplar va inkor gaplar.

4.Grammatik asosga ko'ra: bir bosh bo'lakli gaplar (egali va egasiz gaplar) va ikki bosh bo'lakli gaplar.

5.Grammatik asos miqdoriga ko'ra: sodda gaplar va qo'shma gaplar.

## GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI

Har bir gap biror maqsadni, mazmunni ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundarijasi ifodalanadi. Fe'l kesimdag'i **mayl** va **zamon** qo'shimchalari gapning ifoda maqsadlarini hosil qilishda faol vositalardan sanaladi.

Gapda so'zlovchi biror narsa, voqeа-hodisa haqida xabar qiladi, yoki o'ziga noma'lum bo'lgan narsa va hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi. Tinglovchiga biror ishni bajarish to'g'risida buyruq-xitob ifodalaydi. Gaplarning bunday xususiyati ifoda maqsadi deyiladi. Unga ko'ra gaplar 4ta turga: darak gap, so'roq gap, buyruq gap va istak gaplarga bo'linadi.

**Darak gaplar – xabar**, darak berish mazmunini ifodalaydi. Gap oxiri pasayuvchi ohang bilan aytildi va nuqta qo'yiladi: *Yomg'ir sharros quydi. Kunsovib ketmadi.*

**So'roq gaplar**- so'roq mazmunini bildiradi. Quydagicha hosil bo'ladi:

-so'roq olmoshlari bilan: *Kim qachon keladi?*, siz qayerda yashaysiz?

-so'roq yuklamalari yordamida: *Bugun kelasan-a?*

-so'roq ohangi yordamida, bunda ko'pincha kutilmagan xabar natijasida gapdag'i biror bo'lak yoki o'sha gap takrorlanadi: *Uyda o'tiribman. Uyda?*

So'roq gaplar so'roq mazmunini ifodalashiga ko'ra sof so'roq gaplar va ritorik so'roq gaplarga bo'linadi. Sof so'roq gaplar asosan dialog shaklida bo'ladi va tinglovchidan javob talab qiladi.

- Sen bugun kinoga borasanmi?

- Ha.
- Xonada kimlar bor?
- Bolalar.

Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydi. Yashirin javobi tasdiq yoki inkor shaklida oldindan ma'lum bo'ladi: *Onani kim seymaydi? (hamma sevadi ma'nosida)*. *Go'zal yurtimizda nimalar yo'q? suv hayot manvai ekanligini kim bilmaydi?* Inkor shaklida: *Yutuqlarimizni kim inkor eta oladi? (hech kim ma'nosida)*.

**Buyruq gaplar** — kesimi buyruq — istak maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Quyidagi ma'nolarni ifodalarydi:

-sof buyruq: *Xonada chekilmasın*. Sof buyruq gaplarda kesimi majhul nisbatdagi fe'llar shakli ko'p uchraydi.

-maslahat ma'nosı: *Yaxshisi uyga bor*.

-iltimos ma'nosı: *Kitobni o'qiy qoling*.

-do'q ma'nosida: *Yo'qol! Chiqib ket!*

- so'roq — buyruq ma'nosı: bunda shaklan so'roq, mazmunan buyruq gap ifodalanadi. Masalan: *Shuni olib ketmaysizmi?* (*Shuni olib keting ma'nosida*).

**Istak gaplar** — mazmunan istak, tilak , niyat ma'nolarini ifodalarydi. Kesimi —sa shart maylidagi fe'l bilan ifodalanadi: *Qani, hamma shunday o'ylasa. Bugun bir dam olsak*.

Ba'zan 3shaxs buyruq-istak mayli shakli (-sin) orqali ham istak gap hosil bo'ladi: *Niyatimiz amalga oshsin*.

## GAPNING HIS-HAYAJON ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

**His-hayajon gaplar**- kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplarda oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Quyidagicha hosil bo'ladi:

-har qanday kuchli ohang bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq gaplar his-hayajon gap hosil qilishi mumkin: Dars bo'lmayapti. Dars bo'lmayapti? Dars bo'lmayapti!

-ba'zi so'roq olmoshlari yordamida: Qanday ajoyib manzara!

-undov so'zlar yordamida: Boy-dod! Yordam bering!

His-xayajonsiz gaplarda gaplar kuchli emotsiya bilan aytilmaydi. Darak, buyruq, so'roq, istak gaplar his-hayajonsiz gaplardir.

## INKOR VA TASDIQ GAPLAR

Inkor gaplar- inkor ma'nosini, voqeа-hodisaning, ish-harakatning yuzaga kelmaganligi ma'nosini ifodalaydi. Inkor ma'nosи quyidagicha ifodalanadi:

- yo'q so'zi yordamida: *Bugun kelgani yo'q. Menda kitob yo'q.*
- emas to'liqsiz fe'l bilan: *Bu kechagi xabar emas. U kelgan emas.*
- ma qo'shimchasi bilan: *Bugun borma.*
- shaklan tasdiq bo'lsa ham, mazmunan inkor ifodalanadi: *Imkon bo'lganda o'tirarmidim.*

Tasdig gaplar- tasdiq ma'nosini, ish-harakatning yuzaga kelganligi ma'nolarini ifodalaydi: *Bu kitobni o'qimay qo'ymaydi. Har kim o'z o'yiga berilgan edi.*

## GAPNING BO'LAKLARGA AJRATILISHI

Gapda so'zlar o'zaro grammatic munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasida mustaqil so'zlar qo'llanadi.

Gap bo'laklari 5ta: kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol.

Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga bog'lanib, undan anglashilgan belgi egasi yoki harakat bajaruvchisini ifodalaydi.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'laklari esa ega yoki kesimga tobelanib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shu sababli ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deyiladi.

Ega va kesim yoki kesimning o'zi gapning grammatic asosini tashkil qiladi: *bahor gullari erta ochildi. Ko'p yeyish zararli. Bugun yig'ilishga boriladi.*

## KESIM VA UNING IFODALANISHI

Gapni yuzaga keltirish, fikr ifodalash jihatidan kesim gapdagи eng ahamiyatli bo'lak sanaladi. Kesim gapda asosiy fikr - hukmni ifodalaydi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lak sanaladi. Kesim ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: fe'l kesim va ot kesim.

Fe'l kesim fe'lning turli shakllari bilan ifodalanadi: Odamlar tarqala boshladи. Fe'l kesimlar quyidagi shakllarga ega:

- sof fe'l kesimlar: *Halol mehnat kishini ulug'laydi.*
- ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Ishning boshi boshlanguncha.*
- sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *Yurtimizda ulkan qurilishlar boshlangan.*

Ot kesim fe'lidan boshqa turkumlar, hamda harakat nomi shakli bilan ifodalanadi:

- ot bilan: *Anvar bo'shanggina bola edi.*
- sifat bilan: *Uyat o'limdan qattiq.*
- son bilan: *Oltining yarmi - uch.*
- olmosh bilan: *Bizda odat - shu.*
- ravish bilan: *Oramizda a'llochilar ko'p.*
- harakat nomi bilan: *O'qish - hayotni tushunish.*
- modal so'z bilan: *Sizda ishim bor.*
- taqlid so'z bilan: *Hamma yoq g'ovur-g'uvur.*
- ot kesim jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigidagi so'zlar bilan ham ifodalanilishi mumkin: *Bu gullar sizga, Barcha gunoh unda.*

Qaratqich va tushum kelishigidagi so'zlar kesim vazifasida kela olmaydi.

Bundan tashqari kesim ibora bilan ham ifodalanadi: *Sobir kalavaning uchini topdi.*

Kesimlarning tuzilishiga ko'ra sodda kesim va murakkab kesimga bo'linadi.

Sodda kesimlar: bir qism (so'z)dan iborat bo'ladi. Sodda kesimlar – sodda ot kesimlar va sodda fe'l kesimlarga bo'linadi: *Ilyosning akasi - fermer. Ko'pchilik buni eshitmadi.*

Murakkab kesimlar – ikki yoki undan ortiq qismlardan tuziladi.

Murakkab fe'l kesim FE'L + FE'L tipida bo'ladi va quyidagicha tuziladi:

- fe'l + fe'l tipidagi qo'shma fe'llardan: *Do'stim opasiga kitob sotib oldi. U kecha uyiga borib keldi*

- ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan: *Nigora ko'chada do'stini ko'rib goldi. Hamma sekin tarqala boshladi.*

- sifatdosh va maqsad maylidagi fe'l va to'liqsiz fe'lli shakllardan: *U uyga borgan edi. U o'rnidan turmoqchi edi. Ko'pchilik bu xabarni hali eshitmagan edi.*

Murakkab ot kesimlar OT + FE'L tipida bo'ladi, quyidagicha ifodalanadi.

- ot + fe'l tipidagi qo'shmafe'llar bilan: (*ahd qilmoq, vada bermoq, vafot etmoq, taklif qilmoq*) *O'qituvchimiz bizdan juda xursand bo'ldi. Bola topshiriqni vaqtida bajarishga so'z berdi.*

- harakat nomi hamda *kerak, lozim, shart* kabi so'zlardan: *Har bir o'quvchi topshiriqni vaqtida bajarishi kerak. O'qituvchi dastavval tarbiyachi bo'lishi lozim.*

- ot (keng ma'noda)+ bog'lama shaklida: *Havo issiq bo'ldi. U kasal ekan.*

## BOG'LAMA

Ot kesim tarkibida qo'llanuvchi kesimlik ko'rsatkichidir. U kesim bilan egani bog'lashga xizmat qiluvchi vosita bo'lib, mustaqil ma'nosini yo'qotadi. Bog'lamalar fe'l bo'lмаган so'zlar bilan qo'llanib, kesimni shakllantiradi, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalarydi. Yakka o'zi hukm ifodalamaydi, asosiy hukm ot kesimda bo'ladi. Bog'lamani ot kesim tarkibidan tushirib qoldirish yoki almashtirish mumkin. Bog'lama vazifasida: *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq, qilmoq, edi, ekan, emish* kabi so'zları qo'llanadi: *Bu bizning maqsadimiz sanaladi (maqsadimizdir). Bizda odat mana shu edi. Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lur.*

Kesim birikmali holda ham ifodalanishi mumkin. Bunda hukm murakkab shaklda ifodalanadi, kesimning tarkibiu qismlari orasida ichki sintaktik bog'lanish bo'ladi, so'zlar o'zaro sintaktik aloqaga kirishadi: *Navoiy g'azal mulkinining sultonidir. Dadam qo'li ochiq odam edilar. Komil insonlardagi ajoyib fazilat o'tmishni unutmaslikdir.*

**Mustaqil va nomustaqil kesim shakllari.** Shaxs-son va zamon shakllaridagi fe'l kesimlar hamda bog'lamali va bog'lamasiz qo'llangan ot kesimlar mustaqil kesim sanaladi: *Jahl - dushman, aql - do'st. Bu qiz Gulnor edi. Qaydadir bo'g'otdan suv tomchilaydi.*

Shart mayli shaklidagi kesim nomustaqil kesim shakli sanaladi. Ular asosan ergashgan qo'shma gaplarda ergash gaplarning kesimi vazifasida qo'llanadi: *Agar shu ko'rghanlarini hikoya qilib bersa, hech kim ishonmaydi. Havo bulut bo'lsa ham, yomg'ir yog'madi. Mehmonlar kelishsa, biz ularni samimiy kutib olamiz.*

Istak gaplarning kesimi, garchi ular shart mayli shaklida qo'llansa ham, mustaqil kesim sanaladi: *Qani edi, hamma sizga o'xshasa. Bugun bir osh qilsak.*

## OT KESIM VA EGA ORASIDA TIRENING ISHLATILISHI

Ega va ot kesim orasida quyidagi hollarda tire qo'yiladi:

- kesim bog'lamasiz ot bilan ifodalanganda: *Mening opam — o'qituvchi.*
- kesim olmosh bilan ifodalanganda: *Hammamizning fikrimiz — shu.*
- kesim harakat nomi bilan ifodalanganda: *Bizning maqsadimiz — o'qish.*

- kesim son bilan ifodalansa: *Besh — o'nning yarmi.*

- ega va kesim bir xil so'zlardan tarkib topgan bo'lib, tenglashtirish, qiyoslash ma'nosini ifodalasa: *Sog lig'im — boyligim. Rejasiz ish — qolipsiz g'isht.*

- ega ma'nosni ta'kidlab ko'rsatilganda: *Men — intiluvchan talabaman.*

*Urush — quyon ovi emas. Sen — mening eng qadrdonimsan.*

- ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalansa: *Bu — siz uchun katta sinovdir.*

- kesim sifat yoki tartib son bilan ifodalansa tire qo'yilmaydi: *Ko'chalar egri-bugri. Bizning uyimiz beshinchi.*

- ega bilan ot kesim orasida *ham* bog'lovchisi qo'llansa tire qo'yilmaydi:  
*Bular ham odam. Karim ham talaba.*

## EGA VA UNING IFODALANISHI

Gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini anglashtiruvchi bo'lak egadir. Ega kesim orqali kim? nima? qayer? kimlar? nimalar? so'roqlariga javob bo'ladi. Bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi, ba'zan egalik, ko'plik shakllarini qabul qilishi mumkin: *Atrof jim-jit. Kishilar uni maqtashdi. Izlaganim — siz.*

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

Ot bilan: *Yoqimli shamol gul hidlarini taratdi*

Olmosh bilan: *Ular yig'ilishga borishdi. Bu - meni tug'ilgan tuproq.*

Otlashgan sifat: *Yaxshilar ko'paysin. Jazirama ertalabdan yondiryapti.*

Otlashgan son: *Biri o'qisa, biri yozadi.*

Otlashgan ravish: *Ko'pi ketib, ozi goldi*

Otlashgan sifatdosh: *O'tirganlar qarsak chalishdi. Chumchuqdan go'rqqan tariq ekmaydi.*

Harakat nomi: *Oftobda yurish foydali*

Ibora bilan: *Tirnoq ostidan kir qidirish uning odati.*

Birikmali ifodalanadi: *Vatanni sevmoq imondandir.* *Mehnat qilib topganing – qandu asal totganing.*

Sodda gaplar eganing ishtirokiga ko'ra egali va egasiz gaplarga bo'linadi. Gapning grammatik asosi ega va kesimdan iborat bo'lsa egali (ikki bosh bo'lakli gaplar), faqat kesimning o'zidan iborat bo'lsa egasiz (bir bosh bo'lakli gaplar) deb yuritiladi *O'rikzor xira pardaga burkandi. Sochilgan urug' unib chiqadi. Shaftolizor bog'larni ko'rdir. Jo'jani kuzda sanaydilar.*

## HOL

Hol ish-harakatning belgisini bildiruvchi gap bo'lagidir. Hol ko'proq gap markazi kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, sababini, maqsadini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir. Hollar ma'noga qo'ra 8 ga bo'linadi:

**1. vaziyat (ravish) holi** – ish-harakatning qanday tarzda bajarilganligini bildiradi, *qay holda? qanday? qanday qilib?* so'roqlariga javob bo'ladi. Quyidagicha ifodalanadi:

- holat ravishlari bilan: *astoydil gapirmoq, ketma-ket joylashmoq, tez yurmoq, sekin gapirmoq.*
- ravishdosh bilan: *shoshib chiqmoq, yura-yura charchamoq, tusmollab sanamoq.*

**2.O'rin holi** – ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradi *qayerda? qayerga? qayerdan?* so'roqlariga javob bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

- ot bilan: *uyga bormoq, maktabdan chiqmoq, xonada joylashmoq.*
- o'rin ravishlari bilan: *olisdan ko'rinoq, ichkarida o'tirmoq, oldinda yurmoq.*

O'rin holi o'zi ergashgan so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. O'rin holi makon, zamon kelishiklari (jo'nalish, o'rin-payt, chiqish) kelishigidagi so'zlar, ko'makchili otlar va o'rin ravishlari bilan ifodalanadi.

**3.Payt holi** - ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? so'roqlariga javob bo'ladi. Payt holi quidagicha ifodalanadi:

- payt ravishlari bilan: *yildan yilga kuchaymoq, kechadan beri kutdi, bir ozdan keyin keldi.*
- ravishdosh bilan: *qaytguncha kutdi, keta ketguncha so'radi.*
- ot bilan: *Tongda yo'nga chiqdi.*

- payt ma'noli ko'makchili so'z birikmalari bilan: *Bundan besh yil ilgari uchrashgan edik. O'sha kundan beri bu Voqeani unutolmayman.*

**4.Daraja-miqdor holi** — ish-harakatning miqdorini va darajasini bildirib, *qancha? qay darajada? necha marta? necha?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Quyidagicha ifodalanadi:

- miqdor ravishlari bilan: *ko'p o'qiydi, sal qiyndi, juda qiyndi, kam o'qiydi.*

• son bilan: *Bir gapirib o'n kuladi., Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi.*

- olmosh bilan: *shuncha kutdi, buncha kekkaydi, uncha gapirmang.*

**5.Sabab holi** — ish-harakatning yuzaga kelish sababini bildiradi, nima uchun? nima sababdan? so'roqlariga javob bo'ladi. Quyidagicha ifodalanadi.

- -lik, -sizlik qo'shimchalarini olgan otlar bilan: *Tashnalikdan lablari qaqrab ketdi. Suvsizlikdan ekinlar qurib qoldi.*

• -gani qo'shimchali sifatdoshlar bilan: *Qo'rqqanidan bir og'iz ham gapirolmadi.*

- sababli, tufayli, uchun ko'makchili qurilmalar bilan: *Tinchlik tufayli yurt obod. Yaxshi o'qigani uchun mukofotlandi.*

Shu o'rinda sabab holli sodda gaplar sabab ergash gapli qo'shma gaplardan farqlash lozim: U dars tayyorlamagani uchun kelmadi.

O'qituvchi kelmagani uchun dars bo'lindi.

**6.Maqsad holi** — ish-harakatning yuzaga kelish maqsadini bildiradi.

*Nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani?* so'roqlariga javob bo'ladi. Maqsad holi quyidagicha ifodalanadi:

- maqsad ravishdoshlari bilan: *ko'rishgani qo'l uzatdi, o'qigani kelganmiz;*

• ot+ko'makchi shaklida: *Tinchlik uchun kurashamiz.*

• sifatdosh+ko'makchi shaklida:

• harakat nomi+ko'makchi shaklida: *Qoratoy uni surishtirish uchun yelib yugurdi.*

• maqsad ravishlari bilan: *Bizlar atayin sizni izlab keldik.* Maqsad holli sodda gaplarni maqsad gapli qo'shma gaplardan farqlash lozim:

Mashina po'lat etakdag'i paxtani bo'shatish uchun chetga chiqdi.

Bola tinch uhlashi uchun xona salqin bo'lishi lozim.

**7.Shart holi** - ish-harakatning yuzaga kelish shartini bildiradi. Gapning asosi-kesimga bog'lanib, fe'lning shart mayli shaklida bo'ladi. *Mashina charchasa to'xtaydi. Talaba izlansa yutadi.*

Shart holli sodda gaplarni ergashgan qo'shma gaplardan farqlash lozim: *Havo bulut bo'lsa yomg'ir yog'adi. Men borsam, siz kelasiz.* — qo'shma gap.

*Karim o'qisa biladi. Dildora maktabni tugatsa keladi.* — shart holli sodda gap.

8. To'siqsizlik holi kesimga bog'lanib, ish-harakatning yuzaga kelishida to'siq bo'la olmagan holatni bildiradi. Fe'lning shart mayli shakli — *sa+ham* yuklamasi shaklidagi so'zlar yoki birikmalar bilan ifodalanadi: *U charchasa ham ishini davom ettirdi. Bola qancha o'qisa ham masalaga tushunmadi.*

Bunday qurilmalarni to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplardan farqlash lozim: *Havo bulut bo'lsa ham yomg'ir yog'madi.*

## TO'LDIRUVCHI

Gapdag'i biror bo'lakka, ko'pincha kesimga boshqaruv yo'li bilan birikib, uni to'ldirib, izohlab kelgan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ish-harakatga vosita bo'lgan yoki bo'la olmagan predmetni bildiradi. Masalan: *Maydonni g'o'zapoyadan tozalashdi.* To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi — belgili yoki belgisiz tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. *Kimni? nimani? qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi: *Qiz zavq bilan ashula* aytdi. *Terimchilar paxta terishyapti.* vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigidagi ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi:

- ot bilan: *Barcha bolalarni taklif qildik.*
- olmosh bilan: *Bizni teatrga taklif qilishdi.*
- otlashgan sifat bilan: *Yaxshini maqtasa yarashu.r*
- son bilan: *Uchalasini chaqirib qolishdi.*
- ravish bilan: *Hosilning ko'pini yo'qotdik.*
- sisatdosh bilan: *Bo'linganni bo'ri yer.*
- ibora bilan: *Tirnog ostidan kir qidiruvchilarni yomon ko'raman.*
- taqlid so'zlar bilan: *Qushlarning chug'ur-chug'uri* eshitildi. ✓

Vositali to'ldiruvchi — jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigi hamda ko'makchilar bilan qo'llangan ot, olmosh yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. *Kimga? nimaga? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? kim haqida? nima haqida? kim uchun? kim tomonidan?* so'roqlariga javob bo'ladi: *Yovdan qo'rqqan yovga do'st.* O'rqqanga qo'sha

*ko'rinur. Biz sen bilan ketamiz. Uyat o'lindan qattiq. Og'zi bo'shga ishonmang. Rahbarlar tomonidan ish berildi.*

## ANIQLOVCHI

Gapda biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashliligini bildiruvchi bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi bog'langan bo'lak aniqlanmish deyiladi. Aniqlovchi gapda quyidagi bo'laklarga tobelanishi mumkin:

- egaga tobelanadi: *Mayda qor yog 'ib turibdi. Qalandarovning hovlisi kattagina ekan.*
- ot kessinga tobelanadi: *Ergash ota – bizning qadrdon go'shнимиз.*
- to'ldiruvchiga tobelanadi: *Bu sovg'an o'quvchilar tayyorlashgan.*
- holga tobelanadi: *Sevimli vatanimizda bayramlar ko'p.*

Aniqlovchilar bir xil narsa-buyumning belgisini yoki narsa-buyumning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini bildirishiga ko'ra ikki turga ajratiladi: sifatlovchi aniqlovchi va qaratqich aniqlovchi.

Sifatlovchi-aniqlovchi – predmetning belgisini bildiradi. *Qanday? qanaqa? Qaysi? qancha? necha? qayerdag'i? nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi.* Quyidagicha ifodalanadi.

- sifat bilan: *Sevimli vatanimda toshqin daryodek hayot jo'sh uradi.*
- sifatdosh bilan: *Yig'ilgan odamlar ichkariga kirishdi.*
- ot bilan: *Asfalt ko'chadan mashinalar g'iz-g'iz o'tardi.*
- son bilan: *O'n beshtacha odam yig'ildi.*
- ravish bilan: *Ko'p odamlar buni bilishmaydi.*
- taqlid so'z bilan: *Chug'ur-chug'ur bolalar to'planishdi.*
- ibora bilan: *Qo'li ochiq odamlar ko'p.*

Qaratqich-aniqlovchi – *kimning? nimaning? qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Belgili yoki belgisiz qaratqich kelishigidagi shakllari mavjud: *Yigitning so'zlarini diqqat bilan tingladik. Og'zi bo'shning ichida gap yotmaydi.* Ota-onalar majlisiga yig'ildik. Shahar ko'chalarida kezdik.

## IZOHLOVCHI

Izohlovchi aniqlovchining bir ko'rinishi bo'lib, u shaxs yoki narsani boshqacha nomlaydi. Izohlovchi asosan ot bilan ifodalanadi. Izohlovchi bog'langan bo'lak izohlanmish deb yuritiladi. Izohlanmish shaxsning millati, kasbi, unBoni, jinsi, qarindoshligi kabi qo'shimcha belgilarini tavsiflab keladi:

- unvon, amalni: *Kapitan Soliev huzuriga chaqirdi. Direktor Nabiev biz bilan suhvatalashdi.*
- mashg'ulot, kasbni: *Oshpaz Halima opani anchadan beri bilamiz.*
- yosh, jins, qarindoshlik darajasini: *Chol bobo hamrohi bilan gaplashib o'tirar edi. Sobir amakim narigi mahallada yashaydi.*
- laqabni: *Asadbek suvilonni yaxshi bilaman.*
- taxallusini: *Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek Toshkentda tug'ilgan.*
- narsa-buyumning o'xshashligini: *Ona vatanimizga sodiq bo'laylik!*
- gazeta, jurnal, asarlar, muassasa va joy nomlari nomini bildirgan atoqli otlar: «*Xalq so'zi*» gazetasi, «*Nafosat*» do'konni, «*Navoiy*» romani, «*G'uncha*» dastasi.

## GAP BO'LAKLARINING TARTIBI

Gap bo'laklarining tartibi ikki xil bo'ladi: odatdag'i tartib va o'zgargan tartib.

O'zbek tilida gap bo'laklarining joylashishi tartibi erkin bo'lsa ham, ular gapda ma'lum qoidalar asosida joylashadi. Odatdag'i tartibda gap bo'laklari quyidagicha bo'ladi:

- ega oldin, kesim esa gapning oxirida keladi: *Zebi onasining javobini oldindan bilardi.*
- payt va o'r'in hollari egadan oldin keladi: *Kecha guruhimiz yig'ilishi bo'ldi. Mehmonxonadan ko'zlarini uqalay-uqalay Miryoqub chiqib keldi.*
- To'ldiruvchi egadan keyin keladi: *Kecha yosh havaskorlar bizga katta tomosha ko'rsatishdi.*
- vaziyat holi kesimdan oldin keladi: *Daryo uzoqdan jimirlab ko'rinar edi.*


O'zgargan tartib inversiya deyiladi. She'riyatda yoki so'zlashuv nutqida o'zgargan tartib qo'llangan bo'lishi mumkin: *To'xtat gapni!* (to'ldiruvchi va kesim tartibi o'zgargan). *Shamol esadi g'ir-g'ir.* (Hol va kesim tartibi o'zgargan). *Gulla, yashna, O'zbekiston!* (Ega va kesim tartibi o'zgargan).

Gap bo'laklarining odatdag'i va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanish o'rirlari bor. Odatdag'i tartib ilmiy uslub uchun xos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki nutq hamda badiiy uslub uchun xosdir.

## EGALI VA EGASIZ GAPLAR

Gapning grammatik asosi ega va kesimdan iborat bo'lsa egali gaplar, faqat kesim qismidan iborat bo'lsa egasiz gaplar deyiladi. Masalan: *Men gullarni yaxshi parvarish qilyapman. Derazadan ko'chaga tikilaman.*

Egali (ikki bosh bo'lakli) gaplarda ega ham kesim ham qatnashadi: *Uquvi yo'q har joyda qoqiladi. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi.*



Egasiz gaplar shaxs tushunchasi ifodalanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: Egasi yashiringan gaplar va egasiz gaplar. Egasi yashiringan gaplarda gapning kesimi orqali uning bajaruvchisiga - shaxsiga ishora qilinadi: *Katta tanaffusda zalga to'plandik. Sanamay sakkiz dema.*

Egasi yashiringan gaplar ikki turli bo'ladi: egasi (shaxsi) ma'lum gaplar va egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.

**Egasi (shaxsi) ma'lum** gaplarda gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shas-son shaklidan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi 1- yoki 2-shaxs shaklida bo'ladi: *Ota-onalarga yordam berdik. Otlarga qara, qarindosh.*

**Egasi (shaxsi) umumlashgan** gapda kesimi 2-shaxs shaklida bo'lsa ham, ega real ifodalanmaydi, ko'pincha maqollarda qo'llaniladi, mazmunan uchala shaxsga taalluqli bo'ladi: *Yer haydasang, kuz hayda. Avval o'yla, keyin so'yla.*

**Egasiz gaplarda** ega umuman bo'lmaydi. Kesimdag'i shaxs-son qo'shimchalari orqali egani tiklab bo'lmaydi. *To'nni bo'yga qarab bichadilar. Xom mevani yeb bo'lmaydi.*

Egasiz gaplar 3 turga: shaxsi noma'lum gaplar, atov gaplar, so'z gaplarga bo'linadi.

**Shaxsi noma'lum** gaplarda kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni

ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi uning tarkibida egalik qo'shimchasing yo'qligidir. Bu gaplarda mantiqan ish-harakat bajaruvchisi mavjud bo'ladi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi. Masalan: *Zalda chekib bo'lmaydi. Majlisda qatnashish kerak. Xonada shovqin qilinmasin.*

Atov gaplarda narsa buyumning mavjudligi yoki voqeа-hodisa atash yo'li bilan ifodalanadi. Atov gaplar so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqeа-hodisani, narsa-buyum, davr yoki joyni gavdalantirishga xizmat qiladi. Atov gapdan keyin uning mazmunini izohlovchi gap beriladi: *Qish. Sovuq shamol esyapti.* Atov gap yig'iq va yoyiq shaklda bo'ladi. Yig'iq atov gaplar bitta so'zdan iborat bo'ladi: *vahor. Dalalarda ish qizg'in.* Yoyiq atov gaplar aniqlovchi bilan kengayib keladi: *Karimlarning uyi. Hech kim ko'rinxaydi.*

Yoyiq atov gaplar kengaygan harakat nomli birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin: Sokin qishloq ko'chalarida sayr qilish. Bu mening bolalikdan sevimli mashg'ulotim.

Atov gaplar asosan badiiy va publitsistik (ommabop) uslublarda qo'llaniladi. *Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.*

## SO'Z – GAPLAR

Bir so'zdan iborat bo'lib, tarkibga ajrala olmaydigan, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga ega bo'limgan gaplar so'z – gaplardir. So'z – gaplar sodda gapning alohida bir ko'rinishi sanaladi. Ular tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, asosan dialogli matnlarda qo'llanadi. Masalan:

- *Sog'ligingiz yaxshimi?*                    — *Qabulga birga kiramizmi?*  
— *Rahmat, bolam.*                                — *Ha.*

Kishilar o'tasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so'z yoki iboralar so'z-gaplar vazifasida qo'llanadi: *assalomu alaykum, marhamat, hormang, xush kelibsiz, labbay, qulluq, yoqimli ishtaha kabi.*

## TO'LIQ VA TO'LIQSIZ GAPLAR

Gaplar o'z bo'laklarining to'la ifodalangani yoki ifodalanmay qolganiga ko'ra ikki turga bo'linadi: to'liq gaplar va to'liqsiz gaplar.

Biror bo‘lagining ifodalanmaganligi sezilmaydigan, fikr ifodasi uchun zarur barcha bo‘laklari saqlangan gaplar to‘liq gaplar deyiladi: *Oqsoqol yalt etib menga qaradi. Samarqandga bugun jo‘naymiz.*

Nutq vaziyatidan ma‘lum bo‘lgan ayrim bo‘laklari tushirilgan gap to‘liqsiz gap deyiladi. Masalan: - *Yig‘in qachon bo‘ladi?* - *Ertalab.*

To‘liqsiz gapda qaysi bo‘lakning qo‘llanilishi, qaysi bo‘lakning tushirilishi faqat nutq sharoitiga ko‘ra yuz beradi. To‘liqsiz gaplar dialoglarda, so‘zlashuv nutqida va badiiy uslubda keng qo‘llanadi. To‘liqsiz gaplarda quyidagi gap bo‘laklari tushib qolishi mumkin:

- kesim: - *Kim keldi?* - *Onam.*
- ega:- *Siz qayerdan, mehmon?* — *Toshkentdan.*
- ega va kesim: — *Biz hozir qayerdan o‘tamiz?* — *Ko‘prikan.*
- to‘ldiruvchi: — *Karimni ko‘rdingmi?* — *Ko‘rdim.*
- hol: — *Darsdan chiqdingmi?* — *Chiqdim.*

- To‘liqsiz gaplar — ko‘pincha dialoglarda qo‘llaniladi. Nutq talabi bilan ularda biror bo‘lak yoki bo‘laklar ifodalanmaydi: Sizning ismingiz nima? — Ra‘no. — to‘liqsiz gap. Demak to‘liqsiz gap nutq jarayonida mazmunan to‘lishi mumkin bo‘lgan va bo‘laklarga ajrala oladigan gapdir.

To‘liqsiz gapning yana bir turi qo‘shma gap shaklida bo‘ladi. Bunda qo‘shma gapning bir qismi to‘liqsiz gap bo‘ladi: *Na xat bor, na xabar. Na sen gapirding, na men. Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda.*

## GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI

Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bitta bo‘lakka bog‘langan bo‘laklar gapning uyushiq bo‘laklari deyiladi. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog‘lanadi: *U goh toyga, goh bolaga qaraydi.* Uyushgan bo‘laklar o‘zaro tenglanish aloqasida bo‘ladi, har bir uyushuvchi qism o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi.

Bolaga →

Toyga → qaraydi

Gapda barcha bo‘laklar uyushishi mumkin:

**Uyushiq kesimlar.** Gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklari (so‘z, ibora, birikma) bilan ifodalangan kesim bo‘lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, uyushgan qismlarning barchasiga aloqador bo‘lsa, bunday ko‘p kesimli gap uyushiq kesimli gap deyiladi. Masalan: *Siz a‘lochi va jamoatchisiz. Biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak.*

Ot kesim va fe'l kesimlar uyushib kela oladi: *Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi. U juda kamgap va qaysar edi.*

Uyushiq kesimlar bitta bajaruvchiga — egaga aloqador bo'ladi: *Shavkat o'qidi va dam oldi.*

Kesimlik shakllariga (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son) ega bo'lgan kesim alohida bir hukmni ifodalaydi, alohida gap markazini tashkil etadi. Kesimlik ko'rsatkichlari bilan shakllangan ikki va undan ortiq kesimli gaplar qo'shma gaplar sanaladi: *Men bu masalani tushunganman va uni yechganman. Hamma chuqur xo'rsindi, bir-biriga qarab qo'ydi. Qiyos qiling: Bularni mirzolarga havola qilar va javobini kutar edi. — uyushiq kesimli gap; Bularni mirzolarga havola qilardi va javobini kutar edi. — qo'shma gap.*

**Uyushiq ega.** Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Ular o'zaro tenglanish munosabatida bo'lib, gapda bitta kesimga tobelanadi: *Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladik. Tiniq suvlar, ko'm-ko'k daraxtlar unga cheksiz zavq vag'ishlaydi.*

Uyushiq egalar zidlov bog'lovchisidan tashqari teng bog'lovchilar bilan yoki sanash ohangi bilan bog'lanadi: *Goh shamol, goh bo'ron turardi. Na siz na men gapirdik. Gul va maysalar ko'kardi. Qurilishga g'isht, tsement va bo'yoqlar keltirildi. Uyda xizmatkorlar, mardikorlar ishlab yotishibdi.*

**Uyushiq hol.** Bir xil mazmun munosabatni bildirgan bir necha hollarning o'zaro sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar bilan birikib kelishi uyushiq holni tashkil qiladi: *Hamma issiqdan bo'shashib, jim, yalqovgina ishlaydi. Bog'larda va dalalarda ko'klam nafasi kezadi.*

Ba'zan gapda payt yoki vaziyat hollari ketma—ket qo'llanadi, bunda ular uyushgan sanalmaydi: *Biz bugun tongda yo'nga chiqamiz. U vazifani qunt bilan berilib bajaradi.*

**Uyushiq aniqlovchi.** Narsa buyumning bir turdag'i belgilarini bildirgan birdan ortiq aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilar sanaladi: *Ma'ruzachiga qiziq, kishini hayratda goldiradigan savollar berishdi. Bog'da qizil, pushti, sariq gullar qiyg'os ochilgan. Qaratqich va sifatlovchi-aniqlovchilar uyushib keladi: O'rik, olma, teraklar vargi sarg'aydi. Ma'ruzachiga qiziq. kishini hayratda goldiradigan savollar berishdi.*

Uyushiq aniqlovchilar o'zaro teng bog'lanadi va bitta aniqlanmishga tobelanadi.

Gapda ba'zan aniqlovchilar ketma-ket qo'llanishi mumkin. Bunda u narsa-buyumning turli jihatdan belgisini bildiradi va uyushiq sanalmaydi:

*Mashina keng ravon yo 'idan g'izillab ketdi. Katta qora sumka ko 'targan ayol kirdi.*

Uyushiq to'ldiruvchi gapda ikki yoki undan ortiq to'ldiruvchining o'zaro tenglanish munosabatida, bir xil shaklda kelishidir: *Sovuq shamol yuzimni, qo 'llarimni yalaydi. Men onam, otam va opam bilan xayrashdim.*

Gapda turli shakldagi to'ldiruvchilarning kelishi uyushiq to'ldiruvchi sanalmaydi: *U oyisi bilan telefonda gaplashdi. Bu gullarni sizga keltirdim.*

Uyushiq bo'lakli gaplarda so'zlarni jamlovchi, umumlashtiruvchi bo'lak bo'lishi xam mumkin. Bunday hollarda uyushiq bo'laklar gapning qaysi bo'lagi bo'lsa, umumlashtiruvchi bo'lak xam ana shu bo'lak xisoblanadi. Masalan: *Kishilar, xotinlar, bolalar - kutib oluvechilar* vagon bo'ylab chopdilar.

Ko'pincha belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari, jamlikni, umumiylilikni bildiradigan otlar umumlashtiruvchi so'z bo'lib keladi: *O'zini tutishi xam, ovoziyam, muloyim jilmayib turishiyam - hamma, xammasi odamlarni sehrlab qo 'yan edi.*

Umumlashtiruvchi bo'laklar uyushiq bo'laklardan oldin yoki keyin keladi. Umumlashtiruvchi bo'laklar uyushiq bo'laklardan oldin kelganda, umumlashtiruvchi bo'lakdan keyin ikki nuqta qo'yiladi: *Qudratning oldidan ikki o'rtoq'i: Ilhom va Rustam chiqib kelishdi.*

Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'lakdan keyin kelganda, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin tire qo'yiladi: *Shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so'ri - hammasi meniki.*

## AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR

Gapda o'zidan oldin kelgan bo'lakni izohlab kelgan birliklar ajratilgan bo'laklar deyiladi. Ular boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam bilan ajratiladi va gap urg'usini oladi: *O'ng tomonda, jarlikning ustida, bir qo 'rg'on ko 'rindi.*

Ajratilgan bo'laklar bir so'z yoki so'z birikmasi holida keladi: *Bolalarning eng kichigini, valini, oldin ko 'rmabman. Biz sizni, mehribon o'qituvchimizni, hech qachon unutmaymiz.*

Ajratilgan bo'lak gapdag'i qaysi bo'lakni izohlashiga ko'ra 4 turga bo'linadi: ajratilgan hollar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to'ldiruvchilar.

Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosini izohlab, bo'rttirib keladi: *Kuzda, xazonrezgi vaqtida, daraxtzorni aylanib yurardi.*

Ko‘pincha, o‘rin, payt hollari ajratiladi: *Umarali o‘ngga, kichkina ko‘chaga, tezgina burilib ketdi. Alisher bundan ikki yil ilgari, yigirma besh yoshida, Hirota yuzlandi.*

Ajratilgan to‘ldiruvchi o‘zidan oldingi to‘ldiruvchining ma’nosini izohlab keladi: *Bolalarning eng kichigini, valini, oldin ko‘rmabman. Ularning bir-birlariga, ayniqsa, kichkintoylarga bo‘lgan mehrlari menga yoqdi.*

Ajratilgan aniqlovchi shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimaga qarashliligini ta’kidlab, ayirib ko‘rsatish uchun qo‘llanadi: *G‘ulomov, yalang bosh, tollar tagida aylanib yurardi. Tepalikda bir necha kishilarning, ayol va erkaklarning, qorasi ko‘rindi.*

Ajratilgan izohlovchilar ko‘pincha egani izohlab keladi. *Otam – Jamshid G‘ulomov, zavodda ishlaydi. Navvatchi hamshira, sochi oq semiz xotin, Sadvarning kechasi ham kelganligini eslatdi.*

## GAP BO‘LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO‘LAKLAR

Nutqda gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydigan birliklar ham qo‘llanadi. Ular ma’no jihatidan gapga yoki uning biror bo‘lagiga aloqador bo‘ladi. Ularga **undalma** va **kiritmalar** kiradi.

### UNDALMA

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet undalma deyiladi. Undalma gap bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi, vergulbilan ajratiladi: *Yurak, sensan mening sozim. Bolalar, qoidaga rioya qiling.*

Undalma bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu jihatdan egaga o‘hshaydi. Lekin ega kesim bilan bog‘lanadi. Undalma esa kesim, yoki gapdagisi biror bo‘lak bilan bog‘lanmaydi. Qiyoq qiling: *Daraxtlar meni tingladilar. Daraxtlar, meni tinglang.*

Undalmalni gaplarning kesimi ko‘pincha birinchi va ikkinchi shaxsda bo‘ladi: *Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek? Seni kutamiz, Temur.*

Undalmalarning gapdagi o‘rnii erkin bo‘lib, gap boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham qo‘llanishi mumkin.

Tuzilishiga ko‘ra undalmalar yig‘iq va yoyiq bo‘ladi. Bitta so‘z bilan ifodalangan undalma yig‘iq undalma bo‘ladi: *Yo‘q, singlim, bilgani yaxshi. Aniqlovchi yoki izohlovchilar bilan kengayib kelgan undalma yoyiq*

undalma sanaladi: *O'g'lim O'rmonjon, bola bechorani cho'chitmagin. Saxyi quyosh, bizdan nuringni ayama!*

Undash ma'nosini kuchaytirish uchun ba'zan undalma takror holda qo'llanishi mumkin: *Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyot qil.*

Undash ma'nosini ko'chaytirish maqsadida yana ular oldidan undovlar ham qo'llanishi mumkin: *Hoy bola, menga qara!*

Undalma, odatda gapdan vergul bilan ajratiladi. Lekin u alohida ohang bilan ajratilib aytilsa, undalmadan keyin undov belgisi qo'yiladi: *Zafar! Oyimlar keldilar.*

## KIRITMALAR

So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabatini bildirgan bo'lak kiritma deyiladi. Masalan: *Shubhasiz, ko'priq shu yaqin joyda. Demak, ertalab uchrashamiz.* Kiritmalar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- ishonch va tasdiqni: *albatta, shubhasiz, ma'lumki, haqiqatan, darhaqiqat;*
- gumanoni bildiradi: *valki, ehtimol, shekilli;*
- shodlik yoki achinishni: *vaxtimga, afsuski, attang, esizgina;*
- fikrning qarashliliginini: *menimcha, uning aytishicha, o'ylashimcha, sizningcha;*
- fikrning tartibini: *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, oxiri;*
- fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligini: *demak, shunday qilib, aks holda, xullas, aksincha;*
- tasdiq yoki inkorni bildiradi: *ha, yo'q, mayli, to'g'ri.*

Kiritmalar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi.

Sodda kiritmalar modal so'zlar, tartib sonlar, fe'l shakllari bilan ifodalanib, so'z va so'z-gap shaklida bo'ladi: Tamom bo'ldi, **nazarimda. Qani, ichkariga kiring. Qunning tagi, aytaymi, issiq ekan.**

Murakkab kiritmalar esa so'z birikmali, kengaygan birikmalar va gaplar bilan ifodalanadi: *Mening biliishimcha, sen hali bundan bexabarsan. Gapning po'stkallasini aytganda, ertaga jo'naymiz.*

**Kiritma gaplar.** Kiritma gaplar so'zlovchi bir fikrni ifodalayotgan paytda shu fikrga oid izoh, qo'shimcha axborot berish extiyoji bilan qo'llanadi. Kiritma gaplar yozuvda qavs ichida, ba'zan vergul yoki tirelar bilan ajratilgan holda beriladi. Talaffuzda ular kichik to'xtamlar va ovoz balandligi bilan ajratiladi: *Bugun biznikiga kursdoshim Nabi (siz uni taniysiz) kiritib keldi.* Kiritma gaplar juda keng qo'llaniladigan soha dramatik

nutqdir. Bu nutqda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan uning nutqi oralig‘idagi qavslarda) ko‘rsatiladi: *Omon (o‘qyidi va qotib-qotib kuladi). Bunisi ham shunaqa.*

Kiritma gaplar asosan gap ichida yoki oxirida qo‘llanadi: *Mahbuba bilan Saodat (o‘shanda hali tong yorishmagan edi) dalaga yo‘l olishdi.*

## SODDA VA QO‘SHMA GAPLAR

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo‘lgan gap sodda gap, ikki yoki undan ortiq sodda gapning o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega bo‘lgan butunlik qo‘shma gap sanaladi: *Odam borki, fikr yuritish qobiliyatiga ega. Mutafakkir so‘zining o‘zagi ham fikrdir, lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan mutafakkir so‘zini qo‘llab bo‘lmaydi.*

Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo‘shma gaplarga ajratishga asos bo‘ladi. Qo‘shma gaplar tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi bo‘ladi: *Uning qovoqlari yonardi-yu, lekin ko‘zlarida nam ko‘rinmasdi.* Shuningdek, kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan birdan ortiq kesimli gaplar ham qo‘shma gap sanaladi: *Men bularning barchasini bilaman va hurmat qilaman. Birdan iliq shamol esdi va maysalarni silkita boshladi.*

## QO‘SHMA GAP QISMLARI VA ULARNI BOG‘LOVCHI BOSITALAR

Qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplarni biriktirish uchun xizmat qiladigan vositalar bog‘lovchi vositalar hisoblanadi. Qo‘shma gap qismlari quyidagi bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi. 1.Bog‘lovchilar: a) teng bog‘lovchilar (*va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo..., yo, dam..., dam...;*) b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar: *toki, chunki, negaki, agar, garchi* 2. Bog‘lovchi vazifasidagi vositalar: a) *bo‘lsa, esa, deb;* b) *-u, -yu, -da, -ki, mi* yuklamalari; d) nisbiy so‘zlar; ye) *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli* singari ko‘makchili qurilmalar; s) shart mayli qo‘shimchasi (*-sa*). 3.ohang.

## QO‘SHMA GAPLAR TASNIFI

Qismlarining qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar uch guruhga bo‘linadi: 1.Bog‘langan qo‘shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar. 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. *Goh shamol bo'ladi, goh yomg'ir yog'adi. varaka top, jiyan. Sen borsan, ko'nglim to'q. Shu mashina haydashni o'rganib olsang, juda soz bo'lardi.*

## BOG'LANGAN QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

Qismlari teng bog'lovchilar, *bo'lsa, esa so'zлari, -u, -yu, -da* yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi. Ularning qolipi quyidagicha:

*teng bog'lovchilar*  orqali ifodalanadi. *Sarbon shundoq dedida, quchog'ini ochib Abu Bakr tomon kela boshladi.*

## BIRIKTIRUV BOG'LOVCHISI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

Biriktiruv bog'lovchisi qo'shma gapning payt, sabab natija munosabatlarida bo'lgan qismlarini bog'lab keladi. *va, ham, hamda, -da, -u, -yu* vositalari yordamida birikadi.

Qismlari o'rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan natijada so'zini qo'shish mumkin bo'ladi: *Anor so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar – Anor so'zlar (va) natijada Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* (*Hamid Olimjon*) Qismlari o'rtasida payt munosabati ifodalangan biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplarda ketma-ket yoki bir paytda bo'lgan voqeа-hodisa ifodalanadi: *To'satdan eshik sharaqlab ochildi vaostonada ErtoeB paydo bo'ldi.* (ketma-ket yuzaga kelgan voqeа). *Tashqarida chaqmoq chaqar va yomg'ir yog'ardi.* (bir xil paytda yuzaga kelgan voqeа).

*-u, -yu, -da* yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilar bajargan vazifalarni bajaradi. *U har uch qadamda bir to'xtab, nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu, muvozanatni saglay olmay o'tirib oldi.*

## ZIDLOB BOG'LOBCHILARI YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

Zidlov bog'lovchilar bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodelaydi.

Zidlov bog‘lovchilari – *ammo, lekin, biroq, balki* – qo‘shma gapning ikkinchi qismi boshida qo‘llanadi va qo‘shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi: *Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi.*

–*u*, –*yu* yuklamalari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida zidlash munosabati mavjudligini bildiradi: *Havo ochildi-yu, quyoshning harorati sezilmadi.*

Ba‘zan zidlik mazmunini kuchaytirish uchun zidlov bog‘lovchisi va bu vazifada qo‘llangan –*u*, –*yu* yuklamasi birga ishlatiladi: *Kechasi qalin qor yog‘di-yu, lekin havo unchalik sovimadi.*

## **AYIRUV BOG‘LOBCHILARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR**

Ayiruv bog‘lovchilari qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga ularda ifodalagan Voqeа-hodisalarning galma-gal ro‘y berishini yoki ulardan faqat bittasining yuzaga chiqishini ta‘kiddlaydi. Yo (*yoki*) bog‘lovchisi yolg‘iz holda ham, takror holda ham qo‘llanilishi mumkin: *Bugun darsdan keyin yig‘ilish bo‘ladi yoki shanvalik uyushtiramiz. Yo zardo‘zi to‘ning to‘zibmi qoldi, yo so‘kildimi suvsar telpaging. Bu bog‘lovchilar yakka holda qo‘llanganda hech qanday tinish belgisi qo‘yilmaydi.*

*Goh ... goh, dam ... dam, ba‘zan ... ba‘zan, bir ... bir ayiruv bog‘lovchilari takror holda qo‘llaniladi va yozuvda takror qo‘llanilayotgan bog‘lovchidan oldin Vergulqo‘yiladi. Uzoqlardan keng Bodiy quchog‘ida goh ko‘m-ko‘k o‘t bosib yotgan yaylovlar ko‘rinadi, goh qop-qrorg‘i daralar ko‘zga tashlanadi. Bir shamol bo‘ladi, bir yomg‘ir yog‘adi.*

Ayiruv bog‘lovchilari qo‘shma gap qismlarini ham, gapning uyushiq bo‘laklarini ham bog‘laydi. Qiyos qiling: *Botir goh menga, goh onasiga hayron bo‘lib qaraydi. – Goh ashula eshitiladi, goh zalni to‘dirib qarsak yangraydi.*

## **Bo‘lsa, esa SO‘ZLARI YORDAMIDA BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR**

*Bo‘lsa, esa so‘zlari bog‘langan qo‘shma gap qismlarini bog‘lash bilan birga, ular o‘rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. Bo‘lsa, esa so‘zlari qiyoslanuvchi bo‘lakdan so‘ng keladi. Tovus*


*o‘zining chiroyli patlarini ehtiyyot qiladi, vijdonli odam esa o‘zining sharafu shonini saqlaydi. Yaxshilik obro‘ keltiradi, yomonlik bo‘lsa zulmatga olib boradi.*

## ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR


Qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki shunday bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar ergashgan qo‘shma gaplar hisoblanadi. *Agar qiz bo‘lsang, otingni Kimsanoy qo‘yaman, agan o‘g‘il bo‘lsang, Kimsanboy qo‘yaman. Sayramov to‘g‘on boshiga kelganda, bu yerda ish qaynamoqda edi.*

## BOSH VA ERGASH GAP

Ergashgan qo‘shma gaplar, tarkibida nechta gap bo‘lishidan qat’i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap. Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap hisoblanadi. Ergashgan qo‘shma gaplar, asosan, quyidagi qoli pda ifodalanadi:



Ergashgan qo‘shma gaplar tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmalariga o‘xshaydi. Ular ham tobe va hokim qismdan tarkib topadi:



*Agar arqondan qo‘llari chiqib ketsa, to tuman tarqalguncha yo‘l topolmay sarson bo‘lib yuraveradilar.* So‘z birikmasi tarkibidaga so‘zlar nechta bo‘lishidan qat’i nazar ikki qismdan – hokim va tobe so‘zlardan tashkil topadi: *toza havo, o‘qilgan kitob, tez yurmoq.*

Ergash gap bosh gapdan oldin, bosh gapdan keyin, bosh gap ichida kelishi mumkin: *Siz shuni unutmangki, kurashchilar yolg‘iz emas. Hali gul ochilmagan bo‘lsa ham, stol ustiga katta guldasta qo‘yilgan edi. O‘qituvchi, bolalar kelgach, darsga kiradi.*

## ERGASH GAPNI BOSH GAPGA BOG‘LOVCHI VOSITALAR

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog‘lanadi: 1) ergashtiruvchi bog‘lovchilar; 2) ko‘makchili qurilmalar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli va boshqalar); 3) yuklamlamalar

(*-ki, -mi*); 4) nisbiy so‘zlar (*kim – o’sha, nima-shu, qayer-shu* yer va boshqalar); 5) *deb* so‘zi va boshqalar. *Shunday yaxshi odatlarimiz borki, ularga hurmat bilan qarash lozim. Mahkam bog‘lang mehnatga bel, chunki mehnat bilan ko‘karar el.*

## ERGASHTIRUVCHI BOG‘LOVCHILI ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, shart yoki qiyosini bildirgan ergash gaplar bosh gapga sabab(*chunki, negaki*), maqsad(*toki*), shart (*agar, agarda, basharti, mabodo*), qiyoslash-chog‘ishtiruv (*go‘yo, go‘yoki, xuddi*) ergashtiruvchi bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi. Sabab, maqsad, qiyoslash-chog‘ishtiruv bog‘lovchilari ergash gap boshida qo‘llanada va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi: *Bu masalani keng muhogama qilamiz, toki boshqa gaytarilmasin. Odobli odam tabibga o‘xshaydi, chunki u bilan suhvatalashish ko‘ngildagi g‘amni quvadi.*

Shart bog‘lovchilari gapning boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi. Ko‘pincha shart bog‘lovchilari qo‘llanmasa ham, va shart mayli shakli qo‘shma gap qismlarini bog‘layveradi: *Ozgina hovliqib turishsa ham, cho‘chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga yarasha bo‘ladi.* (*M.M. Do‘st*)

## KO‘MAKCHILI QURILMALAR YORDAMIDA ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga *shuning uchun, shu sababli, shu tufayli* singari ko‘makchili qurilmalar vositasida bog‘lanadi. Ular bosh gapning tarkibida keladi. *Xalq Yusufbek xojidan zarra yomonlik ko‘rmagan, shuning uchun u qayoqqa yursa, shu yoqqa borishga hozir turar edi.*

## Deb SO‘ZI YORDAMIDA ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLAR

Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko‘pincha *deb* so‘zi yordamida bog‘lanadi va

ergash gaplarning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalananadi. Bunday gaplar tarkibidagi deb so'zi *uchun* ko'makchisi bilan ma'nodosh sanaladi, shuning uchun bir-biri bilan erkin almashisha oladi. Ergash gaplar yozuvda bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. *Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga.*(H. Olimjon)

## SHART MAYLI VOSITASIDA ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar orqali ifodalanganda, shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik shartini, paytini bildiradi. Yozuvda ergash gap bosh gapdan Vergulbilan ajratiladi. *Erga mehringni bersang, u senga rizq beradi.* - shart ma'nosi; *Yolg'iz qolsak, u menga hech narsa gapirmaydi.* – payt ma'nosi.

## KO'RSATISH OLMOSHLI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga –ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan Vergulbilan ajratiladi. *Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib vahra olasan.* Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi ham mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi: *Men istaymanki, hamma o'z vazifasini Bijdonan bajarsin.*(*Men shuni istaymanki...*)

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarda bosh gap oldin keladi: *vaxtim shuki, seni uchratdim. Shunisi quvonarlikni, sinfimiz o'quvchilari bir-biri bilan axil.*

## NISBIY SO'ZLI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi *kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer* kabi so'roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo'lib keluvchi *shu, o'sha, shuncha, shunchalik, shunday* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo'llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so'zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi

fe'llar bilan ifodalanadi. *Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib, bir kitob yozmog'ingiz darkor. Kim harakat qilsa, u varaka topadi. Nimaga erisholmasang o'sha aziz tuyuladi.*

## **ERGASHGAN QO'SHMA GAPLARNING SODDA GAP BILAN MA'NODOSHLIGI**

Tarkibida ko'rsatish olmoshi mayjud bo'lgan ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo'lagi o'rniga qo'yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin. Masalan: 1. *Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi – ko'p o'qigan ko'p biladi.* 2. *Shuni bilingki, kenga keng, toga tor dunyo – dunyoning kengga keng, torga tor ekanligini bilib oling.* *Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin.- Siz ishonch bildirgan kishini sherik qilib olishim mumkin.*

### **KESIM ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR**

Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga – kesim ergash gap deyiladi. Kesim ergash gap bosh gapga ko'rsatish olmoshi tarkibidagi –*ki* yuklamasi yordamida bog'lanadi. *Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz.*

Kesim ergash gapli qo'shma gapda bosh gapning kesimi *shuki, shundayki, shundan iboratki, shundai, shu bo'ldiki, shu ediki* kabi shakllanadi. Bosh gap ergash gapdan oldin keladi: *Maslahatim shuki, bugun o'zga bir go'shaga chekining. Qizig'i shundai, u hali bundan bexabar ekan. Bizda shundayki, o'zidan kichiklarni ham sizlashadi.*

### **EGA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR**

Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gapga ega ergash gap deyiladi. Bunday ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar (*kim-o'sha, nima-o'sha* kabi) yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi - *ki* yuklamasi yordamida bog'lanadi. Gap qismalari nisbiy so'zlar yordami bog'langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi va ergash gap bosh gapdan oldin keladi: *Kimki ilm urug'ini sepsa, u ulug'lik mevasini teradi. Qozonga nima tushsa, cho'michga ham o'sha chiqadi.*

Gap qismlari –ki yordamida bog‘langanda esa ega ergash gap bosh gapdan keyin keladi: *Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o‘z faoliyatini to‘xtatmaydi.*

Ba’zan bosh gapning egasi vazifasidagi ko‘rsatish olmoshi qo‘llanmasligi mumkin, ammo uning o‘rnii bilinib turadi: *Bu savollardan ma’lum bo‘ldiki, aybnoma uydirma emas.* (*Bu savollardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki...*)

## HOL ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo‘llangan qo‘rsatish olmoshining ma’nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni bildirgan ergash gaplarga hol ergash gap deyiladi. Hol ergash gaplar bosh gapga nisbiy so‘zlar, shart mayli shakllari; sabab, maqsad, shart bog‘lovchilar; *deb* so‘zi yordamida bog‘lanadi. Hol ergash gaplar holning ma’no turlariga mavofiq o‘z ichida payt, o‘rin, sabab, maqsad, shart, miqdor-daraja ergash gaplar singari bir necha turlarga bo‘linadi. *Oqsoqol qayerda bo‘lsa, o‘sha joyda ish bir tartibda borardi.*

## SABAB ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP

Sabab tobe gap bosh gapdagagi ish-harakatning yuzaga kelish sababini bildiradi. Quyidagicha bog‘lanadi:

- chunki bog‘lovchisi bilan: *O‘rtoqlarim izzat-hurmat qilishadi, chunki u ko‘p narsa biladi.*
- shuning uchun birikmasi yordamida: *Har kun otar ko‘zlarimdan nur, shuning uchun yo‘q aslo g‘amim.* -ki yuklamasi bilan baxtim borki xamma narsa go‘zal.
- -ib ravishdoshi bilan: *Kunlar soyib, dala ishlari to‘xtadi*
- -may ravishdoshi bilan: *Ishlari yurishmay, Salim qishloqdan ketdi.*
- -gan + dan shaklida: *Bu uylar ilgari qurilganidan darchasi xam yo‘q edi.*
- -gani uchun: *Kun issiq bo‘lgani uchun biz ishni to‘xtatdik*
- shekilli so‘zi bilan: *U qiziq gap aytdi shekilli Jo‘raeB kulib yubordi.*
- o‘tgan zamon shakli *di* + *deb* shaklida: *O‘rtoqlarim kutib qolishdi deb tezda ko‘chaga chiqdim.*

## SHART ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiradi. *Agar siz menga o'rgatsangiz men uddalab ketaman.* Shart tobe gap “a” bo'lganda edi “b” bo'lar edi. “a” bo'lmasa “b” bo'lmaydi» qolipidabo'ladi: *Qalb salomat bo'lsa fikr ham salomat bo'ladi*. *Agar u yaxshi tarbiya ko'rganda edi, bugun uni qamoqda ko'rmasdingiz.*

Shart ma'nosini ta'kidlash uchun tobe gap tarkibida *agar, bordi-yu, vasharti, mabodo bog'lovchilari ham qo'llanilishi mumkin. Bordi-yu xat to'g'risida bir og 'iz gapirilsa, Saidiy hammasini aytib beradi.*

## TO'SIQSIZ ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Bosh gapdagi mazmunga zid bo'lsa ham, unda ifodalangan Voqeahodisaning yuzaga kelishiga to'siq bo'la olmagan holatni ifodalaydi: *Quyosh porlab tursa ham, kun ancha sovuq edi.*

To'siqsiz tobe gap quyidagicha bog'lanadi.

-sa + ham, -sa + da yuklamasi shaklida. *Qo'rg'onimiz kichik bo'lsa ham, ichida bir tup o'rik bor. Kechalari salqin bo'lsa-da, kunduzi quyosh porlaydi.*

-ga + qaramay ko'makchisi shaklida: *Farrux ko'p qistashiga qaramay, Jamol hech narsa demadi.*

## NATIJA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini bildiradi: *Do'l shunday yog'diki, yer oppoq bo'lib ketdi.*

-ki yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibida *shunday, shu qadar, shu darajada, chunon so'zлari qo'llanadi: U shunday kuldiki, hech kim chidab turolmadi. Opa haqida shu qadar zavqlanib gapirdiki, hamma mahliyo bo'ldi*

## O'XSHATISH ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilishini o'xhatish yo'li bilan izohlaydi: *Quyosh tongni isitganday, do'stlik qalbni isitadi.*

Ergash gap bosh gapga -day, -dek, xuddi, misli kabi vositalar bilan bog'lanadi. *Bu xonaga shunday jimlik cho'mganki, go'yo unda xayot yo'q deysiz.*

## TO'LDIRUVCHI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Bosh gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gaplarga to'ldiruvchi ergash gaplar deyiladi. To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi *-ki* yuklamasi yordamida bog'lanadi. Gap qismlari nisbiy so'zlar yordamida bog'langanda, ergash gap kesimi shart mayli shaklida fe'llar bilan ifodalananadi va to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan oldin keladi: *Kimki bo 'Isa dilozor, undan elu yurt bezor.*

Gap qismlari *-ki* yordamida bog'langanda esa to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi, bosh gap tarkibida shunday, ayrim, ba'zi kabi olmoshlar qo'llanadi: *Shunday bino quraylikki, avlodlarga meros qolsin. Ayrim oilalar borki, tarbiyaga e'tibor berishmaydi.*

Ba'zan bosh gapning to'ldiruvchisi vazifasidagi ko'rsatish olmoshi qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi. *Ahmadjon biladiki, dushman bu tepalikni haddan tashqari qattiq o'qqa tutdi. (Ahmadjon shuni biladiki...)*

## ANIQLOVCHI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Bosh gap tarkibida aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gaplarga aniqlovchi ergash gap deyiladi. Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yoki bosh gap kesimi tarkibida qo'llaniluvchi *-ki* yuklamasi yordamida bog'lanadi.

Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapga nisbiy so'zlar yordamida birikkanda ergash gap bosh gapdan oldin keladi, ergash gap tarkibida *qanday, qaysi, kimning* kabi olmoshlar, bosh gap tarkibida esa *shunday, shu, o'sha, uning* olmoshlari qo'llanadi: *Qaysi oilada totuvlik bo'lsa, u oila doim varakali bo'ladi. Kimning dili to'g'ri bo'lsa, uning tili to'g'ri bo'ladi. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi.*

*-ki* yuklamasi vositasida birikkanda bosh gap doim oldin keladi, bosh gap tarkibida shunday, ayrim, ba'zi kabi olmoshlar qo'llanadi: *Shunday inson haqida xabar keltirdimki, har bir so'zi bevaho gavhardir. ba'zi o'quvchilar borki, mas'uliyat nimaligini bilishmaydi.*

Ba'zan bosh gapning aniqlovchisi vazifasida kelgan *shunday, shunaqa* kabi so'zlar qo'llanmasligi mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi: *Odam borki, odamlarning naqshidur.*

## BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

Tarkibidagi sodda gaplar mazmuni bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sanaladi.



Tahlilda bog'lovchisiz qo'shma gaplar bir-biri bilan to'g'ri chiziq bilan bog'langan ikki to'rtburchak orqali ifodalanadi. Bu bog'lovchisiz qo'shma gap qolipi sanaladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi.

1. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan Voqealarni ifodalasa, ular orasiga Vergulqo'yiladi. *Yigitlar daraxtlarning ostini yumshätdilar, qizlar maktab hovlisini supurdilar.*

2. Qo'shma gap qismlari orasida o'xhatish, zidlash, shart kabi munosabatlari ifodalanganda ular orasiga tire qo'yiladi. *Hamal keldi-amal keldi.(o'xhatish ma'nosi) Ko'z qo'rqoq. – qo'l botir.(zidlik ma'nosi) Yurt tinch – sen tinch. (shart ma'nosi)*

3. Qo'shma gap qismlari orasida izohlash munosabati ifodalanganda, ular orasiga ikki nuqta qo'yiladi. *Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.*

4. Qo'shma gap qismlari mazmunan unchalik yaqin bo'Imagan yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqealarni bildirgan va bir necha tinish belgilari qo'llangan hollarda nuqtali vergul shlatiladi: *Hadicha xola bolatik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'mdi, duo qildi; irim qilib kuzatgani chiqmadidi.*

## QO'SHMA GAP TURLARINING MA'NODOSHЛИGI

Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplar bilan ham ifodalanishi mumkin shunga ko'ra ular bir-biriga ma'nodosh bo'la oladi. Masalan:

*Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi.* – bog‘lovchisiz qo‘shma gap  
*Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi.* – bog‘langan qo‘shma gap  
*Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi.* – ergashgan qo‘shma gap.

## MURAKKAB QO‘SHMA GAP HAQIDA MA’LUMOT

Turli bog‘lovchi vositalar yordami bilan o‘zaro bog‘langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi murakkab qo‘shma gap sanaladi.

Murakkab qo‘shma gaplar to‘rt guruhga bo‘linadi: 1. Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplar. 2. Bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gaplar. 3. Aralash murakkab qo‘shma gaplar. 4. Qismlari uyushgan murakkab qo‘shma gaplar. *Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir:* (1) *quyosh lovullab qizdiradi-yu*, (2) *atrof uylar bilan o‘ralganligi uchun*, (3) *qilt etgan shavada yurmaydi*. (4) Ushbu gap 4ta qismdan iborat bo‘lib, qismlar orasida tenglanish va tobelanish munosabati mavjud. *Kishining yolg‘onchiligi mashhur bo‘lib qolgach*, (1) *u har qancha chin gapirsa ham*, (2) *kishilar ishonmaydigan bo‘lib qoladilar*. (3). Mazkur gap 3ta qismdan iborat bo‘lib, qismlar faqat ergashish yo‘li bilan birikkan.

## BIR NECHA ERGASH GAPLI MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplari mavjud bo‘lgan qo‘shma gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap sanaladi. *Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo‘lsin, turmushimiz farovon bo‘lsin, mustaqilligimiz varqaror bo‘lsin*. Ushbu gap 3ta qismdan iborat bo‘lib, Bosh gap oldin qo‘llangan, unga 2ta to‘ldiruvchi ergash gap tobelangan. *Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo‘lsa, har kim o‘z haqini tanisa va o‘zini o‘zi himoya qilsa, demokratik jamiyatga erishgan bo‘lamiz*. Ushbu gapda 3ta shart ergash gap bosh gapga tobelangan, bosh gap keyin qo‘llangan.

## BIR NECHA BOSH GAPLI MURAKKAB QO‘SHMA GAPLAR

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gaplari mavjud bo‘lgan qo‘shma gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo‘shma gap sanaladi. *G‘anim*

*kelsa, xonu moni kul bo 'lur, o 'z yurtida pachaqlash ma 'qul bo 'lur.* Ushbu gapda bitta shart gapdan keyin ketma-ket 2ta bosh gapning mazmuni izohlangan. *Butun dunyoga ma 'lumki, siz ham shuni unutmangki, Orolni asrash hammamizning burchimiz.* Ushbu gapda 3-qism ergash gap bo 'lib, oldinda qo 'llangan 2ta bosh gapni izohlab kelgan.

## ARALASH MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR

Tarkibida ergashgan, bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lgan gaplar aralash murakkab qo'shma gaplar sanaladi. *Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan.* Ushbu gap 3ta qismdan iborat bo 'lib, 1-va 2- qismlar payt ergash gap + bosh gap shaklida, 2- va 3- qismlar esa zidlov munosabatlil bog'langan qo'shma gap shaklida tuzilgan. Ushbu misollarga diqqat qiling: *Shuni unutmaki, sen yer farzandisan, va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko 'zları dumaloq shakl odam edi.*

## QISMLARI UYUSHGAN MURAKKAB QO'SHMA GAPLAR

Bir turdag'i uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar sanaladi: *Umrimning anchagina qismi harbiy ishlarda o 'igan, men bu yerda hech qanday qiyinchilik tortmayman, lekin sog 'ligim o 'z hukmini o 'kazib turibdi.* Ushbu gap 3ta qismdan iborat bo 'lib, qismlar orasida faqat tenglanish aloqasi mavjud.

## KO'CHIRMA GAPLI QO'SHMA GAP HAQIDA MA'LUMOT

So'zlovchi ba'zan o'z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap, so'zlovchining gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gapga ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi: *Bir kuni Durroj tuzoqqa tushib qoldi. U ovchiga yalinib dedi: "Sen meni qo'yib yuborsang, barcha do 'stlarimni aldab kelib, tuzog 'ingga tushirib beraman".*

Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga qo'llanadi. Muallif gapining kesimi dedi, deb so'radi, deb javob berdi, gapirdi, so'zлади, aytdи, buyurdi kabi nutq fe'llari bilan ifodalananadi.

Ko‘chirma gap so‘zlashuv va badiiy uslubda ko‘proq qo‘llanadi.

Ko‘chirma gapning o‘rni quyidagicha bo‘ladi:

- ko‘chirma gap muallif gapidan oldin keladi: «*Mehnat bilan topilgan non shirin bo‘ladi*», - *deydi bobom*.

• ko‘chirma gap muallif gapidan keyin keladi: *Qo‘ziboy dedi*: «*Men maymunjon teogani shu yerga kelgan edim*».

• ko‘chirma gap muallif gapining ichida keladi: *Onam buvimga qarab: «Ko‘ying, o‘qisin, mulla bo‘lsin»*, - *dedi*.

• muallif gapi ko‘chirma gap ichida keladi: «*Ko‘p martalab mehmon bo‘ldim*, - *dedi Qutidor*, - *ul vaqtida bobongiz ham hayot edilar*».

## KO‘CHIRMA VA O‘ZLASHTIRMA GAPLAR

O‘zganing gapi hech o‘zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gap ko‘chirma gap, mazmuni saqlanib, shakli o‘zgartirilgan gap o‘zlashtirma gap hisoblanadi:. Misollarni qiyos qiling: O.Hojieva yozadi: « Xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtiradi, uning kuch-qudratini imtihon qiladi». - ko‘chirma gap; *O. Hojieva xalqni og‘ir sinovlar, mashaqqatlar, ulug‘ o‘zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi*. - o‘zlashtirma gap.

## KO‘CHIRMA GAPLARNI O‘ZLASHTIRMA GAPGA AYLANTIRISH

Ko‘chirma gap o‘zlashtirilma gapga aylantirilganda, ko‘chirma gapli qo‘shma gap sodda gap shaklini oladi. *Haydarov otadan so‘radi: «Qayergacha quvib bordingiz?»* - *Haydarov otadan qayergacha quvib borganligini so‘radi*.

Ko‘chirma gap quyidagi shakliy o‘zgarishlar bilan o‘zlashtirma gapga aylanadi:

• darak gap shaklidagi ko‘chirma gap kesimi tushum kelishigidagi sifatdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to‘ldiruvchiga aylanadi: «*Qo‘li gullar cho‘lni bo‘ston etar*», - *dedi bobom*. — *Bobom qo‘li gullar cho‘lni bo‘ston etishini aytdi*.

• ko‘chirma gapning egasi o‘zlashtirma gapda qaratqich aniqlovchiga aylanadi: *Bola dedi*: «*O‘zim ham boshqa mamlakatdan kelib qolganman*». — *Bola o‘zining boshqa mamlakatdan kelib qolganligini aytdi*.

- muallif gapining kesimi – dedi - o'zlashtirma gapda – aytdi – so'zi bilan almashtiriladi: «*Kitob – aqlning kaliti*», - *dedi o'qituvchimiz – O'qituvchimiz kitobning aql kaliti ekanligini aytdi.*
- muallif gapining egasi ko'chirma gap egasi bo'lib, gap boshida keladi: «*Asli ismim Akramjon*», - *dedi yigit. – Yigit asli ismi Akramjon ekanligini aytdi.*
- so'roq, buyruq shaklidagi ko'chirma gaplar o'zlashtirma gapda darak gapga aylanadi: *O'ktam so'radi: «Qanday yangiliklar bor?» – O'ktam qanday yangiliklar borligini so'radi.*
- ko'chirma gap tarkibidagi undalma o'zlashtirma gapda chiqish kelishigi shaklidagi to'ldiruvchiga aylantiriladi: «*Nodira, bugun biznikiga kelmaysanmi?*» - *deb so'radi Fotima. – Fotima Nodiradan bugun ularnikiga kelishini so'radi.*
- ko'chirma gap tarkibidagi undov, kirish so'zlar tushirib qoldiriladi: «*Etib keldik, shekilli*», - *dedi Ochil. – Ochil yetib kelishganini aytdi.*

## NUTQ USLUBLARI HAQIDA MA'LUMOT

Uslubiyat – tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, nutq jaoayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi, nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubigi oslanish-xoslanmaslik belgisigi ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlar sanaladi. Masalan: *qish, mактаб, yомғыр, eski, yangi, о'qish, ishlamoq, men, biz, bormoq, ko'cha* kabi so'zlar uslubiy betaraf so'zlar bo'lib, barcha uslublarda qo'llana oladi. *Taklif qildi, jilvalandi, zimiston, tavassum* kabi so'zlar kitobiy uslubga, *do'ndirdi, misol uchun, maza, qaytlaring* kabi shakllar esa uslubiy xoslangan – faqat so'zlashuv uslubiga xos so'zlardir.

Nutq so'zlovchining til materiallari bilan fikr ifodalash vositasidir. Nutq hissiy-ta'siri ifodalangan bo'lishi yoki usiz betaraf ifodalangan bo'lishi mumkin. Masalan: *Rais ularning qо'ynini puch yong'ogga to'latib jo'natdi. Rais ularni aldab jo'natdi.* Bu birliklarning birinchisida fikr hissiy-ta'siri bo'yoq bilan, ikkinchisida esa bo'yoqsiz ifodalangan. *Daroz, to'la, vadbashara, iflos, tirjaymoq, yoqimtoy* kabi so'zlar uslubiy bo'yoqdor so'zlardir.

O‘zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud:

- 1.So‘zlashuv uslubi
- 2.Publitsistik uslub
- 3.Ilmiy uslub
- 4.Rasmiy uslub
- 5.Badiiy uslub

Bulardan so‘zlashuv uslubi og‘zaki; qolganlari yozma nutqqa xosdir. Nutq uslublarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasiga uslubshunoslik deyiladi. *Arabshunos olimlardan Istahriy, Ibn Havqal, al-Muhaddasiy va boshqalar Shosh Biloyati haqida yozganda uning markazi Binkat shahri deb ko‘rsatganlar. Binkat hozirgi Hadra, Eski Jo‘va va Chor su oralig‘ida bo‘lgan.*

## SO‘ZLASHUV USLUBI

Bu uslub keng qo‘llanadigan uslublardan biridir. Oilada, ko‘chako‘yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi sanaladi. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi. Adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilingan so‘zlashuv uslubi adabiy so‘zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo‘limgan so‘zlashuv uslubi esa oddiy so‘zlashuv uslubi hisoblanadi. So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi diologik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi: *—badbaxt fitna! Qo‘yasamni—go‘ymaysamni axir?*

Unli tovushlarni cho‘zish (kelaqo...l, bo‘...l), ayrim undosh tovushlar orttirilishi (maza, haqqing yo‘q, huvvv) kabi holatlar kuzatiladi.

Bu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati gap bo‘laklari tartibi erkinligidir. Bu uslubda ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

## PUBLITSISTIK USLUB

Ommaviy axborot vositalari uslubi, tashviqot-targ‘ibot ishlari olib borishda foydalanadigan nutq tili publitsistik uslub hisoblanadi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta’sir qilish bo‘lib, soddalik, tushunarlik ta‘sirchanlik adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilishdir. Bu uslubda *reja, anjuman, farmon, iyro, kengash, ishtirokchi, hukumat, davlat* kabi ijtimoiy – siyosiy so‘zlar keng qo‘llanadi.

Publitsistik uslubning ham og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Radio — teleBidenie uslubi publitsistik uslubning og‘zaki shaklidir, gazeta, jurnal uslubi esa yozma shaklga hosdir. *Bahor... bu kun olam uyg'onmoqda. Ana yam-yashil maysalar xuddi jippi qizaloqlar kabi qiqirlab bosh ko 'tarmoqda.*

## BADIY USLUB

Badiiy asarlar tili badiiy uslubda bo‘ladi. Ma’lum bir vogelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta’sir etuvchi nutq uslubi badiiy uslub sanaladi. Obrazlilik va estetik ta’sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Masalan: *Martining oxirgi kunlari. Ko‘k yuziga suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuyga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanda, bahor kelganidan behabar, hanuz g‘aflatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumursqani, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shu ‘la sochayotgandek tuyuladi.*

Badiiy uslubda yozuvchi tilda mavjud bo‘lgan barcha vositalardan foydalanishi. mumkin. Tasvirlanayotgan davr ruhini aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni, qahramonlar fe’l-atvorini ko‘rsatish maqsadida noadabiy til qatlamlariga xos so‘zlarni qo‘llashi mumkin.

## ILMIY USLUB

Daliliy ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalariga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o‘ziga hos atamalarga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi. *Atomlar kimyoviy bo‘linmaydigan zarralar. Bir xil turdag‘ atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar hisoblanadi.*

Fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Bu uslubda so‘zlar faqat o‘z ma’nosida qo‘llanadi, qoida, ta’rifning mazmunini to‘laroq ochish uchun ajratilgan, bo‘laklar, kirish so‘z va iboralar, qo‘shma gaplardan kengroq foydalaniladi.

## RASMIY USLUB

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo‘lib, muayyan nutqiy qolip, qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga egabo‘lgan nutq uslubi

resmiy uslub sanaladi. Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarining rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozini singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak va buyruq gaplar qo'llanadi.

*Samarqand shahar  
10-maktab direktori  
K.Komilovga 9-sinf  
o'quvchisi H.Akbarovdan*

### **ARIZA**

*Meni ingliz tili chuqurlashtirilib o'qitiladigan 9 "A" sinfiga  
o'tkazishingizni so'rayman.*

*Muddat*

*Imzo*

*H.Akbarov*

### **INSHO NAZARIYASI HAQIDA MA'LUMOT**

Insho arabcha so'z bo'lib, "yuzaga keltirish", "yozuv", "ijod" kabi ma'nolarni bildiradi. Insho qoralama (xomaki) va oq nushalardan iborat bo'ladi. Insho yozish uchun sodda va murakkab ko'rinishlarda reja tuzib olinadi.

### **RIVOYA – INSHO**

Biror voqeani izchil tasvir etishda rivoya elementi qo'llaniladi. Hayotdagi ayrim voqealar, hodisalar, masalan, bayramlar turli xil marosimlar, ekskursiyalar, safar taasurotlari bunday ko'rinishdagi insholar uchun material bo'lib xizmat qiladi. Rivoya-insho yozish uchun insho yozayotgan shaxs Voqealarni shaxsan boshidan kechirgan yoki eshitgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchi voqealarni eslashi, rasmlardan foydalanishi ham mumkin.

### **MUHOKAMA INSHO**

Bunday turdag'i insholar uchun sinfda o'tkazilgan vahs, munozara material vazifasini o'taydi. Muhokama-inshoda o'quvchidan o'z fikrini

asoslash va dalillash maqsadida mantiqqa jiddiy e'tibor berishi, mustaqil fikrashi va muhokamada faol ishtirok etishi talab qilinadi. Masalan: "vatanni asrab-avaylash deganda nimani tushunaman?", "vaxt nima?", "Yigirma birinchi asr insoniyatga nimalar olib keldi?" kabi mavzularda vaxs uyuşdırish mumkin.

## TASVIRIY INSHO

Bunday insholarda narsa va hodisalar, shaxslarga xos belgilar, ularning boshqalaridan farqlari ko'rsatiladi, taqqoslanadi. Emotsionallikni xosil qilish uchun kishilar portreti va manzaralar tasviri badiiy ifodalanadi, o'hshatishlar, sifatlashlar ishlataladi. Shuningdek, bunda oddiy tasvir elementlaridan ham unumli foydalilanadi. Shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari gavdalantiriladi. Tasviriy – insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuzatuvchanlik qobilyatini rivojlantiradi va yozma nutqini kengaytiradi.

## TINISH BELGILARINI QO'LLASH QOIDALARI

Ma'lum bir maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatic qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda ko'rsatishda qo'shimcha, ammo zaruriy vositadir. So'zlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olamiz: Bahor keldi. Bahor keldi! Bahor keldi?

Bu uch gapdag'i habar, xis-xayajon, so'roq mazmuni gaplardan so'ng qo'yilgan tinish belgilari orqali bilinadi. Tinish belgilari **mazmun, ohang va gapning grammatic qurilishiga** ko'ra qo'llanadi.

**1. Mazmun.** Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov yoki so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi:

- O'zimiz institut ochayapmiz, bilib qo'y...
- Institut?
- Institut!

O'zgalarning gapi bo'lsa, **qo'shtirnoqqa** olinadi: "*Ertaga sinovlar boshlanadi*" - dedi o'qituvchimiz. Gaplar orasidagi mazmun munosabatlari qo'shma gaplarda ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi. Tugallanmagan yoki izoh talab **tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar** orqali ifodalanadi.

**2. Grammatik qurilish.** Ayrim tinish belgilari gapning grammatik tuzilishiga ko'ra qo'llaniladi. Masalan, ega bilan kesim orasida **tire** qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

Ayrim ergash gaplar o'z tuzilishiga ko'ra **vergul** bilan ajratiladi: *Yo 'ichi, qancha aqchasi bo 'Isa ham, berishga tayyor edi.* Bu jumladagi *qancha aqchasi bo 'Isa ham*, ergash gap bo'lgani uchun bosh gap orasida to'htalish (pauza) bo'lmasa ham, undan so'ng **vergul** qo'yiladi.

**3. Ohang.** Ohang fikr maqsadning og'zaki nutqdagi asosidir. Har bir tinish belgisi o'ziga hos ohangga ega bo'ladi. **Undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta, tire** tugallangan ohang bilan nuqtali **vergul**, **qo'shtirnoq, qavs** kichik to'htalish bilan, ajratilgan ohang bilan nuqtali **vergul, ikki nuqta, tire, tire-izoh** ohangi bilan; **vergul, nuqtali vergul** kichik to'xtalish ohangi bilan talaffuz qilinadi. Ayrim tinish belgilari ohang talabi bilangina qo'yiladi:

*Qush mag'rur – qanoti bo'lgani uchun,*

*Tog' mag'rur – savlati bo'lgani uchun.*

Bu jumlada tire ohang talabi bilan, birinchi gaplarning ma'nosiga diqqatni jalb etish talabi bilan qo'yilgan. *vatanimiz – kelgusida buyuk davlat bo'ladi.* Bu jumlada kesim egaga bo'ladi bog'lamasi bilan birikkani uchun egadan so'ng tire qo'yilmasligi kerak edi. Ammo ega mantiqiy urg'u olgani uchun undan so'ng tire qo'yilgan.

## SODDA GAPLAR VA ULARDA TINISH BELGILARINING QO'LLANISHI

**1. Darak gaplar.** Mazmuniga ko'ra xabar beruvchi, tinch ohang bilan aytiluvchi gaplardir va bu xil gaplar oxirida nuqta qo'yiladi: *valijondan salom. Oydin kecha. Havo sof va salqin.*

His-hayajon ifodalangan darak gaplardan keyin undov belgisi yoki ko'p nuqta qo'yilishi mumkin: *Minglab gulistonidan afzaldir bu joy.*

**2. So'roq gaplar.** Biron narsa, Voqeа hodisa to'g'risida xabar berishni so'ragan gaplardir. Bu xil gaplar so'roq olmoshlari, yuklamalari ohangi orqali tuziladi va ulardan so'ng **so'roq belgisi** qo'yiladi: *Sinovlarga qanday tayyorlanayapsiz? Zarur-zarur adabiyotlarni?* Agar so'roq gap qo'shimcha mazmun ifodalasa, undan so'ng undov belgisi, so'roq belgisidan tashqari, ko'p nuqta va boshqa belgilar qo'yiladi: *kurashadi ikki to'lqin qarab turaymi!? Nahotki daryolar teskari oqar?! Siz bu ishga qanday qilib qo'l urdingiz!*

3. Undov gaplar. Mazmuniga ko'ra ikki guruhni tashkil etadi.

-mazmunidan buyruq, iltimos, tashBiq, maslahat, tilak – orzu, kinoya, do'q ma'nolari anglashilgan undov gaplar (bunday gaplarni buyruq gaplar ham deyiladi);

-faqat his-hayajon anglatuvchi undov gaplar birinchi turdag'i undov gaplarning kesimi buyruq fe'li yoki shart fe'llari bilan ifodalanadi bu xil gaplardan so'ng ko'proq undov belgisi. Ba'zan mazmuniga qarab ko'p nuqta, undov belgisi bilan ko'p nuqta ba'zan birdan ortiq undov belgisi qo'yiladi. Undov gaplarning ikkinchi turi sof his-hayajon bildiruvchi gaplardir bu turdag'i undov gaplar, undov so'zlar, nisbiy olmoshlar, ohang va bu vositalarning birlashishi bilan ifodalanadi: *Ey bola paqir – yey! Eshikka tomon yurar ekan: essiz, essiz, ey bechora!...-dedi o'zicha.*

*O'h u kapshanchilar qishlog'i shunaqa chiroylimi! Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!!!*

*Bu qanday adolatsizlikki, bola onasiz qolsa!*

*Qanday quvonch!*

## **EGA BILAN OT - KESIM ORASIDAGI TIRENING ISHLATILISHI**

Ot-kesimlar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanganda, ega bilan ot-kesim orasiga tire qo'yiladi. Kesim bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanganda ega ot, olmosh, otlashgan so'z yoki harakat nomi bilan ifodalaniishi mumkin. Kesimlar ot, olmosh, otlashgan so'z bilan ifodalangan ega yoki kesim bilan yoki har ikkisi o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelganda, tire kesimga oid so'zlardan oldin, bevosita egadan so'ng qo'yiladi. Kesim harakat nomi yoki sanoq son bilan ifodalanganda ham ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi:

*Maqsadim – a lo o'qimoq. Ikki karra ikki – to 'rt.*

Ega bilan kesim *bu, u, mana bu* so'zlari bilan ajralganda ham, ega va kesim orasida tire ishlatiladi, tire bu so'zlardan oldin qo'yiladi:

*Tinchlik – bu seBinchdir, hayotda lazzat,*

*Tinchlik-bu totuvlik, har ishda orom.*

Ega bilan ot kesim orasida tire qo'yilmasligining sababi shuki, kesim –*dir, bo'ladi, bog'lamalari* bilan kelgan yoki kelishik qo'shimchasini olgan bo'ladi. Bundan tashqari, kesim sifat, ravish, egalik olmoshi yoki tartib son bilan ifodalanganda ham, ega bilan kesim orasiga tire qo'yilmaydi. Ega bilan kesim orasida quyidagi o'rinnlarda ham tire qo'yilmaydi.

- Agar ega bilan kesim orasida quyidagi o'rirlarda **ham** yordamchisi bo'lsa: *Olma ham meva. Bular ham a'luchi.*
- Kesim shaxs qo'shimchasi olsa yoki yuklama bilan birikib kelsa: *Bu kishi muallimimiz. Bu ishni bajaruvchi sensan. Yuragi qalam — u, qog'oz — keng yer. A'luchilaringiz Salimjonmi?*
- Kesim sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalansa: *Yurtimiz obod. Ona tilidan yuqori vaho olgan talabalarning s'isi y'i irma beshta. Nega yurishingiz sekin?*

## UYUSHIQ BO'LAKLARIDA TINISH BELGILARI

Gapda birdan ortiq ega, kesim, hol, aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lishi mumkin. Bunday bo'laklar uyushik bo'laklar deyiladi. Uyushgan bo'laklar bir xil shaklda, bir xil vazifada keladi. Uyushgan bo'laklar o'zaro bog'lovchisiz yoki bog'lovchilar bilan bog'lanadi. Bog'lovchisiz bog'langan uyushiq bo'laklar biriktirkvchi ohang bilan o'zaro birikadi.

1. Bog'lovchisiz bog'langan uyushiq bo'laklar vergul bilan, agar ular birikib kelsa, nuqtali vergul bilan ajratiladi: *Kitob, qalam, daftар bo'lsin yo'ldoshing. U hovli supurdi, suv tashidi, kul tozaladi. Qo'nonboy yonida bir gala xushomadgo'ylari: Segizboylardan Moybosar, Jaqib, Iziquittilardek qarindoshlari; Juontayoq, Qorabotir, To'pay, To'rg'ay elining oqsoqollari bor edi.*

2. Bog'lovchili uyushiq bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi. Teng bog'lovchilar to'rt xil bo'ladi:

- zidlovchi bog'lovchilar: *ammo, lekin, biroq;*
- ayiruv bog'lovchilar: *yo, yoki, yohud, goh, dam;*
- biriktiruv bog'lovchilar: *va, ham, bilan;*
- inkor bog'lovchisi: *na-na.*

**Zidlovchi bog'lovchilar orqali bog'langan uyushiq bo'laklar orasiga Vergulqo'yiladi:**

*Oy yoritadi, ammo isitmaydi.*

**Ayiruv bog'lovchilari orqali bog'langan uyushiq bo'laklarda ayiruv bog'lovchisi yolg'iz kelsa, uyushiv bo'laklar orasiga vergul o'yilmaydi: takrorlanib kelsa, vergul shu bog'lovchilardan oldin qo'yiladi:**

*Seni Zebo, zebi qiz deymi,  
 Oydin kecha yo kunduz deymi,  
 Sohijamol yo dilvar deymi,  
 Yo san'atkor, yo chevar deymi?! (A.Umariy)*

*Yo, yoki, yoxud, goh, dam* ayiruv bog'lovchilaridan tashqari, shu vazifada *ba'zan, bir, ham so'zлari* ham keladi.

**Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan** uyushiq bo'laklarda ham vergulning ishlatilishi takroriy ayiruv bog'lovchilaridagi kabi bo'ladi:

*Na xotin, na farzand ko 'rmagan,  
Hayotning zavqini surmagan...*

Bu o'rinda inkor bog'lovchisi yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasida *va bog'lovchisi bo'lsa*, ular o'zaro vergul bilan ajratilmaydi: *Na kampirning va na Qoratoyning yupatishlari kor qildi.*

**Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan** uyushiq bo'laklar orasida Vergulishlatilmaydi: *Qishloqlar yasanadi va obod bo'ldi.*

*Olma bilan gilos, olucha, anor,  
Bizning bog'imizda istagancha bor.*

-bilan ko'amkchisi teng bog'lovchi vazifasida ham kelib, uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'laydi, bunday vaqtida uyushiq bo'laklar orasiga Vergulqo'yilmaydi: *Qalam bilan daftар oldim;*

-ham bog'lovchisi takrorlanib kelsa, uyushiq bo'laklar orasiga Vergulqo'yiladi:

*Mening kirib kelishim har ikki uyda, ya'ni bizning uyda ham,  
Saodatlarning uyida ham juda katta quvonchlarga sabab bo'ldi.*

Biriktiruv bog'lovchisi vazifasida -u(yu), -da yuklamalari ham kelishi mumkin. -u(yu) yuklamasi gap bo'lagiga chiziqcha bilan qo'shib yozilib, undan keyin Vergulqo'yilmaydi:

-da yuklamasi chiziqcha bilan yozilib, undan keyin Vergulqo'yiladi:  
*Iraq-u rang-u din-u nasab singari  
Axloqsiz so'zlarni olmas og'ziga. (G'.G').*

*Salima keldi-da, darhol qaytib ketdi.*

**Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilar.** Agar aniqlovchilar shaxs yoki narsa-buyumni bir tomondan aniqlasa, uyushgan aniqlovchi bo'ladi:

*Keng, mehribon, iliq quchog'ing,  
Xamisha mazlumlar panohi bo'lgan. (G'.G').*

Bu xil aniqlovchilar vergul bilan ajratiladi. Aniqlovchilarining uyushmasligiga sabab ularning shaxs yoki narsa-buyumni turli tomonдан aniqlashidir. Bu holda ular orasiga vergul qo'yilmaydi: *Issiqdan mudragan horg'in orig otining yalqov qadamiga vardosh qilib shahardan kelayotgan edi.*

Uyushiq bo‘laklar **umumlashtiruvchi so‘zlar** bilan birga kelishi mumkin. Ular uyushiq bo‘laklarni birlashtiradi, umumlashtiradi. Bunday so‘zlarni ayirib ko‘rsatish uchun maxsus tinish belgilari tire yoki ikki nuqta qo‘llanadi.

Umumlashtiruvchi so‘z umumiyligi (to‘da) tushunchani, uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, undan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: **Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar, qorong ‘ilikda jimgina cho ‘kdi. Jaladan so‘ng daladagi narsalarning hammasi: polizlardagi ekinlar, daraxt nihollari, hatto omonat chayla ham yer bag ‘irlagan edi.**

Agar umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘lakdan keyin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin tire qo‘yiladi: **Gulzorning narigi tomonida daroyi, xusayni, yakdona, charos, kishmish – turli uzum ishkomlari bor edi. Yosh-u qari, erkak-ayol – hamma mehmonlarni kutib olishga pesh Boz chiqdi. Bir yogda olmalar, o‘riklar, giloslar, olchalar – mevali daraxtlar tutash havo gulzori yasaydi.**

## **GAPNING AJRATILGAN BO‘LAKLARI VA ULARDA TINISH BELGILARINI QO‘LLANILISHI**

Gapning bo‘laklari ajratilishi mumkin. Gap bo‘laklarini ajratish orqali murakkab fikr sodda, ixcham va ta’sirli ifodalanadi. Gapning hamma bo‘laklari ham ajratilishi mumkin:

1. Ajratilgan egalar: *Men, Salimov To‘lqin, Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahrida 1968 – yili tug‘ildim.*

2. Ajratilgan kesimlar: *Uyda ko‘p ish qildi – supurdi, kir yuvdi, tozaladi.*

3. Ajratilgan aniqlovchilar: *O‘sha otga mana bu bolaning, Qurbonberdining ishqisi tushib qolgan ekan.*

4. Ajratilgan to‘ldiruvchi:

*Kechqurun osh suzsak, bir nasiva kam,  
Qo‘msayman birovni – allakimimni. (G‘.G‘.)*

5. Ajratilgan hol: *Yillar mana shu xilda, osoyishta o‘tar edi.*

Ajratilgan bo‘lak ikki vazifada keladi:

1) u o‘zidan oldingi mayhum ma’nodagi bo‘lakning ma’nosini izohlaydi va diqqatni ana shu bo‘lakka jalb qiladi;

2) o‘zi ifodalagan mazmunning ma’nosini ajratadi, diqqatni shu bo‘lakka qaratadi.

Bu xil ajratilgan bo‘laklar ham ikki turli bo‘ladi:

-ajratilgan sifatlovchili aniqlovchilar: *Borlig ‘im-la farzandingman, sodiq, mehribon, Ozarbayjon, Ozarbayjon!*

-ajratilgan ravishdosh qurilmalari: *Ey Farg‘ona! Tushkun kunlar bolasini tishida tishlab, yuvib, tarab, seBib, o‘pib, quchib, opichlab, Ey vaxtlarni valog‘atga yetkazgan ona!*

## AJRATISH USULLARI

1) Gap bo‘laklarining tartibi o‘zgaradi, ajratilgan bo‘lak o‘z aniqlanmishidan keyin keladi: *Men yomondan, ayrilib, yaxshini topganing qani? Bугун кун бо‘лди, ravshan va bedog‘.*

2) Ajratilgan bo‘lak boshqa bir bo‘lakning ma’nosini izohlamay, o‘zi ifodalagan bo‘lakning ma’nosini ajratib, diqqatni o‘zi ifodalagan mazmunga jalb qilib keladi: *So‘ng qillchini mahkam ushlab, bukchayib, ohistagini yerga yeqildi.*

Bu xil gap qurilmalarning o‘z egasi bo‘lsa, ergash gap sanaladi.

## AJRATILGAN BO‘LAKLARDA TINISH BELGILARINING QO‘LLANISHI

1) Ajratilgan bo‘lak ikki tomonidan vergul bilan ajratiladi: *bayroq, havo rang, mag‘rur xilpirab turar.*

Ajratilgan aniqlovchilar aniqlanmishidan bevosita oldin kelgani uchun undan so‘ng to‘xtalish bo‘lmaydi, vergul qo‘yilmaydi. Fe‘l bilan yonmaydon kelgan ravishdosh va ravishdosh qurilmalardan keyin ham tinish belgisi qo‘yilmaydi: *Kechagi, ya’ni urushdan oldingi hayotning naqadar maroqli ekanini... bilgandir. Salim otaning, mashhur dehqonning bu tashabbusi keng quloch yoydi. Kimdir mehmonlarni ancha yergacha kuzatib qo‘ydi.*

Ajratilgan bo‘lak *ya’ni, masalan* kabi so‘zlar bilan bog‘lanishi mumkin. Bunda vergul ana shu so‘zlardan oldin qo‘yiladi.

2) Agar ajratilgan bo‘lak kengayib, uyushib gap oxirida kelsa, undan oldin tire qo‘yiladi:

*Paxtakor o‘zbekman – zavardast, mag‘rur,  
Sharqning mayog‘i deb atalur yurtim. (G‘.G‘)*

3) Ajratilgan bo‘lak gap orasida kengayib yoki uyushib kelsa ham har ikki yoki bir tomoniga tire yoki vergul va tire qo‘yiladi: *Ismi varlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir.*

# GAP BO'LAKLARI BILAN GRAMMATIK ALOQAGA KIRISHMAGAN SO'ZLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'zlarga undalmalar, kirish so'z va kirish gaplar, ha va yo'q so'zları va undovlar kiradi.

1. Undalmalarda tinish belgilarining ishlatalishi. Undalmalarda gap bo'laklaridan vergul yoki undovlar belgisi bilan ajratiladi. Undalmalar gap boshida kelganda — undan keyin, gap orasida kelganda, har ikki tomoniga, gap oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. His-hayajon bilan ifodalangan undalmalardan so'ng (gap boshi va ohrida) undov belgisi qo'yiladi:

*Onajonlarim, hamma o'zining eski devorini quchoqlab o'tira bersa,  
yurt qachon obod bo'ladi?*

Undalma undov so'zlar bilan birikib kelishi mumkin. Agar undov so'z kuchli his-hayajon bilan aytilib, undan so'ng to'xtatilish bo'lsa, undov so'zdan so'ng ko'p nuqta yoki vergul qo'yiladi: *Qo'yaqol!... Men uchun... ovora bo'lib o'tirma... (Ch) — Oy!...bek rahmsizlik bunaqa bo'lar ekan... Xuddi qiyomat bo'ldi!* (A. Qodiriy).

## 2. Kirish so'z va kirish gaplarda tinish belgilari.

Kirish so'z va so'z birikmalari so'zlovchining xabarga bo'lgan modal munosabatlarini ifodalaydi va pauza (to'xtalish) ohangi bilan ajralib turadi. Agar shu to'xtalish bo'lmasa, u gap bo'lagi bo'ladi: *So'zsiz, bu yil imtihonlarni yuqori baholar bilan tamomlaymiz* — kirish so'z. *O'rtog'i bilan so'zsiz salomlashdi* — hol. Kirish so'z shaklidagi so'z gap bo'lagi bo'lganda, u tinish belgilari bilan ajratilmaydi.

Kirish so'zlar gap boshida kelsa, undan so'ng, gap orasida kelsa, har ikki tomoniga, gap oxirida bo'lsa undan oldin vergul qo'yiladi: *Shubhasiz, toptalar, yengilar g'anim. Siz bu gaplardan bexabarsiz, albatta.*

**Kirish gaplar** — gapning ayrim bo'laklariga yoki umumiy mazmuniga izoh beruvchi qurilmalardir. Ular pasayuvchi yoki ko'tariluvchi maxsus ohang bilan ajralib turadi. Tarkibi uncha katta bo'lmagan kirish gaplar vergul bilan ajratiladi. Tarkibi ancha katta bo'lgan va gapga umumiy izoh beruvchi gaplar qavsga olinadi yoki tire bilan ajratiladi: *Qurban ota uning suhvatini hushlamasa ham, odamning yuzi issiq — hamsafar bo'lishi to'g'risidagi sazasini o'ldirmadi.*

## UNDOV SO‘ZLAR, va, ha, yo‘q SO‘ZLARIDAN SO‘NG TINISH BELGILARINI ISHLATILISHI

Undov so‘zlar va, ha, yo‘q so‘zlari aytilayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini bildiradi, ulardan so‘ng Vergul, agar chuqur his-hayajon ifodalansa, undov belgisi qo‘yiladi:

- *voy, qir müncha chiroylı bo‘p ketdi?*
- *voy-vuy! Asl jannat deng,taqsır.*
- *Oh-oh-oh! Otangizga rahmat!*

*Ha, yana bir kichik stansiya qolibdi.*

*Yo‘q, urushning nomi o‘chsin.*

Undov so‘zlar so‘zlovchining his-hayajonini (sevinchi, qayg‘usi, qo‘rqishi, havasi, achinishi, taajjubi, nafrati, pichingi afsusi va...), ha va yo‘q so‘zlari so‘zlovchining roziligi yoki qarshiligini bildiradi. His-hayajon, fikr tugallanmagan o‘rinlarda undov so‘z va ha, yo‘q so‘zlaridan so‘ng ko‘p nuqta qo‘yilishi ham mumkin: *O...serjant, bu urush ko□p odamlarning yostig‘ini quritib yubordi.*

Undov so‘zlar va *ha, yo‘q* so‘zlari mustaqil gaplar bo‘lib kelishi ham mumkin. Bunda ulardan keyin tinish belgilari sodda gaplardagi kabi qo‘llanadi: *O... Ho ʼkiz yo‘q, o‘g‘il ko‘cha tomondan teshilgan...*

### QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARI. BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARI

Bog‘langan qo‘shma gap qismlari teng bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi. **Biriktiruv bog‘lovchilar** (va, ham, hamda) yordamida bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasiga vergul qo‘yilmaydi. Tashqarida chaqmoq yaltirar va bahor yomg‘iri salovatlari shovillardi.

**Zidlovchi bog‘lovchilar** (ammo, lekin, biroq) yordamida bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasiga shu bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi: *Men uyalib yerga qarayman, ammo Turg‘un pisand qilmay shaftolini maqtaydi.*

**Zidlovchi bog‘lovchilardan** oldin nuqta yoki nuqtali vergul qo‘yilish hollari ham bor. Mazmunan ancha mustaqil bo‘lgan qo‘shma gap qismlari orasida zidlovchi bog‘lovchilardan oldin nuqta qo‘yiladi: *Ular bir-birlariga mammun qarab qo‘yishdi. Biroq Ortiq natijani bundan ham ortiq chamalaganini aytди.* **Ayiruvchi** (yo, yoki, goh, dam) va **inkor** bog‘lovchisi (na, na) orqali bog‘langan qo‘shma gaplarda vergul ishlataladi:

*Yoki mening ko'nglim hamma vaqt yosh, yoki chiroy senga umrbod yo'ldosh.*

Takrorlanib kelgan ayiruvchi yoki inkor bog'lovchilari yordami bilan birikkan gaplarda vergul takrorlangan ikkinchi bog'lovchidan oldin qo'yiladi. Ayiruvchi bog'lovchi takrorlanmasligi ham mumkin, bu holda qo'shma gapni tashkil etgan gaplar orasiga vergul qo'yilmaydi: *Ilgari ham kun shunday qizirmidi yo bu yil yoz issiqroqmi?*

## **YORDAMCHILARSIZ BOG'LANADIGAN QO'SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI**

**Vergul va nuqtali vergulning ishlatalishi.** Yordamchilarsiz bog'lanadigan qo'shma gap tarkibidagi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo'lган, bir paytda yoki ketma-ket bo'lган voqeа-hodisalarни ifodalagan sodda gaplar orasiga vergul qo'yiladi: *Havo ochiq, quyoshning iliq nuri qirov bosgan marzalardan yengil bug' ko'taradi.* (S.A) *Kechasi shamol tindi, yo'l azobidan horigan kishilar qattiq uyquga ketdilar.* (L.vat)

Birinchi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarda bir paytda, keyingisida keyingisida esa ketma-ket bo'lган voqeа-hodisalar ifodalangan. Og'zaki nutqda bunday gaplar sanash ohangi bilan aytildi.

Yordamchilarsiz bog'lanadigan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmuni uqadar yaqin bo'lмаган voqeа-hodisalarни ifodalasa, shuningdek sodda gapalrning o'zida vergul ishlatalgan bo'lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi: *Shinel jiqla ho'l; Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.* (O.) *Qushlarning sho'lik bilan sayrashi mayin, yoqimli va mungli bu ovozni bosolmaydi; daraxtlarning shitirlagan ovozi qulog'imga yozning xayrlashuv qo'shilishiga eshitilardi.* (M.G.)

**Ikki nuqtaning ishlatalishi.** Yordamchilarsiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga quyidagi hollarda ikki nuqta qo'yiladi:

1. Yordamchilarsiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan fikrning sababini, natijasini bildirsa: *Shoazim o'ng'aysizlanib yerga qaradi: hozir uning ko'ngliga vahs sig'mas edi.* (P.Q.)

2. Yordamchilarsiz bog'langan qo'shma gap tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi gapdan anglashilgan fikrni izohlab kelsa: *Uning otasi bir yilda bog'ni juda yashnatib yubordi: yangi daraxtlar ekdi, go'zal gulzorlar yaratdi, turli-tuman payvandlar qildi.*

3. Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapning kesimini to‘ldirib kelsa: *Bildi ota: foydasizdir qiyamoq.* (H.H) *Xushxabar olib keldim: garnizon yanchildi.*

**Tirening ishlatalishi.** Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga quyidagi hollarda tire qo‘yiladi:

1. Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo‘lganda: *Ko‘z qo‘rroq — qo‘l botir* (Maqol.)

2. Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gaplarning tarkibidagi birinchi sodda gapning mazmuni ikkinchi sodda gapning mazmuniga o‘xshatilsa: *vaqtin ketdi — vaxting ketdi.* (Magol.)

3. Yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi birinchi sodda gap ikkinchi sodda gapdan anglashilgan ish-harakatning paytini yoki shartini bildirsa: *Yurt tinch - sen tinch.* (Maqol.)

## ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATALISHI

Ergash gaplarning bosh gapga bog‘lanish yo‘llari va tinish belgilari bilan ajratilishini uch qismga bo‘lish mumkin:

1. Ergash gaplarning tobe bog‘lovchilari orqali bosh gapga bog‘lanishi va vergul bilan ajratilishi. 1.1 Agar ergash gaplar bosh gapga *shuning uchun, chunki, go‘yo* bog‘lovchilari orqali bog‘lansa, vergul shu bog‘lovchilardan oldin qo‘yiladi:

*Har kun ortar ko‘zlarimda nur,  
Shuning uchun yo‘q aslo g‘amim* (H.O)

2. Ergash gap bosh gapga —ki bog‘lovchisi orqali bog‘lansa, vergul shu bog‘lovchidan so‘ng qo‘yiladi: *Bu xonaga shunday jumlik cho‘kkanki, go‘yo unda hayot butunlay yo‘q.*

3. Ergash gap bosh gapga bog‘lovchi sifatida qo‘llangan *deb* orqali bog‘lansa , Vergulshu so‘zdan keyin qo‘yiladi: *Orqada kelayotgan ayollar yetib kelsin deb, Tansiq mashinani ancha berida to‘xtatdi.*

II. Agar ergash gapning kesimi ravishdosh yoki shart fe‘li orqali ifodalansa, vergul kesim vazifasidagi ana shu fe‘l shakllaridan keyin qo‘yiladi: *Gulnor bu yerga kelsa, Nuri darhol biron yumush qildirar edi. Daryo qancha chuqur bo‘lsa, u shuncha sekin oqadi.*

III. Ergash gapning kesimi *sifatdosh* bilan ifodalanishi mumkin, bunda sifatdosh *uchun,sari, sayin, chog‘, payt* kabi so‘zlar bilan birikadi. Bu

holda Vergulergash gapning sifatdosh bilan ifodalangan kesimiga qo'shilib kelayotgan ana shu vositalardan so'ng qo'yiladi: *Hammamiz dalaga yo'olgan chog'da, katta to'y tusini oladi qishlog*.

Ba'zan sifatdosh o'rin-payt yoki chiqish kelishigi qo'shimchalarini ham olib keladi. Bunda vergul kelishik qo'shimchasini olgan sifatdoshdan keyin qo'yiladi: *Nuri gapga e'tibor qilmaganidan, Yormat endi qiziga qarab so'zlay boshladi*.

## KO'CHIRMA GAPLARDA TINISH BELGILARI

Ko'chirma gap o'zgalarning gapi bo'lib, muallif gapi esa ko'chirma gapni keltiruvchi shaxs gapidir. Ko'chirma gaplarda ikki *nuqta, tire, vergul, nuqta*, qo'shtirnoqning qo'llanishi ko'chirma va muallif gaplarining o'rinalashishiga bog'liq bo'ladi. Odatda, ko'chirma gap muallifi gapidan so'ng, oldim yoki uning tarkibida bo'lishi, muallif gapi ko'chirma gapning har ikki tomonidan kelishi mumkin: *Oyqiz o'zini og'irlikka solib, mayin ovoz bilan qatiy buyurdi: - Otingiz! O'zingizni bosing!*

1. Agar ko'chirma gap muallif gapidan so'ng kelsa, undan oldin ikki nuqta qo'yiladi va ko'chirma gapdan so'ng tire qo'yiladi yoki qo'shtirnoqqa olinadi.

2. Agar ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, ko'chirma gapdan keyin Vergulhamda tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi.

Gapning mazmuniga ko'ra ko'chirma gapdan so'ng nuqta, so'roq belgisi yoki undov belgisi bo'lishi mumkin, bunda:

- muallif gapidan so'ng kelgan ko'chirma gaplarda so'roq yoki undov belgilari qo'shtirnoq ichiga olinadi va qo'shtirnoqdan so'ng hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi;

- muallif gapidan oldin kelgan ko'chirma gaplarda so'roq yoki undov belgisi qo'shtirnoq ichiga olinib, undan keyin tire qo'yiladi, so'ngra esa muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi.

**Muallif gapining ko'chirma gap orasida kelishi:**

- "Bu kishi, -dedi Ro'zimat, - bizga har tomondan ustod bo'lib qoldilar".

- "Bu narsani men ham ko'rganman, - dedi Siddiqjon, - haqiqatdan ham yo'l bo'yida ba'zi g'o'zalar shoxlaydi".

- "Mening ikkita tanishim bor, bir-birini teng ko'radi, - dedi Ibrohimov, - bir-biriga juda munosib...".

Agar ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida hech qanday tinish belgisi bo'lmasa, vergul va tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi, undan so'ng yana vergul va tire qo'yilib, ko'chirma gapning davomi kichik harf bilan boshlanadi.

Ko'chirma gapning uzilib qolgan joyida nuqta, so'roq yoki undov belgi qo'yilgan holatlarda tinish belgilarining ishlatalishiga misollar:

"Assalomu alaykum, Qurbon ota! - dedi Siddiqjon. - Salom, otaxon!"  
(A.Q)

"Buning tagiga o'zimiz yetmasak, kim yetadi? - dedi Komila. - Birov kelib bizga hisovat beradimi?".

"Chet tilini bilish kerak. - dedi mu'allif. - Menimcha, chet tilini bilish fanni chuqr o'rganishda va mustaqil muloqotta juda zarur".

Chet tilini bilish kerak. - dedi mu'allif. - Menimcha, chet tilini bilish fanni chuqr o'rganishda va mustaqil muloqotta juda zarur".

## TESTLAR

### FONETIKA

1. Til oldi unlilar berilgan javobni toping.  
A. o, a  
B. o, a, u  
C. o, a, i  
D. a, e, i
2. Ochiq bo‘g‘indan birida faqat til undoshi berilgan so‘zni toping.  
A. bahona  
B. mammun  
C. vafodor  
D. faqat
3. Yam-yashil— so‘zida nechta unli va nechta undosh tovush bor?  
A. 3 ta unli, 3 ta undosh  
B. 5 ta unli, 5 ta undosh  
C. 3 ta unli, 5 ta undosh  
D. 4 ta unli, 4 ta undosh
4. Qaysi qatorda lab undoshlari berilgan?  
A. x, g  
B. j, k  
C. h, ng  
D. b, m
5. Lab undoshlari ishtirok etgan yasama so‘zni toping.  
A. savlat  
B. gulzor  
C. ommabop  
D. oshiq
6. Qaysi so‘z tarkibida portlovchi undosh mavjud?  
A. sababsiz  
B. suvsiz  
C. yuzsiz  
D. foizsiz
7. Qaysi jarangli undosh o‘z jarangsiz jufti bilan birga sirg‘aluvchi tovushlarga mansub bo‘ladi?  
A. b  
B. d  
C. k  
D. z
8. —t— va —h— tovushlari qaysi xususiyatlari ko‘ra bir guruhg‘a mansub bo‘ladi?  
A. jarangli va jarangsizligiga ko‘ra

- B. lab yoki tish undoshlariga oidligiga ko'ra
- C. portlovchi yoki sirg'aluvchiligidagi ko'ra
- D. tilning qayerida paydo bo'lishiga ko'ra

9. —f— undoshi til undoshlarining qaysi turiga mansub?

- A. til oldi undosh
- B. sayoz til oldi undoshi
- C. chuqur til orqa undoshi
- D. lab-tish undoshi

10. Qaysi jarangli undoshlar sirg'aluvchilarga mansub emas?

- A. k, t
- B. b, n
- C. v, z
- D. j, g'

11. Berilgan jarangli undoshlardan qaysilari sirg'aluvchilarga mansub?

- A. k, q
- B. f, s
- C. j, b
- D. r, z

12. Qaysi so'z talaffuzida jarangsiz tovush o'zidan keyingi jarangli tovushni o'ziga moslashtiradi?

- A. ketdi
- B. zarur
- C. o'qibdi
- D. maqsad

13. Jarangsiz undoshlar ishtirot etmagan yasama so'zni toping.

- A. bejirim
- B. gulsiz
- C. lolazor
- D. yolg'ondakam

14. Portlovchi undoshlar yonma-yon kelgan so'zni toping.

- A. iqtisod
- B. nashriyot
- C. qing'ir
- D. hamfikr

15. Qaysi yasama so'z tarkibida sirg'aluvchi tovush mavjud?

- A. ulg'aymoq
- B. kechikmoq
- C. shoshilmox
- D. changimoq

16. —b— va —k— tovushlari qaysi xususiyatlari ko'ra bir guruhga mansub bo'ladi?

- A. jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra
- B. lab yoki tish undoshlariga oidligiga ko'ra

- C. portlovchi yoki sirg‘aluvchiligiga ko‘ra  
D. tilning qayerida paydo bo‘lishiga ko‘ra
17. Metateza hodisasi qaysi qatordagi so‘zda kuzatiladi?
- A. zarar-zaral  
B. yurakka-yurakga  
C. tuproq-turpoq  
D. tuzsiz-tussiz
18. Yonma-yon kelgan tovushlarning o‘rin almashishi tilshunoslikda qanday ataladi?
- A. assimilatsiya  
B. dissimilatsiya  
C. metateza  
D. tovush almashishi
19. Faqat jarangsiz undoshlar qatnashgan so‘zlar qatorini toping.
- A. daromad, jamoat, hushyor  
B. muhabbat, vafo, sadoqat  
C. taxta, soat, sukut, toqat  
D. tosh, shikoyat, kitob, mulk
20. Urg‘usi oxirgi bo‘g‘inga tushmagan so‘zlar qatorini toping.
- A. bog‘lar, olma, novcha  
B. qazilma, qotishma, burama  
C. yangicha, qishgacha, o‘zgacha  
D. qishloqcha, yigitcha, uycha
21. Qaysi javobda tovush o‘zgarishlari yuz bergan? 1. ~ulug‘; 2. ~taroq;  
3. ~tirnoq; 4. ~bilak; 5. ~yurak; 6. ~buyrak ✓
- A. 1, 2, 4  
B. 2, 3, 5  
C. 2, 3, 4  
D. 2, 3, 6
22. Qaysi javobda so‘z ko‘chirish qoidasi to‘g‘ri ko‘rsatilmagan?
- A. mu-do-faa  
B. mat-ba-a  
C. si-ngil  
D. tran-sport
23. Yigirmata so‘zida urg‘u qaysi bo‘g‘inga qo‘yilgan?
- A. 1 ga  
B. 2 ga  
C. 3 ga  
D. 4 ga
24. Qaysi qatordagi so‘zlarning ma’nosi urg‘u yordamida farqlanadi?
- A. bolada, qo‘lla, axil  
B. xiyla, ariya, belcha, beshala  
C. bog‘lar, ishlar, qishloqcha  
D. burun, gajim, uylar

25. —ayir— so‘ziga quyidagi qaysi qo‘sishchalar qo‘silsa tovush tushishi vujudga keladi?

- 1. ~-ish; 2. ~-il; 3. ~-ma; 4. ~-i; 5. ~-im
- A. 1,2,4,5
- B. 2,3,4,5
- C. 2,4,5
- D. 1,2,4

26. Rotalarni zudlik bilan o‘rnidan ko‘chirish haqida og‘zaki buyruq berildi. Berilgan gap tarkibidagi necha so‘zda tovush tushishi hodisasi mavjud?

- A. 1 so‘zda
- B. 2 so‘zda
- C. 3 so‘zda
- D. 4 so‘zda

27. Alisher parvarish qilayotgan qushlarni ko‘rgan bolalar, unga havas qilishdi. Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar vujudga kelgan?

- A. tovush tushishi
- B. tovush almashishi
- C. tovush orttirilishi
- D. tovush tushishi, orttirilishi va almashishi

28. Qaysi so‘z tarkibida portlovchi undosh mavjud?

- A. sadoqat
- B. suvsiz
- C. yuzsiz
- D. foizsiz

29. Alisher parvarish qilayotgan sayroqi qushlarni ko‘rgan bolalar, unga havas qilishdi. Ushbu gapdagi yasama so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar vujudga kelgan?

- A. tovush tushishi
- B. tovush orttirilishi
- C. tovush almashishi
- D. tovush almashishi va tushishi

30. Og‘zaki nutqda qaysi so‘z tarkibidagi portlovchi tovush ba’zan sirg‘aluvchi tovush tarzida talaffuz qilinadi?

- A. muktab
- B. boribdi
- C. taqsim
- D. xohish

31. Qaysi jumlada gap urg‘usi —muzeyga— so‘ziga tushgan?

- A. Dam olish kuni o‘qituvchimiz bizni muzeyga olib boradi.
- B. O‘qituvchimiz bizni muzeyga dam olish kuni olib boradi.
- C. Bizni dam olish kuni muzeyga o‘qituvchimiz olib boradi.
- D. Muzeyga bizni dam olish kuni o‘qituvchimiz olib boradi.

32. Qaysi so‘z talaffuzida jarangsiz tovush o‘zidan keyingi jarangli tovushni o‘ziga moslashtiradi?

- A. ketdi
- B. zarur
- C. o‘qibdi
- D. maqsad

33. Urg‘u ma’no farqlash vazifasini bajargan so‘zlarni belgilang. 1)~hozir; 2)~qurilma; 3)~yo‘llar; 4)~ko‘chirma; 5)~yangi

- A. 1, 2, 4, 5
- B. 1, 3, 4, 5
- C. 1, 3, 4
- D. 2, 4

34. Qaysi so‘zlarning o‘zak-negizida tovush almashishi yuz bergan?

- 1.~qiyna; 2.~tuzum; 3.~yuvundi; 4.~uyum; 5.~unum; 6.~bo‘yoq
- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6
- B. 2, 4, 6
- C. 1, 4, 5, 6
- D. 1, 2, 4, 6

35. Qaysi so‘zlarda urg‘u yordamida ma’noni farqlash mumkin? 1.~surma; 2.~mexanik; 3.~yo‘llar; 4.~yangi; 5.~bog‘cha

- A. 1, 2, 3, 4, 5
- B. 1, 3, 5
- C. 3, 4, 5
- D. 1, 3, 4, 5

36. Malika opaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qib, ulg‘ayib yana bag‘riga qaytdi. Berilgan gap tarkibidagi necha so‘zda tovush tushishi hodisasi mavjud?

- A. 1 so‘zda
- B. 2 so‘zda
- C. 3 so‘zda
- D. 4 so‘zda

37. Malika opaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qib, ulg‘ayib yana bag‘riga qaytdi. Ushbu gapdagi so‘zlar tarkibida qanday fonetik o‘zgarishlar vujudga kelgan?

- A. tovush tushishi
- B. tovush almashishi
- C. tovush orttirilishi
- D. tovush tushishi va almashishi

38. Malika opaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qib, ulg‘ayib yana bag‘riga qaytdi. Ushbu gapdagi necha so‘zda egalik qo‘srimchasi qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarish vujudga kelgan?

- A. 1 so‘zda
- B. 2 so‘zda
- C. 3 so‘zda
- D. 4 so‘zda

39. Qaysi so'zdagi til oldi undoshi og'zaki nutqda lab-lab undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

- A. ichdim
- B. shanba
- C. borib
- D. taqsim

40. Qaysi so'zdagi til oldi undoshi og'zaki nutqda boshqa til oldi undoshi sifatida talaffuz qilinadi?

- A. to'qson
- B. uchta
- C. tubsiz
- D. tanob

41. Negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan e'tibor susaydi. Ushbu gap tarkibidagi so'zlarda qanday fonetik o'zgarishlar kuzatiladi?

- A. tovush tushishi va almashishi
- B. tovush almashishi va orttirilishi
- C. tovush tushishi va orttirilishi
- D. tovush tushishi, orttirilishi va almashishi

42. Negadir undagi quvnoq davraga bo'lgan e'tibor susaydi. Ushbu gapdag'i so'zlarda fonetik o'zgarishlarning qaysi biri kuzatilmaydi?

- A. tovush tushishi
- B. tovush almashishi
- C. tovush orttirilishi
- D. fonetik o'zgarishlarning uchala turi kuzatiladi

43. Yonma-yon kelgan tovushlarning o'r'in almashishi tilshunoslikda qanday ataladi?

- A. assimilatsiya
- B. dissimilatsiya
- C. metateza
- D. tovush almashishi

44. So'z tarkibidagi tovushlarning ajratib yoki cho'ziqroq talaffuz qilinishini ko'rsatuvchi ishora qanday ataladi?

- A. vergul
- B. urg'u
- C. tutuq belgisi
- D. so'z urg'usi

45. Adabiy me'yorga ko'ra —o— tovushining qanday hollarda torroq, qanday hollarda keng aytilishi haqida tilshunoslikning qaysi bo'limi bahs yuritadi?

- A. fonetika
- B. grafika
- C. orfoepiya
- D. orfografiya

46. Og'zaki nutqning tovush tizimini yozma nutqda qanday berilishini o'r ganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

- A. orfoepiya
- B. orfografiya
- C. grafika
- D. fonetika

## ORFOGRAFIYA

1. Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.

- A. hazil-mutoiba, udaburo

- B. hazil-huzil, uziksiz

- C. haftafaxm, unittirmoq

- D. hiqildoq, unum dor

2. Qaysi qatordagi so'zlar xato yozilgan?

- A. dukillamoq, shuursiz

- B. dukurlamoq, shug'ullanmoq

- C. duddudlamoq, yassilik

- D. dupullamoq, shovillamoq

3. Imlo qoidasiga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi xato yozilgan?

- A. ahl-ahil

- B. qism-qisim

- C. adl-adil

- D. aks-akis

4. Qaysi so'zlarda qo'sh undosh xato qo'llangan?

- A. uvvos, uddaburon

- B. yallig'lanish, horittirmoq

- C. tirqirramoq, ushshatmoq

- D. himmatli, haqqoniyat

5. Qaysi so'zlarda qo'sh unli xato qo'llanilgan?

- A. shuursiz, taajjub

- B. taassuf, inshoot

- C. taalluqli, vakuum

- D. taaqib, tajoovuz

6. Imlo qoidasiga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zni belgilang.

- A. hazil-mutoiba

- B. tayziq

- C. tasaduq

- D. tavoze

7. Quyidagi so'zlarning qaysi birida nuqtalar o'rnida bo'g'iz tovushi ishlatalidi?

1. ~xo ... ~lovchi, 2. ~sa ... ~ifa, 3. ~mi ... ~lamoq, 4. ~xush ... ~ol

- A. 1, 2, 3, 4

- B. 1, 2, 4

- C. 2, 4  
D. 3, 4
8. Qaysi qatordagi so‘zning ikkinchi bo‘g‘inida —u— unlisi yoziladi?
- A. matb ... ot  
B. muq ... m  
C. mur ... d  
D. mujr ... m
9. Qaysi qatordagi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?
- A. muqarrar, hamsuhan, elektravoz  
B. istehzomuz, diqinafas, doktarant  
C. islohat, behuzir, teleminatyura  
D. taraddud, masalliq, federativ
10. Imlo qoidasiga ko‘ra to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.
- A. injiner, hayifsan  
B. indiks, hayxot  
C. integral, hoshiya  
D. demokratik, fahimli
11. Imlo qoidasiga ko‘ra berilgan so‘zlarning qaysi birida ikki undosh orasidagi —i— tovushi ortiqcha qo‘llangan? 1.~matin, 2.~xiroj, 3.~faqir, 4.~jazim, 5.~zig‘ir, 6.~muhir
- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6  
B. 2, 4, 5  
C. 1, 5, 6  
D. 1, 4, 6
12. Qaysi so‘z tarkibidagi qo‘sh udoshlardan birini tushrib qoldirish mumkin? 1.~tilli; 2.~nonning; 3.~ellar; 4.~qissa; 5.~yo‘lladi; 6.~ushshoq; 7.~karra
- A. 1, 2, 3, 5, 6  
B. 2, 3, 5, 6  
C. 1, 3, 6  
D. 3, 5, 6, 7
13. Yangi imlo qoidasiga ko‘ra qaysi qatordagi so‘zlarga I, II shaxs egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zakdan so‘ng tovush qo‘shib aytildi va yoziladi?
- A. parvo, obro‘, mavqe  
B. tilak, bek, tayoq  
C. qorin, o‘g‘il, singil  
D. Barcha so‘zlarga egalik qo‘shimchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shiladi.
14. Ot yasovchi —indi— qo‘shimchasi qachon —undi— shaklida yoziladi?
- A. So‘z tarkibida fonetik o‘zgarish bo‘lganda.  
B. O‘zagida u tovushi bo‘lgan fe’llarga qo‘shilganda.  
C. —indi— qo‘shimchasi faqat shu shaklda ishlataladi.  
D. Bir bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shilganda.
15. “O‘zbek tilining asosiy imlo-qoidalari” (1995) ga asosan har bir so‘zi bosh harf bilan yoziluvchi birliklar qatorini belgilang.
- A. Mustaqillik kuni

- B. Xotira va qadrlash kuni  
C. O'zbekiston qahramoni  
D. Barchasidagi so'zlar bosh harf bilan yoziladi
16. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini toping.
- A. abstrakt, aksioner, arbitr  
B. valyuta, inflyatsiya, byudjet  
C. litsenziya, shosse, kompensatsiya  
D. byurokrat, broker, biznes
17. Qaysi juftlikda so'zlar xato yozilgan?
- A. tana, ta'na  
B. nasha, nash'a  
C. surat, su'rat  
D. mo'tadil, mo'tabar
18. Qaysi qatorda chiziqcha bilan yozish qoidasi buzilgan?
- A. kecha-yu kunduz  
B. qiy-chuvlashmoq  
C. 1991-yil  
D. Berilgan barcha birliklarda chiziqcha to'g'ri qo'yilgan.
19. Berilgan qaysi so'zlarda qo'sh undosh bir undosh sifatida talaffuz qilinadi?
1. chaqqon; 2. million; 3. metall
- A. 1, 2, 3  
B. 2, 3  
C. 3  
D. 2
20. Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan?
- A. oybaldoq, surinkali  
B. tajavuzkor, xushsuhan  
C. hovirlanmoq, xoynahoy  
D. hoyhoylamoq, xushmuomala
21. Qaysi qatordagi so'z to'g'ri yozilgan?
- A. ma'sul  
B. ma'sud  
C. ta'lat  
D. ma'yus
22. Qaysi qatordagi nuqtalar o'rnida —i— yoziladi?
- A. xushmuom ... la  
B. xushn ... d  
C. fus ... n  
D. muj ... moq
23. Tarkibida —ng— tovushi bo'lgan so'zlarni bo'g'inlarga ajratish haqidagi qaysi fikr to'g'ri?
- A. —ng— tovushidan oldin unli undan keyin undosh kelsa, —ng— ikkinchi bo'g'inda qoladi.

B. —ng— tovushi har doim oldingi bo‘g‘inda qolib keyingi bo‘g‘inga qo‘shilmaydi.

C. —ng— ikki unli o‘rtasida kelgan bo‘lsa, u birinchi yoki ikkinchi unli bilan bo‘g‘in hosil qilishi mumkin.

D. —ng— ikki unli o‘rtasida kelgan bo‘lsa, —ng— ikkinchi unli bilan birga bo‘g‘inga ajratiladi.

24. Ot yasovchi ——indi— qo‘shimchasi qachon ——undi— shaklida yoziladi?

A. So‘z tarkibida fonetik o‘zgarish bo‘lganda.

B. O‘zagida u tovushi bo‘lgan fe’llarga qo‘shilganda.

C. ——indi— qo‘shimchasi faqat shu shaklda ishlataladi.

D. Bir bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shilganda.

25. “O‘zbek tilining asosiy imlo-qoidalari” (1995) ga asosan har bir so‘zi bosh harf bilan yoziluvchi birliklar qatorini belgilang.

A. Mustaqillik kuni

B. Xotira va qadrlash kuni

C. O‘zbekiston qahramoni

D. Barchasidagi so‘zlar bosh harf bilan yoziladi

26. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini toping.

A. abstrakt, aksioner, arbitr

B. valyuta, inflyatsiya, byudjet

C. litsenziya, shosse, kompensatsiya

D. byurokrat, broker, biznes

27. Qaysi juftlikda so‘zlar xato yozilgan?

A. tana, ta‘na

B. nasha, nash‘a

C. surat, su‘rat

D. mo‘tadil, mo‘tabar

28. Qaysi qatorda chiziqcha bilan yozish qoidasi buzilgan?

A. kecha-yu kunduz

B. qiy-chuvlashmoq

C. 1991-yil

D. Berilgan barcha birlklarda chiziqcha to‘g‘ri qo‘yilgan.

29. Berilgan qaysi so‘zlarda qo‘sh undosh bir undosh sifatida talaffuz qilinadi?

\par 1. chaqqon; 2. million; 3. metall

A. 1, 2, 3

B. 2, 3

C. 3

D. 2

30. Qaysi qatordagi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?

A. oybaldoq, surinkali

B. tajavuzkor, xushsuhan

C. hovirlanmoq, xoynahoy

D. hoyhoylamoq, xushmuomala

31. Qaysi qatordagi so'z to'g'ri yozilgan?

- A. ma'sul
- B. ma'sud
- C. ta'lat
- D. ma'yus

## FONETIKA (DAVOMI)

1. 1995 yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra qaysi so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, u morfologik qoida asosida yoziladi?

- A. eshik, teshik
- B. so'roq, qarmoq
- C. varg, tog'
- D. eshik, so'roq, varg, bog'

2. 1995 yilda qabul qilingan imlo qoidasiga ko'ra qaysi so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa, u fonetik qoida asosida yoziladi?

- A. faqat —g— undoshi bilan tugagan so'zlarga
- B. faqat —g'— undoshi bilan tugagan so'zlarga
- C. —g— va —g'— undoshlari bilan tugagan so'zlarga
- D. —k— undoshlari bilan tugagan so'zlarga

3. Quyidagi fe'l so'z qo'shilmalarining qaysi qoida (yozuv) asosida yozilishini belgilang. 1. ~yoza beramiz, 2. ~boroladi, 3. ~ketaver.

- A. 1, 2 - morfologik, 3 - fonetik qoida asosida
- B. 2, 3 - morfologik, 1 - fonetik qoida asosida
- C. 3 - morfologik, 1, 2 - fonetik qoida asosida
- D. 1 - morfologik, 2, 3 - fonetik qoida asosida

4. Sovuqdan qulog'im, burnim qizarib ketdi. Ushbu gapdag'i fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar miqdorini aniqlang.

- A. 1 ta
- B. 2 ta
- C. 3 ta
- D. 4 ta

5. Sovuqdan o'rtog'imning qulog'i, burni qizarib ketgan edi. Ushbu gapda qaysi so'zlar morfologik yozuv qoidasiga ko'ra yozilgan?

- A. sovuqdan, o'rtog'imning, qulog'i, burni
- B. sovuqdan, o'rtog'imning, qulog'i, burni, qizarib, ketgan
- C. sovuqdan, qizarib, ketgan
- D. qizarib, ketgan

6. Ekinlar sovuqdan qovjirab qolgan edi. Ushbu gapdag'i fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'zlar miqdorini aniqlang.

- A. 1 ta
- B. 2 ta
- C. 3 ta
- D. Ushbu gapda fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama so'z mavjud emaC.

7. Direktor yoshlarning teatr tashkil qilish haqidagi fikrini qo'lladi. Ushbu gapda shakliy yozuv asosida yozilgan so'zlar miqdorini belgilang.
- A. 1 ta
  - B. 2 ta
  - C. 3 ta
  - D. 4 ta
8. Fonetik yozuv qoidasi so'zga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda kuzatiladi?
- A. so'z yasovchi
  - B. shakli yasovchi
  - C. so'z o'zgartiruvchi
  - D. so'z yasovchi, shakli yasovchi va so'z o'zgartiruvchi
9. —ib— qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlarga —di— zamon hosil qiluvchi qo'shimchasi qo'shilganda so'z qaysi yozuv qoidasi asosida yoziladi?
- A. fonetik yozuv
  - B. morfologik yozuv
  - C. shakliy yozuv
  - D. fonetik va morfologik yozuv
10. Yevropaliklar O'rxun Enasoy yodgorliklari yozuvini nima deb atashgan?
- A. "runik" (sirli)
  - B. "manixizm" (moniylikka oid.)
  - C. "elegiyalar" (qabr toshi yozuvlari)
  - D. "epistolyar xatlar" (nomalar)
11. Arab raqamlaridan yoki alifbo harflaridan keyin yarim qavs belgisi qo'yilganda, undan keyin kelgan gapning birinchi so'zi qay tarzda yoziladi?
- A. arab raqamlaridan so'ng yarim qavs belgisi qo'yilganda, undan keyin bosh harf, alifbo harflaridan keyin yarim qavs belgisi qo'yilganda kichik harf bilan yoziladi
  - B. arab raqamlari yarim qavs bilan ishlatilganda, undan keyin kichik harf, alifbo harflaridan keyin yarim qavs belgisi qo'yilganda bosh harf bilan yoziladi
  - C. arab raqamlari yoki alifbo harflari yarim qavs belgisi ishlatilganda undan keyin kichik harf bilan yoziladi
  - D. arab raqamlari yoki alifbo harflari yarim qavs belgisi ishlatilganda undan keyin bosh harf bilan yoziladi
12. So'zlarni to'g'ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalari majmui ... {—}
- A. orfoepiya qoidalari deyiladi
  - B. orsografiya qoidalari deyiladi
  - C. grammatik qoidalari deyiladi
  - D. fonetik qoidalari deyiladi
13. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalari majmui ... {—}
- A. foepiya qoidalari deyiladi
  - B. orsografiya qoidalari deyiladi
  - C. grammatik qoidalari deyiladi
  - D. fonetik qoidalari deyiladi

14. —q— undoshi bilan tugagan o'zakka qaysi qo'shimcha qo'shilsa, so'z fonetik yozuv qoidasiga binoan yoziladi?
- A. jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilsa
  - B. egalik qo'shimchasi qo'shilsa
  - C. jo'nalish kelishigi va egalik qo'shimchalari qo'shilsa
  - D. —q— undoshi bilan tugagan o'zakka qo'shimchalar qo'shilgach, so'z doim morfologik yozuv qoidasi asosida yoziladi.
15. —mo'jiza—, —mo'tabar— kabi so'zlarda tutiq belgisining tushirib goldirilishi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'r ganiladi?
- A. fonetikada
  - B. grafikada
  - C. orfoepiyada
  - D. orfografiyada
16. —teatr—, —tank—, —soldat— so'zлari imlo qoidalarining qaysi biriga asoslanib yozilgan?
- A. fonetik yozuvga
  - B. morfologik yozuvga
  - C. shakliy yozuvga
  - D. fonetik va shakliy yozuvlarga
17. 1.^husnbuzar 2.^husnxat 3.^husnjamol 4.^husnsoqol Ushbu qo'shma so'zlarning qaysi birida imlo qoidasiga ko'ra —husn— so'zidan so'ng —i— unlisi yoziladi?
- A. 1, 2, 3, 4
  - B. 2, 3, 4
  - C. 2, 4
  - D. 2, 3
18. Qaysi qatordagi so'zda qo'sh undosh xato qo'llangan?
- A. qo'qqisdan
  - B. muqaddam
  - C. g'ovvak
  - D. mutaassib
19. Berilgan so'zlardan qaysi biri bo'g'iz undoshi bilan boshlanishi kerak?
- 1.^xivich, 2.^xorg'in, 3.^xurram, 4.^xovuch
- A. 1, 2, 4
  - B. 2, 3, 4
  - C. 2, 4
  - D. 1, 3
20. Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan?
- A. muqarrar, hamsuhan, elektravoz
  - B. istehzomuz, diqinafas, doktarant
  - C. islohat, behuzir, telemintatyura
  - D. taraddud, masalliq, federativ

21. Ot yasovchi —indi— qo'shimchasi qachon —undi— shaklida yoziladi?

- A. So'z tarkibida fonetik o'zgarish bo'lganda.
- B. O'zagida u tovushi bo'lgan fe'llarga qo'shilganda.
- C. —indi— qo'shimchasi faqat shu shaklida ishlataladi.
- D. Bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda.

22. Imlo qoidasiga ko'ra berilgan so'zlarning qaysi birida ikki undosh orasidagi —i— tovushi ortiqcha qo'llangan? 1. ~matin, 2. ~xiroj, 3. ~faqir, 4. ~jazim, 5. ~zig'ir, 6. ~muhir

- A. 1, 2, 3, 4, 5, 6
- B. 2, 4, 5
- C. 1, 5, 6
- D. 1, 4, 6

23. Yangi imlo qoidasiga ko'ra qaysi qatordagi so'zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdan so'ng tovush qo'shib aytildi va yoziladi?

- A. parvo, obro', mavqe
- B. tilak, bek, tayoq
- C. qorin, o'g'il, singil
- D. Barcha so'zlarga egalik qo'shimchasi to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

24. Yangi imlo qoidasiga ko'ra jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda fonetik o'zgarish kuzatiladigan so'zlar qatorini toping.

- A. tok, qishloq
- B. bug', sog'
- C. varg, pedagog
- D. tog', bog

## LEKSIKOLOGIYA

1. Qaysi gapda ko'chma ma'noli so'z qo'llangan?

- A. Alyorning vujudiga orombaxsh shabada yugurdi.

B. U ko'l yoqasiga kelib qolganini ham sezmadni.

C. Choyxonachi yoshi elliikkardan oshib qolgan bo'lsa ham xuddi o'smirlarday engil qadam tashlardi.

D. Barcha javoblarda.

2. 1.O't ishi-qovurmoq. 2.Bitta ham yovvoyi o't qolmasin. 3.Ko'chadan o'tsang, to'g'ri o't 4. Qalbida ishq o'ti alangalandi. Ushbu gaplarning qaysi birida o't so'zi bir so'zning ko'p ma'nolari hisoblanadi?

- A. Birinchi va ikkinchi gaplarda
- B. Ikkinci va uchinchi gaplarda
- C. Birinchi va to'rtinchi gaplarda
- D. Barcha gaplarda

3. Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o'rgangan. Ushbu gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?

- A. Metafora  
 B. Metonomiya  
 C. Sinekdoxa  
 D. ma'no ko'chishi bo'lmanan.
4. O'z jigiriga ham rahm-shafqat qilmaydilar! Ushbu gapda qanday ma'no ko'chishi mavjud?
- A. Metafora  
 B. Metonomiya  
 C. Sinekdoxa  
 D. Vazifadoshlik.
5. Gapning ko'chma - tag ma'nosi ifodalangan qatorni toping.
- A. Bizni "homiy" lardan himoya qilg'il, degan sharq xalqida piching – duo bor. Xo'sh, janobi oliylari, qaysi sho'rlik xalq sizning "himoyangiz" ga qolishga intizor.
- B. Dunyoda o'zimizdan keyin qoldiradigan tuyog'imiz "faqt shul Otabekdir".  
 C. –Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasmidt?  
 -Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan .  
 D. Barcha gaplarda tag ma'no ifodalagan.
6. Qaysi qatorda omonimiya bir xil birliliklar orasida hosil bo'lgan?
- A.Taxtaning o'rtasida ikkita ko'zi bor edi. –Eski buloqlarning ko'zлari ochildi.  
 B. Senga bir gap tegdimi, cho'zaverasan. –Boring tezroq. Bitta –yarimta kelib kelib qolsa gap tegadi.
- C. Madamin bo'niga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. – Borishini bo'yniga qo'yaman.
- D. Uzoqdan bir kishining qorasini ko'rindi. –Qora kiyib, hali yig'lab yurgandir.
7. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ushbu gapdagagi chingilin so'zining sinonimini toping.
- A. og'zin  
 B. novcha  
 C. kelishgan  
 D. barchasi to'g'ri.
8. Qaysi qatorda metafora usuli bilan ma'no ko'chish hodisasi yuz bergan?
- A. Bahor kelinchakdek yasanib keldi  
 B. Po'latjonning tili tanglayiga yopishib qolgandek.  
 C. Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.  
 D. Barcha gaplarda metofora usuli mavjud.
9. 1.Baxil topsa bosib yer, botir topsa barcha yer 2.Yer sayyoramizning oltidan bir qismini tashkil qiladi 3.Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda. Keltirilgan misollarda yer so'zi...
- A. bir so'zning turli ma'nolaridir  
 B. bir so'zning turli shakllaridir  
 C. shakldosh (omonim) va ko'p ma'nolidir.  
 D. shakldosh omonim so'zdir

10. *Bajarmoq* so'zi quyidagi qaysi so'zlar bilan sinonim? 1.Ado etmoq  
2.O'tamoq 3.Bitirmoq 4. O'rinchlatmoq 5.vajo qilmoq
- A. 1,2,3,4,5.
  - B. 1,3,5.
  - C. 1,2,3,5.
  - D. 2,3,4,5.
- 11.Sinonimlar qatori berilgan javobni ko'rsating.
- a) afsus – afsuslanmoq – attang.
  - b) belgi – nishon – alomat – ajoyib
  - c) yaxshi – durust – tuzuk – ma'qul
  - d) yuz – aft – bashara – chehra – husn
- 12.Qaysi qatordagi juftlik antonim emas?
- a) uzun-qisqa
  - b) erta-kech
  - c) oldi-olmadi
  - d) do'st-dushman
13. "Uxlamoq" so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
- A. fe'l
  - B. noaniq shakl
  - C. holat
  - D. A va B javoblari to'g'ri
- 14."Daraxt" so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda berilgan?
- A. O'simlik
  - B. Ot
  - C. Jamlovchi ot
  - D. A va B javoblari to'g'ri
- 15.Qaysi qatorda "yer" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?
- A. Bir vaqt yer osti dukillagandek bo'ldi.
  - B. Yer sharining to'rtdan uch qismi suvlik.
  - C. Boshqalardan kam yerim bormi?
  - D. U ovqatni shoshib yer edi.
- 16.Quyidagi so'zlardan qaysi biri sinonomik qatorga kirmaydi?
- A. Afsus
  - B. Nadomat
  - C. Attang
  - D. Pushaymon
- 17.Ma'noviy sinonimlar qaysi qatorda berilgan?
- A. Respublika-jumhuriyat
  - B. Doston-poema
  - C. Kuldi-jilmaydi
  - D. Territoriya-hudud
- 18."Men sizlarning olmangiz, xomligimda olmangiz" ajratib ko'rsatilgan so'z qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- A. Ma'nosи bir – biriga yaqin so'zlar  
B. Bir so'zning ikki o'ringa qo'llanishi  
C. Bir xil shaklga ega bo'lgan bir so'z  
D. Bir xil shaklga ega bo'lgan ikki so'z
19. Uzukning ko'zi; oynaning ko'zi, ishning ko'zi, yog'ochning ko'zi, ajratib ko'rsatilgan so'z qanday izohlanadi?
- A. Omonim so'z
  - B. Sinonim so'z
  - C. Antonim so'z
  - D. Polisemantik so'z
20. Qamishni bo'sh ushlasang, qo'lingni qiyadi. Seni hozir bo'sh qo'yaman. Ishdan bo'sh vaqtlarim kam. Ushbu gapdagи bo'sh so'zi shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday nomlanadi?
- A. Omonim
  - B. Antonim
  - C. Ko'p ma'noli
  - D. Bir ma'noli
21. Baland va chiroyli tog'lar. Ushbu gapdagи baland so'zining grammatik ma'nosи qaysi qatorda berilgan?
- A. Belgi
  - B. Sifat
  - C. Oddiy daraja
  - D. B va C
22. Quyoshning oltin qalami nur tutar edi. Ushbu gapda ko'chimning qaysi turi qo'llangan?
- A. Metonomiya
  - B. Metafora
  - C. Sinekdoxa
  - D. vazifadoshlik
23. Leksikologiya bo'limida nima o'rganiladi?
- A. so'zning grammatik ma'nosи
  - B. so'zning lug'aviy ma'nosи
  - C. so'zning o'z va ko'chma ma'nolari
  - D. tilning lug'at boyligi
  - E. B,C,D javoblari to'g'ri
24. Polisemantik so'zlar qaysi qatorda berilgan?
- A. Qulоq, ish, odam, fe'l, tezlanish
  - B. Ish, yo'l, yoqa, qulоq, qo'l, ko'z
  - C. Barcha qatorda
  - D. A va V javoblari to'g'ri
25. Qaysi qatorda omonim so'zlar berilgan?
- A. Yuz, aft, bashara
  - B. Yuz, tur, shim

C. Yot, yon, ish

D. O't, bir, tomir

26. "Metafora qaysi qatordagi gapda uchraydi?

1. Ariq bo'yida gullar ochilgan

2. Tirnoqqa zor o'tdi.

3. Butun Samarqand g'azabga keldi.

4. Navoiyni o'qib chiqdim.

5. B va C

27. Qaysi qatordagi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

A. Qizil ko'yjak, qizil o'ngach, qizilcha

B. Qora niyat, qora kun, qora qarg'a

C. Tilla soat, tilla bola, tilla yigit

D. Kumush qish, kumush choynak, kumush tola

E. B va D javoblari to'g'ri

28. Qaysi qatorda shaxs – predmet unga bog'liq bo'lgan boshqa bir nom bilan atalgan?

A. O'n qo'l hunar.

B. Bizni "homiyalar"dan himoya qilg'il.

C. Osmon fonarini ham yoqdi shu onda.

D. G'oz singari qo'nar qo'llarga.

E. Quyoshli osmondeklar mag'rurdir chehrang.

1. Shakldosh (omonim) so'zlar qatorini toping.

A. bob, tol, qiz, yoqa, ko'z

B. kech, shim, tut, osh, til

C. oltin, to'r, cho'qqi, yosh

D. eshik, chang, kecha, tog'

2. Quyidagi gaplarning qaysi birida —gul— so'zi ko'chma ma'noda?

1. Turmush go'zal va shirin, kundan-kun yashnar gulday. 2. Yashnamoqda gul turmush, biz tinchlikni istaymiz. 3. Topgan gul keltirar, topmagan bir bog'piyozi. 4. Sen uy ichining cho'risi bo'lma, guli bo'l, guli.

A. 1, 3, 4

B. 1, 4

C. 1, 2, 3, 4

D. 2, 4

3. O'zbek tili lug'atida o'z ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lgan so'zlar qatorini toping.

A. ijarachi, vazirlik, guldasta, raqobatbardosh

B. kitob, ma'no, ruchka, parta

C. oftob, sahro, saraton, mavj

D. kiyim, buyum, ketmon, o'rik

4. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limiga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

A. yordamchi so'zlar, bog'lama, hol

B. ajratilgan bo'lak, undalma, kirish so'z

- C. umumxalq so'zлari, ko'p ma'noli so'z, atama  
D. grammatik ma'no, undovlar, bog'lovchi
5. Tildagi so'zlarning qanday paydo bo'lishini o'rgatuvchi lug'at ... {—  
A. izohli lug'at  
B. imlo lug'at  
C. morfemik lug'at  
D. etimologik lug'at
6. Qaysi qatorda iboraning ma'nosiga to'g'ri kelmaydigan so'z berilgan?  
A. tepa sochi tik bo'ldi — jahli chiqdi, achchiqlandi  
B. tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi — xira, tegajoq  
C. xamirdan qil sug'urganday — oson, tez  
D. qo'y og'zidan cho'p olmagan — mo'min, yomonlik qilmagan
7. Qaysi qatorda ibora qo'llangan?  
A. Aravakash sekin kulimsiradi.  
B. — Nega damning chiqmaydi, ko'ruvding-ku!~ — dedi To'la.  
C. Qani, mehmonlar, dasturxonadigilar olinglar.  
D. Kumush tola milliy boyligimiz sanaladi.
8. Qaysi qatorda tasviriy ifoda ma'nosini noto'g'ri berilgan?  
A. Pomir — dunyo tomi.  
B. Traktor — po'lat etak.  
C. Pilla — kumush tola.  
D. Farg'ona — yashil vodiy.
9. Qaysi qatordagi so'zlar o'zaro ma'nodoshlik (sinonimik) qatorini tashkil qilmagan?  
A. puxta, pishiq, chidamlı  
B. rost, chin, haqqoni, ochiq  
C. bahs, tortishuv, munozara, mubohasa  
D. obro', e'tibor, hurmat, nufus
10. Quyidagi ma'nodoshlardan (sinonim) qaysi biri belgini nisbatan kuchli ifodalaydi?  
A. yaxshi  
B. durust  
C. tuzuk  
D. binoyi
11. Qaddini ~ ... tutmoq—. Ushbu birikmadagi nuqtalar o'rniga qaysi so'zni qo'yish mumkin?  
A. odil  
B. adl  
C. adil  
D. adl yoki odil
12. Qaysi qatordagi so'zlar o'zaro paronim emas?  
A. matal-ma'tal  
B. ma'tal-mahtal

C. dara-darra

D. da'vo-davo

13. Quyidagi so'zlarning qaysi birida shakldoshlik (omonimlik) ot va fe'l turkumi o'rtaSIDA vujudga kelmaydi?

A. tush

B. to'r

C. tut

D. toy

14. "Vasildin so'z derga yo'q yoro manga, Hajr aro rahm ayla, yoro, manga, O'qing yetti xo'b yamon yoro manga, Malhami lutfing bila yoro manga".— Ushbu tuyuqdagI shakldosh so'zlar ma'nolari to'g'ri izohlangan javobni belgilang.

A. mador, yaragin, ey yor, yara

B. quvvat, ey yor, yaragin

C. mador, quvvat, ey yor, yara

D. quvvat, ey yor, yara, yaragin

15. —Mushfiq— so'zining lug'aviy ma'nosi berilgan qatorni toping.

A. kamtar, kamsuqum

B. oddiy, bechora

C. shafqat qiluvchi, shafqatli

D. mehribon, jonkuyar

16. —Mujda— so'zining ma'nodoshi (sinonimi)~ni toping.

A. novda

B. kiprik

C. xushxabar

D. ko'rinish

17. —Do'ppisi yarimta— iborasining ma'nodoshini toping.

A. beparvo

B. omadsiz

C. kambag'al

D. ishi yurishmagan

 D. Ular bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmoqdalar

- E. Men supaga o'tirdim.
30. Aniqlovchi vazifasida kelgan olmosh qaysi gapda qo'llangan?
- A. Shularni odam yaratgan
  - B. Nimadan gap ochishni bilmay turdi
  - C. Kimning uyi yaqin
  - D. Sizni nima qiziqtiradi
- E. Hech kimga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi.
31. Kiyimi qo'pol lekin yangi va puxta edi. Gapdag'i sifatlarning sintaktik vazifasini aniqlang.
- A. ega
  - B. to'ldiruvchi
  - C. kesim
  - D. aniqlovchi
- E. aniqlovchi-kesim
32. Ko'makchi so'zlar bilan qo'llangan vositali to'ldiruvchini aniqlang.
- A. Vaqt hamma jarohatlarni davolaydi
  - B. Baxtsizlik faqat kurash bilan yengiladi
  - C. Muhamyo bu sodda, beg'ubor bolaga havas bilan qaradi
  - D. Yoshlik kishiga faqat bir marta beriladi
- E. Yoshlikdagi yanglishishlarni kechirmoq kerak.
33. Payt holi qo'llangan gapni aniqlang.
- A. Alimardon qayrilib qaraguncha boshqa odamlar uni o'rab olishdi
  - B. Hech qachon zeriktirmaydigan o'ta topqir odam topilmasa kerak
  - C. Hazillashayotganda odobni saqlang
- D. A va S
- E. B va S
34. O'r'in holi qaysi javobda berilagnini aniqlang.
- A. Yaxshi fikrlarni takrorlash hech qachon ortiqchilik qilmaydi
  - B. Qayerda aniq bilim bo'lmasa, u joyda farazlar hukm suradi
  - C. Istak yo'qolgan yerda odam ham ado bo'ladi
- D. A va B
- E. B va S
35. Qaysi gapda ravish (vaziyat) holi qo'llangan?
- A. O'z burchini bajarishdan mammun odamgina erkin yashaydi
  - B. Vaqtini behuda o'tkazma
  - C. Xurshida boshidan hushi uchib borayotganini his qilib turar, yuragi gursillab urardi
- D. A va B
- E. A, B va S
36. Sabab holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?
- A. Bu kitobni o'qiyman deb olib kelgan edim
  - B. Odam faqat aqli bilan odamdir
  - C. Siz borki, dunyo husni barkamol
- D. G'iyos uyalganidan nima qilishni bilmay qoldi

E. B va D

37. Miqdor (daraja miqdor) holi qaysi gap tarkibida qo'llangan?

- A. Buyuk ishlar tez yuzaga chiqmaydi
- B. Yangilikka ko'proq e'tibor berilsin
- C. Bitta dushmaning ham ko'p, do'stlarining mingta bo'lsa ham kam
- D. Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni ham bilmaydiganlar bor

E. B va D

38. Otlashgan so'z bilan ifodalangan bo'lak qaysi javobda berilgan?

- A. Yaxshi kulgan odam-yaxshi odam
- B. Fidokor kishilar quyoshdek zarur
- C. Ezgu nom go'zal chehralardan afzalroq
- D. Tashqi qiyofani bezayvermasdan ma'naviy olamni bezash kerak
- E. Qushlarning chug'urchug'urida ham tashBish ohangi bor.

39. Maqsad holi qo'llangan gapni toping.

- A. Juman tezroq yotoqqa, bolalar yoniga chopib borgisi kelib ketdi
- B. Tulki qo'rqib ketib qocha boshladidi
- C. U o'qish niyatida shaharga keldi
- D. Luqmoncha vujudi titrab turganidan o'zini murdaday oqarib ketganini bilardi

E. A va S

40. Maqsad ravishdoshi bilan ifodalangan maqsad holi qaysi qatorda berilgan?

- A. Dam olishga shifonga to'plandik
- B. Bu rasmlarni ukamga ko'rsatayin deb olib keldim.
- C. Siz bilan bafurja gaplashgani keldim
- D. G'iyoq Tursunni ko'rmoqchi bo'lib kelgan ekan

E. B va S

41. Shart holi qo'llangan gapni ko'rsating.

- A. Bu vazifani hamma bajarishi shart
- B. Safar shartta jo'nab qoldi
- C. Bugundan tayyorgarlikni boshlasang bemalol ulgirasan
- D. Yer yaxshi ishlansa, hosil ham shunga yarasha bo'ladi
- E. S va B

42. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi(inversiya) qaysi qatorda berilgan?

- A. Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!
- B. Uzoq yashamoqchi bo'lsang, kamroq ovqatlan.
- C. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishddan saqlan.
- D. Dunyodagi hamma shodlik, hamma ezguliklarning manbayi mehnatdir.
- E. O'yin, qo'shiq, so'zlardan Ko'ngillar titrar asta.

43. Qaysi gapda hol bilan kesimning odatdagisi tartibi o'zgargan?

- A. O'tov ichida sak qabilalarining oqsoqollari kengash qurib o'tirardilar.
- B. Ular muammoni yechish uchun uzoq bosh qotirishdi.
- C. Quyosh chiqdi yer yuziga charaqlab.
- D. Yaxshilar diydorini ko'rsaydi ko'ngil.

E. S va D.

44. Sabab ravishi bilan ifodalangan sabab holini toping.

A. Bu kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi

B. Yangi chiqqan oy yoyilib ketgan o'roqday ingichka bo'lgani uchun yo'lни yoritmasdi.

C. Mahbuba uning taklifiga noiloj ko'ndi

D. Alisher shu sababli vahimaga tushdi

E. Nima uchun uning bashorati ijobat topmadi.

45. Qaysi gap tarkibida ham vositali ham vositasiz to'ldiruvchi qo'llangan?

A. Fanni ko'pincha bilim bilan yanglishtiradilar

B. Quruq so'z bilan ish bitmas

C. Dehqon kasbini xo'rلamas

D. Tinchlik bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar

E. Aql bo'y bilan o'lchanmaydi.

46. Qaysi gapda ikkta vaziyat holi(ravish holi) qo'llangan?

A. Tevarak atrofga hayronlik bilan boqa boshladи

B. Ammo ziyrak qiz bu so'z tagida nimalar borligini darhol anglaydi.

C. U juftsiz holda o'zi tanho yashaydi

D. Har qayer har qayerda o'tinlar ustma-ust qalab qo'yilgan

E. Bu xil jar maydoni kamdan kam uchraydi.

47. Hol va kesimning inversiyasi qaysi gapda kuzatiladi?

A. Bilmaganin o'rganib, odamzod topdi kamol

B. Bir doktor kelgan mish Toshkentdan. Shuni chaqirishmoqchi

C. Qanchalik hikmat, haqiqat bor ularda!

D. Esingdami, katta Farg'ona kanalini qurish qanday boshlangani?

E. Kezdim jannat yanglig' bog'larni.

48. Vositasiz to'ldiruvchi qaysi javobda berilgan?

A. Baxt sog'liqqa o'hshaydi: u bor bo'lsa, payqamaysan.

B. Vaqt va suv toshqini hech qachon kutib turmaydi

C. Mehnat odamni yuksaklikka ko'taradi

D. Ikkilanish kuchni yo'qotish demakdir

E. C va D

49. Qaysi gapda sifatllovchi-aniqllovchi ot-kesimga bog'langan?

A. Obodli va oqil odamlarga nisbatan eng arzimas hazilni ham qila ko'rmang

B. Hamma qobilyatlarning sarvari sog'lom fikrdir.

C. Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo'ldir

D. Faqat harakatgina ezgulikning qadr-qiyamatini belgilaydi

E. B va C

50. Ibora bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi qatorda qo'llangan?

A. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamoman hovridan tushdi.

B. Boshimiz oqqan tomonga ketaveramiz

C. Xo'zabekovning g'ururi lat yedi: raislik amaliga tumshuq suqmagan shu mo'ylov qoluvdi

D. Har kim dili tortgan kishi bilan yuradi

E. Bunday aniqlovchi hamma javoblarda qo‘llangan.

51.1. Dunyo dunyo bo‘lib yaraldi qachon? 2. Keltirgan gullaringizning qaysi biri chiroli? 3. Nima-nima oldingiz? 4. Musobaqada g‘olib chiqqan kim? Ushbu berilgan gaplarda so‘rov olmoshlari qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelgan?

- A. 1.hol; 2.aniqlovchi; 3.to‘ldiruvchi; 4.ega;
- B. 1.hol; 2.ega; 3.kesim; 4.aniqlovchi;
- C. 1.to‘ldiruvchi; 2.ega; 3. ega; 4.kesim;
- D. 1.hol; 2.ega; 3.to‘ldiruvchi; 4.kesim;
- E. 1.to‘ldiruvchi; 2.ega; 3.kesim; 4.aniqlovchi;

## EGALI VA EGASIZ GAP

1. Qaysi gapda egasi yashiringan gap berilgan?

A. Xonaga kirgan avval salom beradi

B. Manzilga mana shu yo‘ldan boriladi

C. Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak

D. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan

2. Qaysi qatorda egasiz gaplar berilgan?

A. Murojaat matni yozildi, imzolar chekildi

B. Eshik ochiq bo‘lsa ham, so‘rab kir

C. Dam olish kuni kitobxonlar yig‘iniga borish kerak

D. Bugun to‘garakka borishimiz lozim edi.

3. Qaysi qatorda o‘tov gap qo‘llanmagan?

A. Hovli zim-ziyo. Ariqdagi suv mildirab oqadi

B. Yam-yashil o‘tov. Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi.

C. Qip-qizil saraton quyoshi. Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladи.

D. Barcha gapda atov gap qo‘llangan.

4. Qaysi gapda ega qo‘llangan?

A. O‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilmaslik

B. O‘quvchi yo‘q har qadamda qoqliladi

C. Tarbiyachi va o‘qituvchi bo‘lish uchun chidam bilan o‘qiladi

D. O‘zinigina o‘ylovchi kishini yaxshi odam deb bo‘lmaydi.

5. Shaxsi umumlashgan gapni toping.

A. Aruz vaznining ohangini yurak urishiga o‘xshataman

B. Birovning izidan gapirma, o‘ziga gapir

C. Zo‘r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin

D. Farzandni gulga, onani bo‘singga o‘hshatadilar

E. Bahor. Atrof go‘zal.

6. Shaxsi topilmas gapni toping.

A. Kiyimni bo‘yga qarab bichadilar

B. Umr bo‘yi bilimni boyitib borish lozim

C. Xalqimning baxtu-saodati yo‘lida xizmat qilishga tayyorman

D. Do‘smini yomonlagandan qoch

- E. Orqadan gapirgan do'st emas.
7. Atov gapni toping.
- A. Haqiqatni yashirib bo'lmaydi
  - B. Ko'p yig'lasang, ko'zdan ajraysan
  - C. Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
  - D. Bahor. Tog'lar, qirlar yashnab ko'rinati
  - E. Ishing oldinga surilishini istasang, tabassumda bo'l.
8. To'liqsiz gapni toping.
- A. Shundaymi? - yoqasini ushladi chol
  - B. — Familyangiz nima? — A'zamxonava.
  - C. Sabr — umr xazinasи
  - D. Ertaga Qorabuloqqa borar ekansizda?
  - E. Bo'ka tumanida istiqomat qilayotgan Ozodaxon Abdullaxonovani tanisizmi?
9. Imtixonlarga puxta tayyorgarlik ko'rdingmi? Ha, tayyorgarlik ko'rdim. Ushbu gapdag'i ha so'zini qanday izohlaysiz?
- A. gap
  - B. so'z gap
  - C. kirish so'z
  - D. atov gap
  - E. to'liqsiz gap.
10. Qaysi qatorda bir bosh bo'lakli gap berilgan?
- A. Bu yil olma bilan o'rik hosili mo'l bo'ldi
  - B. Sochilgan urug' tez unib chiqdi
  - C. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek
  - D. Suvlar tiniq, yaproqlar oltin
  - E. Gullab yotgan o'rikzor xira pardaga o'raldi
11. Bir bosh bo'lakli gap qo'llangan qatorni toping.
- A. Qo'rroq hamma narsadan mahrum
  - B. Elni ixtilof buzadi
  - C. O'tgan narsa hamisha totli
  - D. Yetmish go'zallikning biri mehnat
  - E. Toshdan gavharni farq qilish kerak.
12. Bir bosh bo'lakli gapni toping.
- A. Insonni bilish uchun uni sevish kerak
  - B. Nahotki, bugun yomg'ir yog'sa?
  - C. Hayotning go'zalligi ham xalqlarning rang-barangligida emasmi?
  - D. Sayida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi
  - E. Ko'p bilgan oz so'zlar.
13. Gap bo'laklari grammatick jihatdan bog'lanmaydigan bo'lak qaysi qatorda qatnashgan?
- A. Qaro ko'zim, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il
  - B. Uni tanib bilib keyin so'ray boshladi.

- C. Kecha desangiz qor yog'ib qoldi  
D. Ava C  
E. barcha javoblar.
14. Qiziq, anavi kim? Ushbu gapdag'i qiziq so'zi qanday gap bo'lagi vazifasini bajargan?
- A. kesim
  - B. sifatlovchi-aniqlovchi
  - C. ega
  - D. undalma
  - E. kirish so'z
15. Bir bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?
- A. Saida shuni tezroq bilgisi kelardi
  - B. Hozir soat o'n bir.
  - C. Saida shuni tezroq bilmoqchi edi
  - D. Soat o'n birdan qirq besh minut o'tdi
  - E. Bo'ldiradigan ham xotin, o'ldiradigan ham xotin!
16. Sodda yig'iq gap berilgan gapni toping.
- A. Alisher o'ylanib qoldi
  - B. Yigit ham shunaqa bo'ladimi?
  - C. Siz farg'onalikmisiz?
  - D. Sen shermisan?!.... Sen beburd yaramassan
  - E. Barcha javoblar to'g'ri.
1. Ikki bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?
- A. Aqqli yoshlar fursatlarini bekorga sochmaydilar, g'ayrat bilan o'qiydilar, ishlaydilar
  - B. Har kuni sport bilan shug'ullaning
  - C. Paxtakorlik kasbini ulug'layapmiz
  - D. Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi
  - E. Vaqtini orqaga qaytarib bo'lmaydi.
2. Bir bosh bo'lakli gapni toping.
- A. Ra'no oyoq uchlarini sariq atlas ko'ylagi bilan yashirdi.
  - B. Aql odamning ko'rki
  - C. Inson qalbi bilan hazillashmang siz.
  - D. Yoshlik go'zallik
  - E. Doim yaxshi niyat tilab yashash kerak.
3. To'liqsiz gapni aniqlang.
- A. Bolalik uyda sir yotmas
  - B. Bolalik uyda g'iybat yo'q
  - C. Bol shirin boldan bola shirin
  - D. Qochoqqa shafqat yo'q qo'rkoqqa hurmat.
  - E. O'ziga boqma so'ziga boq.
4. Siz ham shunday o'ylaysizmi? Aksincha! Ikkinci qatordagi gap qaysi javobda to'g'ri izohlangan?
- A. to'liqsiz gap

- B. tasdiq bildiruvchi so'z gap  
 C. inkor so'z gap  
 D. bir bosh bo'lakli gap  
 E. Gap emas, undov so'z.  
 5. Qaysi qatorda ikki bosh bo'lakli gap berilgan?  
 A. Siz bilan bu haqda gaplashishga to'g'ri keladi  
 B. Ertalabki salqinda yetib borish kerak  
 C. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'i  
 D. Katta qizi bir choynak va ikkita piyola olib kirdi.  
 E. Endi astoydil o'qishga to'g'ri keladi.  
 Qaysi qatorda so'z - gaplar qo'llangan?  
 A. — Sening bundan xabaring bormi, Ali? — Yo'q, ustod.  
 B. — Ulardan xat keladimi? — Keladi, keladi.  
 C. — Shu voqeadan so'ng kuyovingiz aniq kelganmi edi? — Kelgan edi, qizim.  
 D. — Siz qayerdan, mehmon? — Toshkentdan.

## UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR

- Qaysi qatorda uyushiq kesimli gap berilgan?  
 A. Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi  
 B. Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko'tarilib, birga ulg'aydi.  
 C. Biz voqeada sodir bo'lgan joyga borishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak  
 D. A, B va C
- Qaysi qatorda uyushiq bo'lakli gap va qo'shma gap juftligi berilgan?  
 A. Tig' yarasi tuzaladi, lekin dil yarasi tuzalmaydi. Hamma chuqur xo'rsindi, Anorxon piq-piq yig'ladi.  
 B. Pulemyot, miliqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so'nggilar esa uni vahimaga soldi.  
 C. Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo'lamiz.  
 D. Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.
- Qaysi qatordagi gapda uyushiq hol ot va fe'l so'z turkumlari bilan ifodalangan?  
 A. U hayajon bilan, tez-tez va bo'g'ilib so'zlar edi.  
 B. Podsho goh kulib, goh jiddiy o'y bilan quloq soldi  
 C. Saida goh afsuslanib, goh kuyib, goh kulib gapirib berdi  
 D. Ufqqa tutashib ketgan polizlar va tokzorlar qizg'ish, qahrabو tusda tovlandi.
- Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga —Sattor bir lahzada yetdi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?  
 A. uyushiq bo'lakli gap  
 B. uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap

- C. ajratilgan bo'lakli gap  
 D. Barcha hukmlar noto'g'ri  
 5. Qaysi gapda egaga taalluqli ajratilgan izohlovchi berilgan?  
   A. O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, dedi ona  
   B. Qobil bobo, yalangboshi, yalang oyoq, eshik yonida dag'-dag' titraydi  
   C. Seryoja- oddiy , navqiron, mard yigit — o'rtoqlari uchun jonini fido qildi  
     D. A va C  
 6. Ajratilgan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?  
   A. O'cta Osiyo Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.  
   B. Shoир sevgan qiz shu — hamshira/  
   C. Biz, yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz  
   D. U yerda, taxta ko'priк ostida, bir buloq bor  
   E. Qobil bobo, yalang bosh yalang oyoq, yaktakchan, og'il eshigi yonida turib dag'-dag' tiraydi.  
 7. Gapning bosh bo'lagi ajratilgan gapni toping.  
   A. Paxtakor o'zbekman — zabardast, mag'rur  
   B. bu habar ko'plarni, shu jumladan Mahкамни ham, juda quvontirdi  
   C. Biz, hammamiz, bir oilaning bolasimiz  
   D. Uzoqdan otliqlarning-Alisher va uning hamrohlari qorasи ko'rindi  
   E. Men yong'oqzor topdim — go'zal, xushhavo  
 8. Ajratilgan izoh hol berilgan qatorni toping.  
   A. Ultarma bu yerga hiyla olis bo'lsa ham, bu ikki oshna bordi keldi qilib turishar edi  
     B. Kampir tovush chiqarmay, kyunub yig'ladi  
     C. Hu ana o'sha joyda, taxta-ko'priкning ostida, atrofi qalin yalpiz bilan o'ralgan kichik bir buloq bor  
     D. Asrorqul bunga rozi bo'lmasa ham, kampirning rayini qaytargani botinolmadi  
     E. Shovqin solmang, Arslonbek aka, atrofda odam bor!  
 9. Uyushiq bo'lakli sodda gap berilgan qatorni toping.  
   A. Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg'oqda tartibsiz o'sgan o'tlarni silkitar edi  
     B. Gap tashuvchilarni, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men yomon ko'raman  
       C. Bahor keldi, gul ochildi, chaman bo'ldi yurtimiz  
       D. Ilmi ming yashar, ilmsiz bir yashar  
       E. Vali qaerga borishini bilmay, birpas ikkilanib turgach, qarshidagi tepalikka qarab yurdi.  
 10. Ajratilgan izoh bo'lakli gapni toping.  
   A. Bektemir ko'zlarini ochganida, yomg'in tez va shiddat bilan yog'moqda edi  
   B. Afsuski, yer yuzida urushsiz yashab bo'lmayapti  
   C. Sa'va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar  
   D. Qobiljon Umaraliev, tasviriy san'at o'qituvchisi, to'garak ishini yo'liga qo'yib yubordi  
     E. Ibodat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi.

11. Umumlashtiruvchi bo'lak qaysi gapda qo'llangan?
- A. Negaki ular meni katta ehtiros, qiziqish bilan kutib oladilar
  - B. Bu habarni eshitish bilan Otabekda ko'riladigan o'zgarishlarni, hollarni harakatlarni — barchasini birma-bir ko'nglidan kechirar edi.
  - C. Hullas, vatanimizning osti ham usti ham oltindir
  - D. Albatta, vaqt kutib o'tirmaydi o'tib ketaveradi
  - E. Ulug' yozuvchilarimizning, shoirlarimizning satrlaridan san'at namunasi sifatida bahra olamiz.
12. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi qaysi gapda qo'llangan?
- A. Quyosh bulutlarning yumshoq, momiq ko'rpasida erkalanib yumalar edi
  - B. Shu pallada darvozadan katta qora sigir yugurib chiqdi
  - C. Nafis gullarning, xushbo'y giyohlarning hidlari anqiydi
  - D. Biz oq, qizg'ish va kul rang toshlarni terdik
  - E. Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.
13. Uyushiq bo'lakli gapni toping.
- A. Sabr-toqatga qodir odam xohlagan narsasiga erishishga ham qodir
  - B. G'azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi
  - C. Vazmin va xushmuomala qariya hammaga yoqadi
  - D. Xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning sog'lom bo'lishidir
  - E. Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan voz kechishni talab etadi.
14. Yonimizda qizlar, o'g'illar, qo'shiq aytsin, yayrasin, kulsin. Ushbu gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?
- A. faqat ega
  - B. bosh bo'laklar
  - C. faqat kesim
  - D. to'ldiruvchi
  - E. hol
15. Yuklama yordamida birikkan uyushiq bo'lakli gapni toping.
- A. Vatan va xalq — egizak
  - B. Bulbul goh sayraydi, goh tinadi
  - C. U davra o'tasiga o'tirdi-da, sekin so'zlay boshladи
  - D. U she'rlarni, maqollarni chanqoqlik bilan o'qigan hamda yod olgan.
  - E. Ertaga yo teatrga, yoki muzeyga bormoqchimiz.
16. Quyidagi vositalardan qaysi biri uyushiq bo'laklarni o'zaro bog'lashda ishtirok etadi? 1) kelishik qo'shimchalari 2) egalik qo'shimchalari 3) shaxson qo'shimchalari 4) yordamchi so'zlar 5) ohang
- A. 4,5
  - B. 1,2,3,5
  - C. 2,4,5
  - D. 2,3,4,5
  - E. 3,5
17. Ozoda bolalarning ruhlari toza, aqlari komil, badanlari sihat, dimog'lari choc', o'zları qadirli va qimmatli bo'lur ("Ilm ahloq"dan) jumlasidagi uyushgan bo'laklar gapning qaysi bo'laklari hisoblanadi?
- A. aniqlovchi

B. to'ldiruvchi

C. hol

D. kesim

E. ega

18. Bu xabar ko'plarni, shu jumladan, Rustamni ham, quvontirdi. Gapda qanday bo'lak ajratilgan?

A. ega

B. kesim

C. aniqlovchi

D. to'ldiruvchi

E. hol.

19. Ajratilgan izoh to'ldiruvchi qatnashgan qatorni aniqlang.

A. U yerda, qishloqning markazida, ajoyib choyxona bor edi

B. Tunov kuni, bayram arafasida ajoyib kechaning guvohi bo'ldim

C. Axir uning, singlimning ham tengdoshlari orasida o'ziga yarasha obro'si bor.

D. Biz Beshyog'och dahasining yuqorisida, o'ng tarafdag'i kichik mahallada yashardik

E. Kitob ichidagi dastxatga, menga tanish husnixatga uzoq tikildim.

20. Ba'zan, qiyinalib qolganida, menga murojaat qilardi. Ushbu gapda qanday bo'lak ajratilgan?

A. ajratilgan bo'lak mavjud emas

B. hol

C. to'ldiruvchi

D. aniqlovchi

E. kesim

21. Ajratilgan holni toping.

A. O'smoqdamiz biz – yosh avlod, qalbimizda zo'r istak

B. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga

C. Kuylar chalar shoir -bastakor

D. Qo'llar ishlar tez – mo'jizakor

E. O'zbekistonda Navro'z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi.

22. Qaysi gapdag'i uyushiq bo'laklar ayiruv bog'lovchisi vazifasidagi yuklamalar yordamida bog'langan?

A. Bu ishda eng muvofiq ham ishonchli kishi Safar bo'zchi edi

B. Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladik

C. O'rnidan turdi-yu, gapirmadi

D. G'ayrat mening bu ishimdan ranjimadi, balki quvonganini izhor qildi

E. Ichkaridan chiqqan qiz yo'lakkami, mehmonxonagami o'tib ketdi.

23. O'rin hollari uyushib kelgan gapni toping.

A. Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning qulay vositasidir.

B. Insonga xos barcha fazilatlarning eng muhimini va eng ololyanobi – aql

C. Barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi

D. Bolalar yaslilari va bog'chalarida farzandlarimiz tarbiyalanmoqda va kamol topmoqda

- E. Ular soy bo'yidagi toshlardan, har xil giyohlardan namunalar olishdi.
24. Mana ko'rdinglarmi, qattiq-tishlaringni ushatadi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratib izohlangan?
- A. sifatlovchi-aniqlovchi
  - B. ot-kesim
  - C. izohlovchi
  - D. vaziyat holi
  - E. ajratilgan bo'lak qo'llanmagan.
25. Teng bog'lovchi qaysi gapda uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun qo'llangan?
- A. O'quvchilar kelishdi va to'garak mashg'uloti boshlandi
  - B. Goh yuraklar simobday qalqiydi, goh tilga gap kelmaydi
  - C. Shahar va qishloqlarni yashil libos bilan bezatish vazifamizdir.
  - D. Bu yil ko'rgazmada qatnashayotganlarning hammasi kelgusi yilda ham qatnashadi
  - E. ...Ha, bilim boshqa, ta'lim boshqa.
26. Qaysi gap ajratilgan izoh bo'laklı gap sanaladi?
- A. Sa'va, bulbul, maynalar qanot qoqib kelinglar
  - B. Ibotat she'rni zavqlanib, hayajon bilan o'qidi
  - C. Bektemir ko'zlarini ochganda, yomg'ir tez va shiddat bilan yog'moqda edi
  - D. Aziz Abdurazzoqovich, ichki xizmat mayorи, tekshiruv o'tkazdi
  - E. Bulbul goh sayraydi, goh tinadi.
27. Qaysi qatorda kesimi uyushgan gap berilgan?
- A. Biz harbiy uchuvchi va Vatan posbonlari bo'lamiz.
  - B. Latofat atirgul, Zebiniso qizil gul tanladi.
  - C. Sandal to'riga cholim bilan Oqsoqol, beriroqqa ovsinim, men, Robiya o'tirdik.
  - D. Yigitning yuz va ko'zida andisha, alam va hayajon alomatlari ko'tinardi.
28. Shu yerda, jiydazor yonidagi xilvat joyda, u menga o'z o'tmishini, to'g'rirog'i, shu yozda boshidan kechirgan va qalbida chuqur iz qoldirgan bir voqeani hikoya qilib berdi. Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?
- A. hol va aniqlovchi
  - B. hol va to'ldiruvchi
  - C. faqat to'ldiruvchi
  - D. faqat aniqlovchi
29. Qaysi gapda ayiruv bog'lovchisi uyushgan o'rin holini bog'lagan?
- A. Ba'zan oyim, ba'zan buvim bilan Yunusobodga borardik.
  - B. Bo'ron goh nortuyadek, goh och bo'riday uvillardi.
  - C. Xirmonga katta yo'ldan yoki uvatdagi yolg'izoyoq yo'ldan boriladi.
  - D. Xolposh xola goh u kelinga, goh bu kelinga talmovsirab qaraydi.
30. Qaysi hukm noto'g'ri?
- A. Undalmalar ham ega singari bosh kelishikda qo'llanadi.
  - B. Undalmalarning gapdagisi o'rni erkindir.
  - C. Undalmali gaplarning kesimi, ko'pincha, birinchi va ikkinchi shaxs shakllarida bo'ladi.

D. Undalmalar o'ziga qarashli aniqlovchi, izohlovchi yoki hol bilan yoyiq holda qo'llanadi.

31. Qaysi qatorda ayiruv bog'lovchisi uyushiq aniqlovchilarni bog'lashga xizmat qilgan?

A. Ba'zan chumchuqning, ba'zan kaklikning yoqimli ovozi kishiga orom bag'ishlaydi.

B. Ba'zan tongda, ba'zan yarim tunda kirib keladi.

C. Bu topshiriqni Gulnora yoki Azizga yuklash mumkin.

D. Bahor havosi betayin: goh yomg'ir yog'adi, goh charaqlab quyosh chiqadi.

32. Uyushiq bo'laklariga xos bo'lgan xususiyatlar qaysi javobda noto'g'ri izohlangan?

A. uyushiq bo'laklarning hammasi bitta bo'lakka tobelanish yo'li bilan bog'lanadi

B. doim o'zaro teng yoki sanash ohangi yordamida teng bog'lanadi

C. doim bir xil so'roqqa javob bo'ladi

D. doim bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi

33. Uyushmagan sifatlovchi-aniqlovchi qo'llangan gapni toping.

A. Quyosh bulutlarning yumshoq, momiq ko'rpsida erkalanib yumalar edi.

B. Nafisada qizil va sariq qalam bor.

C. Ergashni tajribali keksa shifokor davoladi.

D. O'tov yonida uni och havorang ko'yak kiygan va oq durra o'ragan hamshira qiz Lola bilan hassaga suyangan, xushmuomala Yo'ldosh bobo kutib oldi.

34. Qaysi qatorda uyushgan sifatlovchi-aniqlovchi gap qo'llangan?

A. Mashina keng tekis yo'ldan ketdi.

B. Biz katta yorug' sinfda o'qiymiz.

C. Sherali lola va tog' gullaridan katta chiroyli guldasta yasadi.

D. Olimlarning mehnati natijasida tezpishar, serhosil yangi paxta navlari yetishtirildi.

35. Gapda qanday bo'laklar ajratilgan izoh bo'lakli bo'lishi mumkin?

A. aniqlovchi va to'ldiruvchilar

B. hol

C. ikkinchi darajali bo'laklar

D. bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

36. O'smoqdamiz biz - yosh avlod, qalbimizda zo'r istak.— Ushbu gapda qanday ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. ajratilgan izoh kesim

B. ajratilgan izoh to'ldiruvchi

C. ajratilgan izoh aniqlovchi

D. ajratilgan izoh hol

37. 1.^Meni, Akrom Madumarovni o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 2.^Meni, Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 3.^Meni, ya'ni Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi. Ushbu gaplardan qaysi birida ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. 1, 2, 3

- B. faqat 1
- C. faqat 3
- D. 2 va 3

38. Qaysi qatorda ajratilgan izoh bo'lak mavjud?

A. Men, Karim aka va haydovchimiz erta tongda yo'lga tushamiz.

B. Bolam, jon bolam, o'zingni ehtiyoq qil!

C. Qalay, Hamidboy, ishlar o'ngidanmi?

D. Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k barglari ostida, hali ham allaqanday sokinlik mavjud edi.

39. Quyidagi qaysi fikr noto'g'ri?

A. Undalmalar gapning boshida, oxirida, o'rtasida kelishi mumkin.

B. Kirish so'zlar gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin.

C. Ajratilgan izoh bo'laklar gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin.

D. Berilgan barcha fikrlar noto'g'ri.

40. Qaysi uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z qo'llanmagan?

A. Suv, yer, elektr - bular hayot bahoriga yangi go'zallik va yangi nash'a bag'ishlovchi kuchlar edi.

B. Majlisda qatnashdilar: Sobir Erkinov, Nodir Olimov, Abdulla Saidov va boshqalar.

C. Bog'imizdag'i mevalar: olma, o'rik, olxo'rilar mo'l hosil qildi.

D. Kishilar, xotinlar - kutib oluvchilar vagon bo'ylab chopdilar.

41. Belgili va belgisiz kelishik shakllari bilan ifodalinish qaysi gap bo'laklariga xos?

A. vositali va vositasiz to'ldiruvchilarga

B. qaratqichli va sifatlovchi aniqlovchilarga

C. qaratqichli aniqlovchilar va vositali to'ldiruvchilarga

D. qaratqichli aniqlovchilar va vositasiz to'ldiruvchilarga

42. Aziz vatandoshlar!— Bizning ajodolarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashaganlar.— Ushbu matnda ostiga chizilgan birlik qanday birlik hisoblanadi?

A. so'z birikmasi

B. undov gap

C. ajratilgan izoh bo'lak

D. undalma

43. Aziz ustozlar, do'stlar, opa-singillar, aka-ukalar! Bu sharafli ishda barchamiz mas'ulmiz.— Ushbu gapda qanday bo'lak uyushgan?

A. ega

B. aniqlovchi

C. undalma

D. ajratilgan izoh bo'lak

44. Gapda sanash ohangi bilan bog'lanib, bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlar nima deyiladi?

A. ega

B. kesim

C. undalma

D. uyushiq bo'lak

45. Aytganday, mana bu kitobni o'qib chiqdingizmi?— Ushbu gapda qo'llangan — aytganday— so'zi qanday bo'lak?

- A. kiritma
- B. kesim
- C. undalma
- D. ajratilgan bo'lak

46. Ikki o'rtoq - Durdona bilan Nilufar~- birga o'tirib, nimalarnidir muhokama qilishdi.— Gapda qanday bo'laklar uyushib kelgan?

- A. ega
- B. aniqlovchi
- C. undalma
- D. ajratilgan bo'lakdagi izohlovchi

## GAP BILAN GRAMMATIK JIHATDAN BOG'LANMAYDIGAN BO'LAKLAR

6. Qaysi qatordagi gapda kiritmalar aytilayotgan fikrga oid izoh, qo'shimcha axborot berish uchun qo'llangan?

A. Chindan ham, mashina dehqonning og'irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi

B. Chinorning yonish voqeasi (uning tafsilotini ikkinchi bobda bayon qilgan edik) jamoaga asta-sekin ma'lum bo'la boshladi

- C. Dadam shu atrofdan — qishloqning chiqaverishidan — do'kon qurdirdi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

7. Menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, nazarimda, eshitishimcha kirish so'zlarining ifodasi to'g'ri berilgan qatorni toping.

- A. his-hayajonni bildiradi
- B. fikrni shakllantirishga xizmat qiladi
- C. fikrni tartibini bildiradi
- D. noaniqlikni
- E. fikr manbaini.

8. Demak, pardozning ham, kiyinishing ham chamasi va me'yori bor. Ushbu gapdagagi kirish so'z qaysi ma'noni bildiradi?

A. Ishonch va tasdiq

B. Shodlik yoki achinish

C. bayon qilingan fikrning tartibi

D. bayon qilingan fikrning oldingi fikr bilan bog'liqligi

E. bayon qilingan fikrning kimga qarashliliginи.

9. Gumanни bildiradigan kirish so'z qaysi qatorda berilgan?

A. Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali va paxtakor

B. Menimcha, u bugun erta o'yini o'ylab olgani ma'qul

C. Mening so'zlarim sizga, ehtimol achchiq tuyilayotgandir

D. Jigarim esga tushsa, achinaman, albatta

E. Xullas, qo'shiq yana avjiga mindi.

10. Kirish birikma qaysi gapda qo'llangan?

- A. Har bir o'rtog'ingiz, shak-shubhasiz, sizga faqat yaxshi niyat tilaydi
- B. Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtonchoqlikni yomon ko'rди u), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi

C. Birinchidan, bu zamin vag'rida Mendelev jadvalidagi hamma elementlar mavjud, ikkinchidan o'zbek xalqi juda mehnatkash xalq ekan

- D. Tabibning ta'biricha, tuzalmaydigan kasallik yo'q

- E. Men sizga aytSAM, odamning yomoni bo'lmaydi.

11. Qaysi qatorda kirish gap berilgan?

A. Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q

- B. Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi

C. Gapning po'st kallasini aytganda, kiyim – kechak masalasida ham yordam berishadi

- D. Qishloqning orqa tomonida, es-es bilaman, katta uzumzor bor edi

- E. To'g'ri, o'zbek adabiyotining taribi ming yillar bilan belgilanadi.

12. Bir bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?

- A. Mayin shamol sadalarning ko'm-ko'k yaproqlari bilan o'ynashmoqda

- B. Ma'naviy fazilatlar husnni oshiradi

- C. Hamma narsaga asta-sekin erishiladi

- D. Men bu institutning dovrug'ini ko'p eshitganman

- E. Tog' suvlari yangi kanaldan to'lqinlanib oqa boshladi.

13. Uyushiq undalmali gapni toping.

A. Baxtiyor yoshlar, to'g'ri yo'ldan adashmang, yoshlikni behuda o'tkazmang

- B. Menda ixtiyor yo'q, oyijon!-dedi Kumush

- C. Kuyla, kuyla, respublikam, baralla!

- D. Xayr, yashil o'rmonlar, moviy dengizlar!

- E. Nazm tuz, Erkin ahir, erkin zamondir bu zamon.

14. Kirish birikmani toping.

- A. Olimning ta'kidlashicha, izchil mehnat hamma to'siqlarni yengadi

- B. Menimcha, badiiy asar o'qish yaxshi hordiq chiqarishdir.

- C. Nihoyat, Sultonmurod Hirot voqealari haqida gapirishni so'radi.

- D. Haqiqatan, Kimsan bugun unumli mehnat qilgan edi

- E. O'rtoq o'qituvchini (Xolmurodni qishloqdagilar shunday deb ataganlar)

idoraga boshlab keldi.

15. Ikki bosh bo'lakli gap qaysi qatorda berilgan?

A. Aqlii yoshlar fursatlarini bekorga sochmaydilar, g'ayrat bilan o'qiydilar, ishlaydilar

- B. Har kuni sport bilan shug'ullaning

- C. Paxtakorlik kasbini ulug'lapyamiz

- D. Sharqda hamma keksalarni shoir hisoblashadi

- E. Vaqtini orqaga qaytarib bo'lmaydi.

16. Bir bosh bo'lakli gapni toping.

- A. Ra'no oyoq uchlarini sariq atlas ko'ylagi bilan yashirdi.

- B. Aql odamning ko‘rki  
 C. Inson qalbi bilan hazillashmang siz.  
 D. Yoshlik go‘zallik  
 E. Doim yaxshi niyat tilab yashash kerak.  
 17. To‘liqsiz gapni aniqlang.  
 A. Bolalik uyda sir yotmas  
 B. Bolalik uyda g‘iybat yo‘q  
 C. Bol shirin boldan bola shirin  
 D. Qochoqqa shafqat yo‘q qo‘rqaqqa hurmat.  
 E. O‘ziga boqma so‘ziga boq.  
 18. Siz ham shunday o‘ylaysizmi? Aksinchalik! Ikkinchini qatordagi gap qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?  
 A. to‘liqsiz gap  
 B. tasdiq bildiruvchi so‘z gap  
 C. inkor so‘z gap  
 D. bir bosh bo‘lakli gap  
 E. Gap emas, undov so‘z.  
 19. Qaysi qatorda ikki bosh bo‘lakli gap berilgan?  
 A. Siz bilan bu haqda gaplashishga to‘g‘ri keladi  
 B. Ertalabki salqinda yetib borish kerak  
 C. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l  
 D. Katta qizi bir choynak va ikkita piyola olib kirdi.  
 E. Endi astoydil o‘qishga to‘g‘ri keladi.  
 47. Quyidagi kirish so‘zlarning qaysi biri asosan gap oxirida keladi?  
 A. to‘g‘ri  
 B. demak  
 C. shekilli  
 D. haqiqatan  
 48. Qanday undalmalar yoyiq undalmalar deb yuritiladi?  
 A. birdan ortiq uyushib kelgan undalmalar  
 B. alohida ohang bilan ajratib aytigelan undalmalar  
 C. o‘ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar  
 D. undalma qo‘llangan gapda egasi ham mavjud bo‘lsa  
 49. Ham undalma, ham ega ishlataligan gapni belgilang.  
 A. O‘zbekiston! Sen bizning faxrimizsan.  
 B. Qushlar bizning do‘stimiz.  
 C. Do‘stlar! Tabiatni asraylik.  
 D. Oh, bu o‘lka naqadar jozibali.

## QO‘SHMA GAPLAR

1. Qaysi qatorda sodda gap berilgan?  
 A. Yurtim dalalaring bebabho, tuprog‘ing tavarruk  
 B. Ayol kishiga avvalo, ona deb qarasak , hammasi joy-joyiga tushadi  
 C. Kuchli shovqin nafaqat katta yoshdagagi kishilar, shunindek, o‘quvchilar faoliyatiga ham zarar keltiradi

- D. Yigit-qizlarimiz O'zbekistonning, insoniyatning bolasi bo'lsa , hamma faxrlanadi
2. Qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.
  - A. Bahrom kanizagiga ko'z tashlaydi , ammo uning hayratlanmaganligi Bahromni darg'azab etadi
  - B. Bir kuni sarkarda ovdan qaytayotib, Bahromni o'z oromgohiga taklif qiladi
  - C. Haqiqatdan, bu maqtanish emas , kelajakka dadil intilayotgan qalbning o'z hayotidan mammunligi xolos.
  - D. Har bir inson fikr yuritish qobiliyatiga ega.

### **ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR**

1. Shart ma'nosi ifodalangan qo'shma gap berilgan qatorni toping.
- A. Kimki buni tushunmabdi, u katta xatoga yo'l qo'yadi.
- B. Tog'asi qancha qizishsa, Oyqiz o'zini shuncha o'g'irlilikka solardi.
- C. Har qancha uzr aytsam ham, inobatga olmadи.
- D. Bahor kelsa, kunlar isiydi.
2. Qaysi qatorda payt tobe gapning kesimi fe'lning ravishdosh shakli bilan ifodalangan?
- A. — Bilasizmi, har bir quduqqa qancha pul sarflanadi?
- B. Pochchayev boshqarmaning zinasiga oyoq qo'yganda, ro'paradan Samadiy chiqib keldi.
- C. Biz kelgach, negadir ular asta tarqalishdi.
- D. U yerga borsam, menga hech kim qaramaydi.
3. Tog'day og'ir bilak berdim, yovlarni mushtlasin deb. Ergash gapning turini toping.
- A. ravish ergash gap
- B. maqsad ergash gap
- C. sabab ergash gap
- D. to'ldiruvchi ergash gap
4. Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi tushadi. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?
- A. kesim ergash gap
- B. to'ldiruvchi ergash gap
- C. ega ergash gap
- D. aniqlovchi ergash gap
5. Yomg'ir sharros quysa-da, bolalar o'yinni davom ettirar edilar. Ergash gapning turini aniqlang.
- A. payt ergash gap
- B. sabab ergash gap
- C. to'siqsiz ergash gap
- D. natija ergash gap
6. Kim sening kamchiliklaringni to'g'ri aytsa, u sening haqiqiy do'stingdir. Ushbu gap turiga ko'ra qanday gap?

- A. kesim ergash gap  
 B. ega ergash gap  
 C. to'ldiruvchi ergash gap  
 D. aniqlovchi ergash gap
7. Matnda tobe gap hokim gapdan qanday tinish belgisi bilan ajratilishi mumkin?
- A. faqat vergul yordamida  
 B. faqat ohang yordamida  
 C. nuqtali vergul, vergul, tire, ikki nuqta yordamida  
 D. vergul, nuqta yordamida
8. Qaysi bog'lovchilar tobe gap tarkibida keladi?
- A. agar, bamisoli  
 B. shuning uchun, zero  
 C. natijada, -ki (-kim)  
 D. shu sababli, oqivatda
9. Qaysi gapda tobe gap hokim gapdan oldin kelgan?
- A. Mingboshi yaxshi biladiki, Miryoqubdan boshqa chin ko'ngildan kuyadigan odam yo'q.  
 B. Dangasaga mehnat yoqmaydi, shuning uchun u bahona izlaydi.  
 C. Bu yil cho'llarda o't mo'l, chunki yomg'ir ko'p yog'di.  
 D. Dushman kuchsizlangan-u, lekin taslim bo'lgisi kelmasdi.
10. Botir fahmladiki, qushning bolalari har yili shu ajdarga yem bo'lar ekan.— Ushbu gap tobe gapli qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
- A. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap  
 B. ega tobe gapli qo'shma gap  
 C. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap  
 D. hol tobe gapli qo'shma gap
11. Mehmonga borsang, mezbunga ko'proq yengillik kiritishga intil.— Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
- A. ega tobe gapli qo'shma gap  
 B. hol tobe gapli qo'shma gap  
 C. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap  
 D. kesim tobe gapli qo'shma gap
12. Boy bo'lay deb, izzatingdan ayirma.— Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?
- A. hol tobe gapli qo'shma gap  
 B. ega tobe gapli qo'shma gap  
 C. kesim tobe gapli qo'shma gap  
 D. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap
13. Buni esdan chiqarmang: shu ozod va obod vatan barchamizniki. Ushbu gap tobe gapning qaysi turiga mansub?
- A. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap  
 B. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap  
 C. ega tobe gapli qo'shma gap

D. hol tobe gapli qo'shma gap

14. Kim devorning narigi tomonida bo'lsa, u omon qoldi. Ushbu gap tobe gapning qaysi turiga mansub?

A. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap

B. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap

C. ega tobe gapli qo'shma gap

D. hol tobe gapli qo'shma gap

15. Nisbiy so'zlar ishtirok etgan gaplarda ko'rsatish olmoshi qaysi gap tarkibida bo'ladi?

A. hokim gap tarkibida

B. tobe gap tarkibida

C. hokim va tobe gap tarkibida

D. hokim yoki tobe gap tarkibida

16. Nisbiy so'zlar ishtirok etgan gaplarda so'roq olmoshi qaysi gap tarkibida bo'ladi?

A. hokim gap tarkibida

B. tobe gap tarkibida

C. hokim va tobe gap tarkibida

D. hokim yoki tobe gap tarkibida

17. Kim vatanni sevsə, u iymonlidir. Ushbu gapdagi nisbiy so'zni aniqlang.

A. kim

B. u

C. sevsə

D. kim, u

18. —sa~da— shakli bilan ifodalangan tobe gaplar qanday ataladi?

A. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap

B. maqsad tobe gapli qo'shma gap

C. holat tobe gapli qo'shma gap

D. to'siqsiz tobe gapli qo'shma gap

19. Hokim gap boshida keladigan bog'lovchini toping.

A. natijada

B. deb

C. -ki (-kim)

D. agar

20. Hokim gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

A. deb

B. -ki (-kim)

C. shuning uchun

D. agar

21. Tobe gap boshida keladigan bog'lovchini toping.

A. deb

B. -ki (-kim)

C. shuning uchun

D. agar

22. Tobe gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.
- A. deb
  - B. -ki (-kim)
  - C. shuning uchun
  - D. agar
23. Qaysi qo'shma gap tarkibida nisbiy so'z qo'llangan?
- A. Mana, bahor nishonasi hidla, sog'ingandirsan.
  - B. Binafsha qo'ldan-qo'lga o'tdi.
  - C. Kech kirib, keluvchilarning oyog'i uzulishi bilan, u ko'chaga chiqdi.
  - D. Kimki ajdodlar yaratgan boyliklarni bilmasa, demak u nafosatdan bebahra yashagan.
24. —deb— so'zi yordamida birikkan qo'shma gaplarning qaysi birida sabab ma'nosi ifodalangan?
- A. Ukam o'qisin deb, "Oygul bilan Baxtiyor" kitobchasini oldim.
  - B. O'rtoqlarim kelishdi deb, ko'chaga chiqdim.
  - C. Oyim charchab qolmasinlar deb, opam bilan birga uylarni yig'ishtirdik.
  - D. Bolalar chiniqsin deb, turli musobaqalar o'tkazildi.
25. Qaysi qatorda hokim gap tobe gapdan keyin joylashgan?
- A. Yomg'ir tomchilayotgan bo'lsa ham, havo iliq edi.
  - B. Hali qish tugamagan, lekin bahor nafasi seziladi.
  - C. Daryolar dengizga juda ko'p oziqli moddalar olib keladi, shuning uchun Kaspiy dengizida baliq ko'p.
  - D. Shuni unutmanki, rostgo'ylik axloqiy poklik har bir odamni to'g'ri yo'lga boshlaydi.
26. Qaysi gapda so'roq olmoshi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga ishora qilgan?
- A. Kimki o'z ishidan rozi bo'lsa-yu, shod bo'lsa, uning ishtahasi ham yaxshi bo'ladi.
  - B. Kishi qayerda tug'ilib o'sgan bo'lsa, o'sha joyni doim qo'msaydi.
  - C. Kimki yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytadi.
  - D. Kimki bilimga tayansa, u doimo kamol topadi.
27. Qaysi qatorda to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap berilgan?
- A. Yutug'imz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini yaxshi biladi.
  - B. Shohga bildirdilarki, navkarlar boshqa bir pulsor beklar xizmatiga o'tib ketadi.
  - C. Qayerda janjalli ish bo'lsa, o'sha kishini ro'para qilamiz.
  - D. Qay vaqt uyga kirmay, ko'sak chuvib o'tirgan bo'ladi.
28. Qaysi qatorda ega tobe gapli qo'shma gap berilgan?
- A. Kimdan xalqqa jabr-zulm sodir bo'lsa, u bizning dushmanimizdir.
  - B. Kimki bo'lsa dilozor, undan elu yurt bezor.
  - C. Kelgusi taraqqiyot zamini shu — hamma kompyuterni ishlata bilishi va undan foydalana olishi shart.
  - D. Iltimos qilaman, oldin rais so'zlasalar.
29. Bu shunday bir daraki, Rahimxon qirq ming askari bilan kelib yo'l topolmay ketgan. Ushbu gap:

- A. kesim tobe gapli qo'shma gap
- B. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap
- C. natija (hol) tobe gapli qo'shma gap
- D. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap

30. Quyidagi juftliklardan qaysi birida gap bo'laklarining tobe gaplar bilan ifodalanishi muvofiq emas?

- A. Eshitdimki, kecha kelibsiz — Kecha kelganingizni eshitdim.
- B. Yaxshi odatingiz shuki, barvaqt turasiz — Yaxshi odatingiz barvaqt turishdir.
- C. Qachon so'rasangiz, darrov javob beradi — So'ragan narsangizga darrov javob beradi.
- D. Shunday ish qilingki, pushaymonlik keltirmasin — Pushaymonlik keltirmaydigan ish qiling.

31. Toki hayot davom etar ekan, ta'lif ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib, yangilanib boraveradi. Ushbu gap bog'lanish vositasiga ko'ra qo'shma gapning qaysi turi hisoblanadi?

- A. nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap
- B. teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap
- C. ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap
- D. bog'lovchi - yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gap

32. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A. Yomg'ir tomchilayotgan bo'lsa ham, havo iliq edi.
- B. Kishi qanchalik ma'rifatli bo'lsa, u o'z vataniga shuncha foyda keltiradi.
- C. Qishloq obod, mening ko'nglim shod.
- D. O'ldimi, uxladimi endi baribir unga.

33. Otaning farzandi oldidagi qarzi shundan iboratki, unga yaxshi nom qo'yishi, ilm yo hunar o'rgatishi, uni mustaqil hayotga tayyorlashi kerak. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turi hisoblanadi?

- A. ega tobe gapli qo'shma gap
- B. kesim tobe gapli qo'shma gap
- C. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap
- D. hol tobe gapli qo'shma gap

34. Quyidagi bog'lovchilarning qaysi biri ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda tobe gap tarkibida keladi?

- A. agar
- B. shuning uchun
- C. natijada
- D. -ki, -kim

35. Quyidagi bog'lovchilarning qaysi biri ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap tarkibida keladi?

- A. chunki
- B. agar
- C. go'yo

D. oqibatda

36. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda tobe gap boshida keluvchi bog'lovchilarni toping.

A. chunki, zotan

B. shuning uchun, shu tufayli

C. natijada, oqibatda

D. deb, -ki (-kim)

37. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap boshida keluvchi bog'lovchilarni toping.

A. zero

B. garchi

C. agar

D. oqibatda

38. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap oxirida keladigan bog'lovchini aniqlang.

A. zero

B. deb

C. -ki, -kim

D. natijada

39. Qo'shma gap tarkibidagi tobe gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

A. go'yo

B. zero

C. deb

D. -ki, -kim

40. Qaysi qatorda sabab ma'nosi ifodalangan gap berilgan?

A. Bolalar chiniqsin deb, turli musobaqalar o'tkazildi.

B. O'rtoqlarim kelishdi deb, ko'chaga chiqdim.

C. Avlodlarga qolsin deb, mustahkam va ko'rkmak inshootlar bunyod etilmoqda.

D. Ukam o'qiydi deb, kitobni kutubxonadan oldim.

41.—deb— bog'lovchisi qaysi hollarda sabab ma'nosini bildiradi?

A. buyruq va shart maylidagi fe'lidan keyin kelsa

B. kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa

C. buyruq va shart mayli, kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa

D. o'tgan zamon fe'llaridan keyin kelsa

42. Ega tobe (ergash) gapli qo'shma gapni toping.

A. Hayot qaysi biriga qattiq tegib ketsa, o'shanisi kuchliroq tovush beradi.

B. Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini va uni vijdoran bajaradi.

C. Qalb salomat bo'lsa, aql ham, fikr ham salomat bo'ladi.

D. Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi.

43. Biz istaymizki, kadrlarimiz rivojlangan davlatlarning mutaxassislaridan kam bo'lmasin.— Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap

B. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap

C. maqsad tobe gapli qo'shma gap

D. kesim tobe gapli qo'shma gap

44. Ayrim muammolar borki, ularni butun jahon xalqlari birgalashib hal qilishi kerak.— Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap

B. to'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap

C. kesim tobe gapli qo'shma gap

D. ega tobe gapli qo'shma gap

45. Kimda-kim uni ko'rishga jur'at qilar ekan, uning kallasini oldiraman.— (Ertakdan) Berilgan qo'shma gapning turini aniqlang.

A. aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap

B. sabab tobe gapli qo'shma gap

C. ega tobe gapli qo'shma gap

D. kesim tobe gapli qo'shma gap

46. Aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap berilgan qatorni toping.

A. Bu shunday bir daraki, Rahimxon qirq ming askari bilan kelib yo'l topolmay ketgan.

B. Buni esdan chiqarmang: shu ozod va obod vatan barchamizniki.

